

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI**

R.X.MAKSUDOV, I.S.HAYITOV

TO‘QIMACHILIK TARIXI

(Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma)

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2012 yil 26 dekabrda 507-sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat berilgan.**

TOSHKENT - 2015

*Biz qudratli to'qimachilik va
yengil sanoat yaratishimiz kerak.
Xamma taraqqiy etgan
sivilizatsiyalashgan davlatlar
singari xom ashyo-paxta emas
tayyor mahsulotni sotishimiz
zarur.*

Islom KARIMOV

ANNOTATSIYA

Qo'lingizdagi mazkur qo'llanmada kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan bo'lgan paxta sanoati, to'qimachilik va yengil sanoatlari sohalarining paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi va bugungi holati hamda istiqbollari haqida ma'lumot beriladi.

Qo'llanmadan shuningdek, paxta sanoati, to'qimachilik va yengil sanoat yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari, mazkur sohalar bilan shug'ullanuvchilar, qiziquvchilar, ilmiy-izlanuvchilar, muhandis-texnik xodimlar hamda oliy o'quv yurtlarining talabalari foydalanishlari mumkin.

Mualliflar: texnika fanlari nomzodi, dotsent R.X.Maksudov
tarix fanlari nomzodi, dotsent I.S. Xayitov

Taqrizchilar: texnika fanlari nomzodi, professor E.SH.Alimboyev
texnika fanlari doktori, professor M.M. Muqimov
texnika fanlari nomzodi, professor A.M.Salimov

Muharrir: K.Otajonov

KIRISH

Muhtaram o'quvchi!

Siz bugun o'zingiz tanlagan kasb-mutaxassisligingiz bo'yicha ko'nikma va malaka bilimlarini egallash uchun kasb-hunar kollejiga o'qishga kirdingiz. Kollej o'quvchisi degan sharaflı nomga sazovor bo'ldingiz. Unutmang, bunday yuksak nomga barcha tengdoshlaringiz ham musharraf bo'lavermaydi. Zero, ko'pincha o'quvchi yillarini qadrlab oltinga tenglashtirishadi. Ha bu bejizga emas.

Siz, avvalo o'z hayot yo'lingizni yaxshi mutaxassislikni tanlashdan boshlaganingizdan mamnun bo'ling! Chunki, to'qimachilik va yengil sanoat sohasida malakali mutaxassis bo'lish, kelgusida shu kasb bo'yicha samarali mehnat qilib xalqimizni chiroyli, bejirim va nafis kiyim-kechaklar, puxta va pishiq poyabzallar, shuningdek, turli ranglarda jilovlanib, ko'zni qamashtiruvchi gazlamalar, xususan paxta, ipak va jun matolar, gilamlar vahokazalar bilan ta'minlash har qanday kishiga ham xush kayfiyat baxsh etadigan, farovonlik keltiradigan baxtdir, sharaftir.

Aziz o'quvchi! Qo'lingizdagi mazkur kitobda, mualliflar Sizga tanlagan kasb-mutaxassisligingiz paxta sanoati, to'qimachilik va yengil sanoat tarmoqlari, ularning paydo bo'lish tarixi va rivojlanish bosqichlari haqida dastlabki tushunchalar berishga harakat qilgan.

Shu bois, biz bu qo'llanmani umumiy ma'noda to'qimachilik degan so'zning keng qamrovli hamda keng ma'noli tushuncha ekanligidan kelib chiqqan holda "To'qimachilik tarixi" deb nomladik. Demak, kitobda so'z faqat to'qimachilik kasbi haqida borarkanda deb tushunmaslik kerak.

Negaki, paxta sanoati, to'qimachilik va yengil sanoat sohalarining har bir tarmog'i o'zining boy va uzoq tarixiga, shuningdek, kelgusida istiqbolli rivojlanish imkoniyatlariga ega.

O'ylaymizki, o'z tanlagan kasb-mutaxassisligingizga bo'lgan mehr va qiziqish Sizni bo'lajak kasbingiz tarixiga e'tiborsiz qoldirmaydi. Tabiiyki, Siz o'z kasbingiz, uning tarixi, ya'ni o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli bilan faxrlanasiz. Ayniqsa, mamlakatimiz mustaqilligini

mustahkamlashda to'qimachilik va yengil sanoatining salmoqli hissasi borligini bilib yanada quvonasiz. Ha, bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining asosiy qismi paxta sanoati, to'qimachilik va yengil sanoat tarmoqlari bilan bevosita yoki bilvosita bog'liqdir.

Aziz o'quvchi! Siz respublikamiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari- paxta sanoati, to'qimachilik va yengil sanoat hamda boshqa sanoat tarmoqlari uchun malakali kadrlar tayyorlash maskanlari kasb-hunar kollejlari o'qish jarayonida, uning tarixi va rivojlanish bosqichlari, boy an'ana va qadriyatlari, yetuk professor-o'qituvchilari, mehribon ustoz-murabbiylari bilan ham yaqindan tanishasiz. Aminmizki, bu jamoada o'z o'ringizni topib, uning an'ana va qadriyatlarini davom ettirasiz, yaxshi xulq, a'lo baxoga o'qish bilan tanlagan kasb-mutaxassisligingiz bo'yicha ajoyib, har tomonlama yetuk kadr bo'lib yetishasiz. Kelgusida xalqimiz va ona-vatanimiz baxt-saodati, porloq kelajagi yo'lida hormay-tolmay mehnat qilib, respublikamiz iqtisodiyoti rivojiga munosib hissa qo'shasiz.

Mazkur kitob, shu ma'noda Siz aziz o'quvchilarga mo'ljallangan. Agar biz shu kitob orqali Sizlarda bir oz bo'lsada o'z kasblaringiz bilan faxrlanish va g'ururlanish his-tuyg'ularini qo'zg'ata olsak, o'zimizni baxtiyor hisoblaymiz. Kitob akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchi hamda ustozlariga shuningdek, institutda mutaxassislikka kirish darslarini o'tishda professor-o'qituvchilar va ustoz-murabbiylarga ham tavsiya etiladi. Shu ma'noda undan barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Kitob to'g'risidagi fikr va mulohazalaringiz uchun oldindan o'z minnatdorchiligimizni bildrib qolamiz.

Tabiiyki, Siz to'qimachilik yo'nalishida o'rta maxsus malaka olar ekansiz, albatta oliy ma'lumot olishni ham xohlaysiz. Shu ma'noda ikki og'iz so'z bu sohaning yetakchi maskani Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti haqida.

TO‘QIMACHI KADRLAR TAYYORLASH MASKANI

Kadrlar har qanday jamiyatning, davlatning yetakchi kuchi hisoblanadi. Zero, mutaxassis kadrlarsiz, ya'ni ularning ishtirokisiz hayotning biron-bir sohasi rivojlanishini tasavvur qilish mumkin emas. Shu ma'noda, mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari bo'lgan paxta sanoati, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalari uchun yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, ayniqsa mazkur tarmoqlarning paydo bo'lishi jarayonida, xususan XIX asr 2-yarmi va XX asr 1-yarmida o'ta dolzarb masala bo'lib kelgan edi. Chunki, ayni shu davrda Respublikamizda paxta tozalash, to'qimachilik, pillakashlik, tikuvchilik, to'quvchilik, yigiruvchilik, charm-poyabzal kabi sanoat tarmoqlari poydo bo'ldi, shakllandi va rivojlandi. Bu o'z navbatida malakali ishchilarga, muhandis-texnik xodimlarga bo'lgan talabni oshirdi.

Shu bois ham o'tgan asrning 30-yillari boshida nafaqat O'zbekistonda balki Markaziy Osiyoda, qolaversa sobiq ittifoqda nufuzli oliy o'quv yurtlaridan biri bo'lgan Toshkent to'qimachilik institutiga asos solindi.

Shunday qilib, 1932 yil 26 iyunda sobiq Ittifoq Yengil sanoat xalq komissarligining 90-son qarori bilan Toshkent to'qimachilik instituti tashkil etildi.¹ Yuqorida ta'kidlaganimizdek, institutning tashkil etilishiga o'tgan asrning 20-yillarida respublikamizda qurib ishga tushirilgan Farg'ona to'qimachilik kombinati, Farg'ona, Buxoro, Samarqand, Marg'ilon pillakashlik fabrikalari, Marg'ilon shoyi kombinati va «Atlas» ishlab chiqarish birlashmasi, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Urganch, Andijon tikuv fabrikalari, Toshkent ko'n zavodi, poyabzal fabrikasi, ishlab turgan ko'plab paxta tozalash zavodlari, qurilishi boshlangan Toshkent to'qimachilik kombinati kabi yengil sanoat korxonalarini yuqori malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash zarurati asos bo'ldi.

Bunga qadar mazkur korxonalar oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan qisman O'zbekiston Milliy universiteti (Sobiq ToshDU) ning "Paxtani

¹ Toshkent shahar davlat arxivi. 45 f. 1-ro'yxat, 1531 ish, 5 varoq.

dastlabki ishlash” kafedrası (1927 y.), 1929 yildan universitetdan ajralib chiqqan O’rta Osiyo paxtachilik-irrigatsiya politexnika institutining to’qimachilik fakultetida, 1931 yildan esa O’rta Osiyo mexanika-texnologiya institutining to’qimachilik fakulteti bazasida, shuningdek asosan, sobiq markazdan yuborilgan kadrlar hisobiga ta’minlangan.

O’rta Osiyo mexanika-texnologiya institutida paxtani dastlabki ishlash va yigirish, to’quvchilik, ipak texnologiyasi bo’yicha mutaxassislar tayyorlash yo’lga qo’yilgan edi. Mana shu institut va fakultet hamda mutaxassisliklar negizida alohida to’qimachilik institutini tashkil etish zarurati paydo bo’ldi.

Shunday qilib, 1932 yil sentabrdan Toshkentda to’qimachilik instituti ochildi. Dastlabki yili institutda 2 ta fakultet: paxtani dastlabki ishlash va mexanika-texnologiya fakultetlari o’z tarkibida 4 ta mutaxassisiik - paxtani dastlabki ishlash, to’quvchilik, yigiruv va ipak texnologiyasi mutaxassisliklari bilan faoliyatini boshladi.

1932-33 o’quv yilida institutga birinchi kaldirg’ochlar sifatida 125 ta talaba qabul qilindi. Xalq maorifi faollaridan bo’lgan Amin Rahmatullayev institutga birinchi rektor qilib tayinlandi.

1933 yilda to’qimachilik instituti tarkibiga O’rta Osiyo mexanika-texnologiya institutining qo’shilishi natijasida ilgari MTI yuqori kurs talabalari bo’lgan yoshlardan institut o’zining birinchi qaldirg’och muxandislarini tayyorlab chiqardi.

1935 yilda institutning 4 qavatli o’quv-laboratoriya binosi (bugungi 2-o’quv binosi) va talabalar uchun 4 qavatli yotoqxona binosi foydalanishga topshirildi.

Bu davrda, institut nafaqat respublikamiz to’qimachilik va yengil sanoat korxonalari, balki qo’shni Qozog’iston, Qirg’iziston, Tojikiston, Turkmaniston, hatto Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining bir qator mamlakatlari uchun ham to’qimachi kadrlar tayyorlovchi yirik maskanga aylandi.

O’tgan yillar davomida institut katta tarixiy yo’lni bosib o’tdi. Yildan-yilga o’quv-laboratoriya bazasi mustahkamlanib bordi. Agar 1935 yilda institutda 6 ta ishlab chiqarish va 5 ta o’quv laboratoriyalari, 5 ta kabinet, sport zali, kutubxona bo’lgan bo’lsa, 1960 yillarga kelib

8 ta ishlab chiqarish, 10 ta o'quv-laboratoriyalari, 13 ta kabinet faoliyat ko'rsatdi. Kutubxonadagi kitoblar fondi 500 tadan 900 mingga yetdi.

Bu davrda talabalar uchun yana 3 ta talabalar uyi, 1973 yilda 6 qavatli 1-o'quv binosi, keyinchalik 1986 yilda esa 5 qavatli 3- o'quv binosi qurib ishga tushirildi.

Talabalar soni muntazam ravishda oshib bordi. Jumladan, ularning soni 1990 yilda 1932 yildagi 125 tadan 10897 taga yetdi. Biroq dastlabki yillarda talabalar orasida o'zbeklar va boshqa mahalliy millat vakillari, ayniqsa uzbek qizlarning salmog'i kam bo'lib, buning ustiga mashg'ulotlarning aksariyat qismi rus tilida olib borilar edi. 1970-80 yillarda Farg'ona vodiysida va Buxoro viloyatida qator to'qimachilik korxonalarining qurilishi institutning Marg'ilon, Namangan va Andijon shaharlarida umum texnika fakultetlari, keyinchalik esa filiallari ochilishiga sabab bo'ldi.

Institutda ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar soni muntazam ko'payib bordi. Bularning orasida institutga 1936-1941 yillarda rektorlik qilgan F.S.Kungurseva, 1927 yilda sobiq ToshDU bugungi O'zbekiston milliy universitetida respublikada ilk bor paxtani dastlabki ishlash kafedrasiga asos solgan prof. B.A.Levkovich, 1957-1973 yillar davomida 16 yil institut rektori bo'lib ishlagan, o'zbek qizlaridan birinchilardan bo'lib Moskva to'qimachilik institutida taxsil olgan va uni muvffaqiyatli tamomlagan, texnika fanlari doktori, professor keyinchalik Akademiklik darajasiga ko'tarilgan, "To'qimachilik materialshunosligi" kafedراسi asoschisi M.A.Hojinova, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Akademigi darajasiga ko'tarilgan M.T.O'razboyev, H.H.Usmonxo'jayev, R.G'.Mahkamov, M.A.Asqarov, professorlardan G'.J.Jabborov, S.D.Boltaboyev, A.B.Xudkovskiy, M.M.Muhamedov, Sh.R.Marasulov, N.F.Fozilov, M.Xolmatov, L.Yunusov, E.Sh.Alimboyev, U.M.Matmusayev, B.G'.Qodirov, K.E.Ergashev, M.M.Muqimov shuningdek, o'z sohasining yetuk mutaxassislari, tajribali pedagoglar Y.Q.Qirg'izboyev, G.L.Ioffe, G'.M.Abdul-Razzoqov, M.R.Mavlyaviyev, M.M.Kattaxo'jayev, Z.A.Abdullayev, Y.Q.Uzoqov, A.A.Alimov, S.M.Nusratov, F.Ozodayev, B.A.Azimov, M.F.Ahmedov, Z.S.Sobirov,

H.M.Muhamadjonov, T.X.Xakimov, E.S.Sobitov, K.T.Umarov, X.X.Samarxo'jayev, O.Maxsudov, A.Mirzaboboyev, X.Abdukarimov va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

1932-2015 yillarda institutda xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun 50 mingdan ortiq yuqori malakali muhandis-texnologlar va bakalavr hamda magistrlar tayyorlab berildi. Bular orasida Kuba, Mongoliya, Afg'oniston, Turkiya, Pokiston, Peru, Ve'tnam, Laos va qator Afrika davlatlarining 700 ga yaqin talabalari ham bor edi.

Institutda o'quv ishlari bilan bir qatorda keng qamrovli ilmiy izlanishlar ham olib borildi. Shu maqsadda 1937 yilda aspirantura bo'limi tashkil etilgan edi. Aspiranturaga qabul yildan yilga ortib bordi. Agar 1937-1957 yillarda aspiranturaga har yili 2 kishi qabul qilingan bo'lsa, 1977-1980 yillarda 24 tadan, 1981-1990 yillarda 40-45 nafardan yoshlar qabul qilindi.

Shu davr ichida fakultetlar soni 2 tadan 6 taga yetdi. Kechki va sirtqi fakultetlar ham ochildi. Kafedralar soni esa 4 tadan 38 taga yetdi. Umuman 1980 yillarda institut 13 ta mutaxassislik va 21 ta ixtisoslik bo'yicha kadrlar tayyorlay boshladi. Talabalar uchun o'zbek tilida o'nlab darsliklar, yuzlab uslubiy qo'llanma, ko'rsatma va tavsiyalar tayyorlandi.

1932-2006 yillarda institutda A.Raxmatullayevdan so'ng F.S.Kungurseva, N.I.Truevsev, S.N.Nusratov, A.K.Inoyatov, Z.A.Abdullayev, M.A.Hojinova, T.R.Rashidov, B.G'.Qodirov, M.F.Ahmedov, H.A.Alimova, A.P.Parpiyevlar rektorlik lavozimida faoliyat ko'rsatishdi. 2006 yil iyun oyidan institutni texnika fanlari doktori, professor Q.Jumaniyazov boshqarib kelmoqda.

Institut tarixida B.A.Levkovich, M.T.O'razboyev, A.Alimov, N.N.Nazarov, K.M.Mansurov, M.R.Razzoqov, G'.J.Jabborov, X.Q.Qurbonov, Y.Q.Qirg'izboyev, G.I.Boldinskiy, R.G'.Mahkamov, M.M.Ma'rupov, S.X.Xusniddinov, M.M.Muhamedov kabi yetuk olimlar va fidoiy professor-o'qituvchilar kafedra va mutaxassisliklar asoschilari bo'lishgan.

Shu bilan birga institutning sho'rolar hukmronligi yillaridagi qariyb 60 yillik faoliyati davrida qator kamchilik va nuqsonlar ham bo'ldi.

Birinchidan, ta'lim tizimi o'ta mafkuralashtirildi. Kadrlar tayyorlashda son ketidan quvilib, sifatga e'tibor berilmadi. **Ikkinchidan**, kafedralar, o'quv-laboratoriyalari, kabinetlar yangi asbob-uskunalar, o'quv qurollari bilan jihozlanmadi. **Uchinchidan**, o'quv jarayoni va adabiyotlarning 90 foizi rus tilida bo'lishi mahalliy yoshlarning puxta va chuqur bilim olishiga, o'z ixtisosligi bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar bo'lib yetishishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. **To'rtinchidan**, talabalar va professor-o'qituvchilar zamonaviy xorij texnologiyalari bilan tanishtirilmadi. Ular uchun tajriba almashish imkoniyati yaratilmadi va hakoza.

1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasi davlat mustakilligining e'lon qilinishi bilan institut tarixida yangi bosqich boshlandi. Mustaqillikning o'tgan 24 yilida institut jamoasi ta'lim-tarbiya jarayonini zamon talablari darajasida qayta qurish, uni yanada takomillashtirish, samaradorligini oshirish, o'quv-laboratoriya va kabinetlarini yangi zamonaviy kompyuterlar, boshqa asbob-uskunalar bilan jihozlash, ta'lim-tarbiyada milliy qadriyatlar va xalq an'analariga alohida e'tibor berish, talaba-yoshlar ongiga mustaqillik va milliy istiqlool g'oyasini singdirish kabi masalalarda jiddiy yutuqlarga erishdilar. Eng muhimi, butun respublikamizda bo'lganidek, institutda ham ta'lim-tarbiya ishlari partiyaviylik, sinfiylik va mafkuraviylikdan xolos etildi. Talaba-yoshlarga erkin fikrlash, o'z ona tilida bilim olish, zamonaviy texnologik jarayonlar asosida bozor iqtisodi talablariga javob beradigan har tomonlama yetuk barkamol insonlar bo'lib yetishish imkoniyatlari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida mamlakatimiz Prezidenti va hukumatining bevosita qo'llab-quvvatlashi hamda otalarcha g'amxo'rliqi natijasida butun respublika ta'lim tizimida bo'lganidek, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida ham jahon standartlari talabi darajasida kadrlar tayyorlash tizimiga o'tildi.

Bu ishlarni amalga oshrishda 1990 yildan 15 yil davomida institutga rahbarlik qilgan ajoyib olima, yoshlarning mehribon ustoz va murabbiyi, texnika fanlari doktori, professor H.A.Alimova jamoaga

bosh-qosh bo'ldi.

Mustakillik yillarida institutda quyidagi amaliy va ijobiy tadbirlar amalga oshirildi:

- Ta'lim tizimida asosiy e'tibor talabalar sonini ko'paytirishga emas, balki sifatta qaratildi;
- Respublikamizning jadal rivojlanib borayotgan paxta sanoati, to'qimachilik va yengil sanoati tarmoqlari uchun mahalliy va milliy kadrlar tayyorlashga e'tibor kuchaytirildi;
- O'quv jarayonini takomillashtirish, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish natijasida ta'limning test-reyting tizimiga o'tildi;
- Talaba-yoshlarni to'liq davlat tilida o'qitish yo'lga qo'yildi. Ular uchun jahon standartlariga mos yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratildi;
- Institut xalqaro maydonga chiqdi. Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy, Gretsiya, Rossiya Federatsiyasi kabi qator xorijiy davlatlarning nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan talabalar almashish, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, birgalikda ilmiy-tadqiqotlar olib borish, tajriba almashish yo'lga qo'yildi;
- Talabalarga menejment, marketing, audit, demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, siyosatshunoslik, sotsiologiya, dinshunoslik, milliy istiqbol g'oyasi, ma'naviyat asoslari kabi bir qator yangi fanlarni o'qitish amalga oshirildi va hakazo.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida institut yangidan tug'ildi. Uning fakultet, kafedra va bo'limlari qayta tashkil etildi. Bugun institutda "Paxta sanoati texnologiyasi", "To'qimachilik sanoati texnologiyasi", "Avtomatlashtirish va boshqaruv", "Yengil sanoat va matbaa mahsulotlari texnologiyasi" fakultetlari, shuningdek, 25 ta kafedra faoliyat ko'rsatmoqda. Bu fakultetlarda mos ravishda paxta sanoati, to'qimachilik va yengil sanoatining mashinasozlik, trikotaj, to'quvchilik, yigiruvchilik, tikuvchilik, poyabzal, paxta tozalash, ko'n-teri, ipakchilik tarmoqlari, hamda kimyo va matbaa sanoati uchun malakali bakalavr va magistrLAR tayyorlanmoqda.

Fakultet va kafedralarga uyushgan 360 ga yaqin professor-o'qituvchilar salkam 4000 ga yaqin talabaga nazariy va amaliy bilim sirlaridan saboq bermoqdalar. Bularning safida O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademiklari R.G'.Mahkamov, M.A.Asqarov, fan doktorlari, professorlar B.M.Mardonov, A.J.Jo'rayev, M.M.Muqimov, M.T.Xojiev, A.YE.Lugachov, M.M.Shukurov, H.Q.Tursunov, A.S.Rafikov, D.B.Xudoyberdiyeva, I.A.Nabiyeva, T.J.Qodirov, fan nomzodlari, professorlar, X.X.Kamilova, M.K.Qulmetov, A.M.Salimov, fan nomzodlari, dotsentlar R.X.Maksudov, A.K.Bulanov, A.A.Abdug'afforov, I.S.Hayitov, A.A.Majidov, R.S.Roziqov, I.G.Shin, M.Axmatov, U.T.Abdullayev, S.Z.Yunusov, A.K.Usmonqulov, T.B.Murodov, H.A.Temirov, R.N.Akbarov, M.K.Rasulova, O.A.Haydarov, S.L.Matismailov, A.E.G'ulomov, Q.G'.G'ofurov, H.I.Isayev va boshqa ko'plab mutaxassis-olimlar, professor-o'qituvchilar, ustoz-murabbiylar bor.

Mustaqillik yillarida institutda ta'lim tizimining jahon standartlariga mos ravishda tubdan qayta qurilishi natijasida mutaxassislar tayyorlashda yangi yo'nalish - bakalavr va magistrlar tayyorlashga o'tildi. 2000 yilda birinchi bakalavrlar tayyorlab chiqarilgan bo'lsa, 2001 yilda dastlabki magistrlar institutni bitirib chiqdi. Shuningdek, kadrlar tayyorlash masalasida yoshlar orasidan iqtidorli yoshlarni tanlab o'qishga qabul qilishga katta e'tibor berilmoqda. Shu maqsadda institut xuzurida 2 ta Akademik litsey tashkil qilindi. Ularga har yili 200-220 o'quvchi qabul qilinib, institutga kirish uchun tayyorlanmoqda.

Bundan tashqari zamonaviy kompyuter markazi tashkil etildi. Bugun institutda 500 ta kompyuter ishlab turibdi.

Shunday zamonaviy kompyuterlar institutning barcha kafedra va bo'limlarida ham mavjud, institut jahon internet tarmog'iga ulangan. Bu hol masofadan turib o'qitish va xorijiy axborotlarni tezlik bilan olishda qo'l kelmoqda.

Mustaqillik yillarida institutning xalqaro aloqalari rivojlandi. Bugun institut "To'qimachilik Akademiyasi", "Matbaa o'quv yurtlari Assotsiatsiyasi", "Ipak Assotsiatsiyasi" kabi nufuzli xalqaro uyushmalar a'zosi. U xorijiy mamlakatlarning 21 ta turdosh oliy o'quv yurtlari bilan mustahkam aloqalar o'rnatgan. Bularning orasida Germaniyaning Berg, Belgiyaning Gent, Rossiyaning Moskva Davlat texnika universiteti,

Moskva to'qimachilik akademiyasi va matbaa universitetlari, Sankt-Peterburg, Ivanova, Kostroma to'qimachilik institutlari, Gretsiyaning Pirey texnologiya instituti va boshqalar bor.

Umuman, keyingi yillarda institutning 400 dan ortiq talaba va o'qituvchilari AQSH, Germaniya, Angliya, Belgiya, Gretsiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Angliya va boshqa davlatlar o'quv markazlarida amaliyot o'tib qaytdilar. Bunday xalqaro aloqalardan ko'zda tutilgan maqsad:

- institutning xalqaro obro'sini ko'tarish;
- bitiruvchi talabalarning raqobatbardoshligini ta'minlash;
- xorijiy o'qyuv yurtlar va ilmiy markazlarda professor-o'qituvchilar malakasini oshirish;
- talabalar va ilmiy-stajyor-tadqiqotchilarni xorijga o'qishga va amaliyot o'tishga yuborish;
- ilmiy axborotlar almashish va jahon fani bilan integratsiyalashish;
- institutda o'quv jarayonini zamonaviy laboratoriya va texnologik vositalari bilan qurollantirishdan iborat.

Shu maqsadda institut xorijiy mamlakatlar bilan delegatsiya almashishga, xalqaro konferensiya va seminarlar o'tkazishga alohida e'tibor bermoqda. Faqat so'nggi 5 yilda "Buyuk ipak yo'li", "Sharq libosi dizaynerlar ijod manbai", "To'qimachilik sanoati samaradorligini oshirish yo'llari" kabi mavzularda 13 ta xalqaro konferensiya va seminarlar o'tkazildi. Har yili 10-15 xorijiy mamlakatdan to'qimachilik texnologiyasi bo'yicha taniqli olimlardan iborat delegatsiyalar qabul qilinmoqda. O'z navbatida institut olimlari Texas (AQSH), Tayvan, Sichuan (Xitoy), Pirey (Gretsiya), Gent (Belgiya), Berg (Germaniya), London (Angliya), Milan (Italiya), Ivanova, Kostroma, Sankt-Peterburg, Moskva (Rossiya) universitetlari, institutlari va kollejlari bo'lib qaytishdi.

Mustaqillik yillarida institutga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko'paydi. Faqat 1995-2010 yillarda institutga 100 ming AQSH dollariga teng miqdorda zamonaviy o'quv asboblari, kompyuterlar va boshqa jihozlar keltirildi.

Institut o'quv moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda 2000 yil

10 noyabrda O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya hukumatlari o'rtasida Yaponiya hukumatining beg'araz yordami bo'yicha Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti o'quv markazlarini takomillashtirish haqida almashuv notasining imzolanishi ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bunga asosan institut umumiy qiymati 4 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan rivojlangan davlatlarning universitetlari, o'quv-ilmiy markazlaridagi kabi zamonaviy laboratoriya jixozlari, o'quv qurollari va asbob-uskunolari olinib, dunyo andozalariga to'la javob beruvchi o'quv va ilmiy laboratoriyalar tashkil qilindi.

Xozirda davlatimiz va xukumatimiz tomonidan mamlakatimizda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini qurish, ularni zamonaviy moddiy-texnik baza bilan ta'minlash, o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy ta'minotni kuchaytirish, malakali o'qituvchi-pedagoglar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini tayyorlash, malakalarini oshirish, oliy ta'lim, o'rta maxsus, kasb-ta'limi o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash va pirovard maqsadda o'z ishining ustasi bo'lgan mutaxassis-kadrlar tayyorlash, bitiruvchilar bandligini ta'minlash, shu bilan bir qatorda muassasalarni bitiruvchi yoshlarni oliy o'quv yurtlariga kirib o'qishlari uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishda ham Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti tomonidan ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirda Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan 1405 ta kasb-hunar kollejlaridan 940 tasida bizning institutda tayyorlanayotgan mutaxassisliklarga turdosh yo'nalishlar bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Bu yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan kasb-hunar kollejlarini o'quv-uslubiy va moddiy texnik jixatdan qo'llab quvvatlash maqsadida institutimiz bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilmoqda. Kasb-hunar kollejlarida institutdagi mutaxassislik kafedralari negizida birlashgan kafedralar filiallari tashkil yetish, ularga amaliy-uslubiy yordamlar ko'rsatish, olib borilayotgan o'quv jarayoni sifatini oshirish, kichik mutaxassis kadrlar tayyorlash yo'nalishida kasb-hunar kollejlari faoliyatini tashkil etish maqsadida institutning yetuk mutaxassis olimlari, malakali professor-o'qituvchilari bilan bir qatorda Sharof Shuxratov, Mansur Mo'minov, Rustam Murodov, Akmal

Xo‘jaqulov, Saxrob Nazarov, Atxam Xaydarov, Shavkat Xoldorov kabi yosh istiqbolli ilmiy izlanuvchilar va magistrlar jalb etilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizning turdosh kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish bo‘yicha institutning Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bilan ishlash bo‘yicha prorektori R.X.Maksudov boshchiligida tuzilgan **“ishchi–ijodiy guruh”** tomonidan viloyatlarda keng qamrovli amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ha, aziz o‘quvchi! Siz keyinchalik to‘qimachilik va yengil sanoati yo‘nalishi bo‘yicha institutda mavjud bo‘lgan biron-bir mutaxassislikni tanlab o‘qishga kirsangiz adashmaysiz. Institutda Siz uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Aminmizki, bu Sizning o‘z tanlagan mutaxassisligingiz bo‘yicha yetuk kadr bo‘lib yetishishingiz uchun kelgusida o‘zingizning, shuningdek millat, xalq va vatan farovonligi yo‘lida mehnat qilib, shuhrat qozonishingizda keng imkoniyatlar ochadi.

Endi, Siz o‘qish jarayonida bevosita olgan nazariy va amaliy bilimlaringizni hayotda qo‘llaydigan paxta sanoati, to‘qimachilik va yengil sanoat hamda ularning tarmoqlari to‘g‘risida ma’lumot berishga o‘tamiz.

TO‘QIMACHILIKNING PAYDO BO‘LISHI, UNING INSONIYAT JAMIYATI HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Bugungi kunda insoniyat hayoti va faoliyatini to‘qimachilik sohasisiz tasavvur qilish qiyin. Shu ma’noda, to‘qimachilik insoniyatning dastlabki va muhim kasblardan hisoblanadi. Darvoqe, inson uchun eng birinchi ehtiyoj nima? Albatta oziq-ovqat, undan keyin uy-joy, kiyim-kechak. To‘qimachilik aynan insonni kiyintiradigan, issiq va sovuqdan saqlaydigan tarmoq. Zero, insoniyat jamiyatida to‘qimachilik materiallari ishlatilmaydigan sohaning o‘zi yo‘q. Chunki, to‘qimachilik mahsulotlari xalq xo‘jaligining turli sohalarida keng qo‘llaniladi. Gazlamadan kattalar va bolalar uchun kiyimlar tikiladi, ko‘rpa-yostiq, sochiq va pardalar, dasturxon va skatertlar, yopinchiqlar tayyorlanadi. Gazlama bilan mebel va devorlar qoplanadi. Gilam va

linoleumlar, yaxshi isituvchi va ovozni ushlovchi materiallar ishlab chiqariladi, hatto avto va temir yo'l transportida, aviatsiya, tibbiyot, flotda ham keng foydalaniladi.

Shuningdek, to'qimachilik materiallaridan qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun yopinchiq (brezent), avtomobil transporti va texnika uchun palatka va angarlar, sochiladigan materiallarni saqlash, qadoqlash va tashish uchun xaltalar, havo sharlari, parashyut, yelkan (parus)lar, yong'inga qarshi qo'lqop va sovuqqa chidamli skafandrlar, arqon ip, doka, sun'iy qon o'tkazuvchilar, karset va bandajlar, kamarlar, avtomobil shinalari va boshqalar ishlab chiqariladi.

Yuqoridagilardan shu holat ma'lum bo'ladiki, to'qimachilik insoniyat uchun eng zarur, eng kerakli soha ekan. Ma'lumki, yer yuzida insoniyat paydo bo'lganiga 1-1,5 mln. yil bo'lgan deyiladi. Bu albatta taxmin. Biroq, yer yuzida turli mavjudotlar, xususan hayot paydo bo'lganiga bir necha million, ehtimol milliard yillar bo'lgandir. O'tgan davrda mavjudotlarning bir qismi ongli, ammo katta bir qismi ongsiz hayot kechirgan. Boshqacha aytganda, ularning qaysilaridir doimo harakatda, qaysilaridir harakatsiz bo'lgan, ammo har ikkalasi ham yashagan, rivojlangan, yemirilgan. Masalan, tog'lar, daraxtlar, hashoratlari, insonlar va hakoza. Bulardan ongli yashash, ongli hayot kechirish faqat insonga xos.

Demak, inson o'z ongi bilan tabiatga, jamiyatga ta'sir ko'rsatgan. Negaki, inson o'z oldiga maqsad qo'yib yashaydi. Yashash esa kurashish demak, chunki yeyish, ichish, kiyinish o'z-o'zidan bo'lmagan. To'g'ri dastlab insonlar tabiat oldida ojiz bo'lishgan, g'orlarda yashab tayyor mahsulotlar bilan oziqlanishgan, terilar bilan kiyinishgan. Biroq davrlar o'tishi bilan uning ongi rivojlanib, e'tiyoji ham oshib borgan. Demak, inson o'zligini anglay boshlashi bilan kiyinishini o'rgangan, nimanidir yigirgan, tikkan so'ng kiyingan, o'zini issiq va sovuqdan saqlashni o'rgangan.

Albatta, bu jarayon uzoq davom etgan. Misol uchun jundan gazlama tayyorlash undan kiyim tikish uchun avvalo jun beruvchi hayvonni ovlash, uni junini olish, keyin yigirish, to'qish va tikish kerak bo'lgan. Natijada turli kasblar shu jumladan, yigiruvchilik, to'quvchilik,

tikuvchilik kasblari paydo bo'lgan. Bu shuni ko'rsatadiki, insonni mehnat ulug'lagan va ongli bo'lib shakllanishiga yordam bergan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugun olimlarning ilmiy izlanishlari, arxeologik qazishmalar, qadimiy nodir manbalarni chuqur o'rganish va insoniyat jamiyati tarixiy taraqqiyoti bosqichlarini tahlil qilish, taqqoslash asosida to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyoj muntazam ravishda oshib borganligini guvohi bo'lamiz. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish juda uzoq tarixga ega bo'lib poleolit (tosh) davriga borib taqaladi. Ha, bu soha insoniyatni kiyintiradigan, kerak bo'lsa husniga-husn qo'shadigan ajoyib bir soha hisoblanadi.

Yer yuzida eng qadimiy gazlama-bu zig'ir toladan to'qilgan gazlama, chunki zig'ir tola insoniyatga paxta, pilla, jun, kanop tolalardan ancha oldin ma'lum bo'lgan. Buni 1961 yilda Turkiyaning Iotal Xinyuk qo'rg'onida olib borilgan qazishmalar vaqtida topilgan va eramizdan oldingi 6500 yillarda tayyorlangan zig'ir tolali gazlama isbotlaydi. Shuningdek, Shvetsariyadan ham tosh davriga oid jun va kanopdan tayyorlangan qo'pol gazlamalar qoldiqlari topilgan.

To'qimachilikning ilq boschqichi-yigiruvchilik tarmog'i esa undan ham uzoq tarixga ega bo'lib matriarxat davri oxirlariga borib taqaladi. To'quvchilik tarmog'i ham poleolit (tosh) davridayoq paydo bo'lgan. Shunday qilib, o'simliklar va daraxtlarning tayyor po'stlog'idan, hayvonlar junidan, keyinchalik ipak qurti tolalaridan sun'iy yigirishga o'tguncha uzoq davr o'tgan.

To'qimachilik qadim zamonlardayoq o'zining katta xomashyo bazasiga-paxta, jun, pilla, zig'ir, kanop tolalariga ega bo'lgan. Jumladan, paxtadan foydalanilgan. Ilk yigiruvchilik va to'quvchilik melloddan oldingi davrlardayoq Hindiston, Xitoy, Misrda paydo bo'lgan deyiladi. Buni eramizdan oldingi 3250-2750 yillar orasida paxtadan tayyorlangan va Hindistondagi Moxandarada topilgan gazlama isbotlaydi. Bundan tashqari hindlarning muqaddas kitobi Manu (er.av.800 yil)da ham paxta to'g'risida to'liq ma'lumot bor.

Yunonistonlik tarixchi olim Gerodot ham eramizdan oldingi 445 yilda Hindistonda shunday yovvoyi daraxt borki, unda meva o'rniga

qo'ydan olinadigan junga o'xshash chiroyli va sifatli jun o'sadi deb yozgan. Uning fikrlarini A.Makedonskiyning lashkarboshisi Nearx ham tasdiqlagan.



Djon Mandevil paxtani shunday tasavvur qilgan

Jahonda to'qimachilik va yengil sanoat tarmoqlarining rivojlanishida meloddan oldingi yillarda paydo bo'lgan La'l (Lazurit) yo'li, Nefrit yo'li, Shoh yo'li, ayniqsa ma'lum va mashhur Buyuk ipak yo'li juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Eramizdan oldingi II asrda Xitoydan boshlanib Yevropaning markazigacha yetib borgan, aniqrog'i 12 ming kilometr masofaga cho'zilib o'nlab xalqlar va davlatlarni qamrab olgan bu yo'l G'arb va Sharq xalqlari tarixiy taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan.

Ayni, shu Buyuk ipak yo'li orqali Sharq va G'arb xalqlari bir-birlarini tanidi, siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqlarni rivojlantirdi. Masalan, bu yo'l orqali Hindiston va O'rta Osiyodan paxta, Xitoydan pilla, Yevropadan zig'ir tola jahonga tarqaldi. Natijada, jahonda paxta va ipak tolaga bo'lgan ehtiyoj yildan-yilga oshib bordi, chunki paxtadan to'qilgan gazlamalar, zig'ir tola va junga nisbatan chiroyli, nafis, bejirim bo'lib- issiq sovuqdan yaxshi asraydigan mato edi.

Paxta tolasining boshqa tabiiy tolalarga nisbatan anchagina ma'qul va qulayligini anglagan ayrim davlatlar, masalan Rossiya uni o'zida yetishtirishga harakat qilgan. Jumladan, podsho Aliksey Mixaylovich (1665-1672) davrida Astraxan va Moskva atroflarida paxta ekib

ko‘rilgan, ipak qurti boqilgan. Ammo, natija chiqmagan. Bundan to‘g‘ri xulosa chiqargan podsho Pyotr I mamlakatda paxta ekishni to‘xtatib, pillani Ukraina va Moldovada rivojlantirishga ko‘rsatma bergan va ma‘lum yutuqlarga ham erishgan.

Keyinchalik, suv yo‘llarning ochilishi, temir yo‘llar qurilishi, shuningdek, jahonda aholi sonining tez o‘rib borishi natijasida yelkanlar, brezent, qop, transport tasmalari va boshqa to‘qimachilik mahsulotlariga bo‘lgan ta‘kidlaganimizdek, ayniqsa paxta tolasiga bo‘lgan talab ham oshib bordi. talabning oshib borishi bilan tabiiy va sun‘iy tolalarga, xususan yuqorida

Shunday qilib, Yevropaga paxtali ip-gazlama XVII asrda Sharqdan kirib keldi. Qit‘ada paxtani qayta ishlovchi ilk korxonalar Lonkashir (Angliya)da paydo bo‘ldi. Masalan, chit Gollandiyaga Bengaliyadan kirib kelgan. Gollandlar bengalcha chit-“gits” so‘zini “sits” deb qabul qilgan bo‘lsalar, ruslar uni “sitets”-chit deb o‘zlashtirganlar.

Rus olimlari G.N.Kukin va A.N.Solovyevlarning ma‘lumotlariga ko‘ra, hanuz to‘qimachilik mahsulotlari inson ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayapti. Masalan, yer yuzida tayyorlanayotgan jami gazlamalarning o‘rtacha 35-40 foizi kiyimga, yana shunchasi maishiy texnikaga, tibbiyotga, qoplar tikish va qadoqlashga, 20-25 foizi yotoq va oshxona jihozlariga, umuman olganda 60-65 foizi maishiy ehtiyojlarga sarflanar ekan.

Boshqacha aytganda, bugun tayyorlanayotgan umumiy tolaning AQShda 70 foizi, G‘arbiy Yevropada 75 foizi, Tinch okeani havzasi mamlakatlarida 62 foizi asosan gazlama ishlab chiqarishga ketsa, qolgan qismi trikotaj va noto‘qima materiallar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Natijada faqat 20 asrning so‘nggi 25 yilida jahonda gazlama ishlab chiqarish 2,23 foizga, trikotaj-4,62 foizga, noto‘qima materiallar - 9,76 foizga o‘sd.

Demak, jahonda tolaga, xususan paxta tolasiga bo‘lgan talab katta. Uni qondirmoq uchun barcha paxta ekadigan mamlakatlarda ekin maydonlarini emas, hosildorlikni oshirish kerak. Bugun 1 gektar paxtazordan 50-60, hatto 70 sentner hosil oladigan davlatlar (masalan, Isroil) bor. Shunday imkoniyat O‘zbekistonda ham bor. Hozirda

O'zbekiston yiliga o'rtacha 3,4-3,6 mln. tonna paxta yoki 1,1 - 1,2 mln.tonna qimmatbaho xomashyo-paxta tolasi ishlab chiqarmoqda.

Respublikamizda paxtadan keyingi to'qimachilik xomashyosi bu pilla. Biroq bugun pilla tayyorlash ancha qisqarib ketdi va 24-25 ming tonnani tashkil etadi. Hozirda respublikamiz hukumati pillachilikni tiklash va rivojlantirish borasida qator amaliy tadbirlarni ko'rmoqda. Shu maqsadda "O'zbekengilsanoat" DAK qoshida maxsus "O'zbek ipagi" uyushmasi tashkil etildi.

Respublikada tola beruvchi uchinchi soha-bu kanop ishlab chiqarish sanoati bo'lib, mustaqillikgacha bo'lgan davrda O'zbekiston kanop tola tayyorlash bo'yicha yetakchi respublika hisoblangan va sobiq ittifoqda tayyorlanayotgan kanop tolasining 90 foizdan ortig'ini berar edi.

Bugungi kunda bu sohaga bo'lgan e'tibor ancha susayib ketdi. Kanopni qayta ishlash zavod va fabrikalari yopildi, hatto mutaxassis-kadrlar tayyorlash ham to'xtatildi.

Ammo, jahonda to'qimachilik o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Zero, insoniyat bor ekan u kiyinishi, ayni shu to'qimachilik sohalari orqali jamiyat taraqqiyotiga u yoki bu ma'noda ta'sir ko'rsatishi tabiiy.

To'qimachilik sanoatining rivojlanishi o'z navbatida iqtisodiyotning qator boshqa tarmoqlari taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, **birinchi** navbatda tarmoqqa xomashyo yetkazib beruvchi qishloq xo'jaligi, xususan uning paxtachilik, pillachilik, chorvachilik (qo'ychilik), shuningdek zig'ir va kanop tola tayyorlovchi sohalari jadal rivojlandi. Natijada paxtachilikka, pillachilikka, qo'ychilikka ixtisoslashgan yirik-yirik xo'jaliklar, yetakchi firma va kompaniyalar, hatto davlatlar paydo bo'ldi. Masalan, Xitoy, Angliya, Avstraliya, Yangi Zellandiya, O'zbekiston va boshqa davlatlar.

Ikkinchidan, to'qimachilikning zamon bilan hamnafas rivojlanishi, uning eng yangi asbob-uskuna va dastgohlar bilan qurollanishi jahon talablari asosida sifatli, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishini ta'minlash uchun mashinasozlik, xususan to'qimachilik mashinasozligi tarmog'ini rivojlantirish kerak edi. Bunday korxonalar Rossiyada, Germaniyada, AQShda, Angliyada, Xitoyda, Avstriyada, Chexiya, Yaponiya, Koreya va boshqa davlatlarda qurildi. Demak, to'qimachilik

sanoati talab va ehtiyojlari asosida og‘ir sanoat tarmoqlari, shuningdek transport, ayniqsa temir yo‘l transporti rivojlandi. Masalan, XIX asr 80 yillaridan boshlab Turkistondan Rossiya markaziga tomon qurilgan Toshkent-Krasnovodsk (hozirgi Turkmanboshi)-Boku, Toshkent-Orenburg temir yo‘li yoki mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Buyuk ipak yo‘lini tiklash maqsadida o‘tgan asrning 90-yillarida Markaziy Osiyo davlatlari - O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston va Qozog‘iston, Ozarbayjon, Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Pokiston jami 10 ta davlat ishtirokida qurilib ishga tushrilgan Tejen-Seraxs-Mashxad hamda O‘zbekiston-Turkmaniston-Ozarbayjon-Gruziya ishtirokida ochilgan Transkavkaz - Trasika temir yo‘li shular jumlasidandir.

Bu yo‘llardan nafaqat O‘zbekiston, balki barcha ishtirokchi davlatlar, o‘nlab xalqlar katta manfaat ko‘rishdi. Masalan, ilgari O‘zbekistondan jahon bozoriga mahsulotlar Qozog‘iston-Rossiya-Litva-Bolting dengizi orqali chiqarilar edi. Trasika (Transkavkaz) yo‘lining ishga tushirilishi bilan jahon bozoriga yo‘l va u bilan bog‘liq harajatlar 2 baravarga kamaydi. O‘z navbatida keladigan tovarlar narxi ham arzonlashdi, ya’ni sarf-harajatlar kamaydi.

Uchinchidan, yengil sanoatning qishloq xo‘jalik mahsulotlari xususan paxta, pilla, junni dastlabki qayta ishlash tarmoqlari, yigiruv kabi sohalari jadal rivojlandi. Masalan, sho‘rolarning 70 yillik hukmronligi davrida O‘zbekistonda atigi 4 ta to‘qimachilik kombinati va ularning 30 ga yaqin shaxobchasi qurilgan bo‘lsa, mustaqillikning o‘tgan 20 yilida 130 dan ortiq yigiruv, to‘quv va tikuv-trikotaj korxonalari qurilib foydalanishga topshirildi.

To‘rtinchidan, shuni alohida qayd etish kerakki, to‘qimachilikning, umuman yengil sanoatning rivojlanishi aholi turmush darajasining oshuviga, yuzlab va minglab yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, albatta shahar va qishloqlarimiz qiyofasi o‘zgarib obodonlashuviga ham sabab bo‘ladi.

Yuqordagilardan xulosa shuki, to‘qimachilik sohasi mamlakatimiz yengil sanoatining, qolaversa butun iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlaridan bo‘lgan istiqbolli tarmoqdir.

TO‘QIMACHILIK SANOATINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI


To‘qimachilik sohasi o‘z taraqqiyotida bir necha bosqichlarni bosib o‘tdi. Uni shartli ravishda uch bosqichga bo‘lish mumkin.

Birinchi bosqich - eng qadimgi davrlardan XVII asr oxiri – XVIII asr o‘rtalarigacha


Ikkinchi bosqich - XVIII asr o‘rtalaridan XX asr o‘rtalarigacha

Uchinchi bosqich - XX asr o‘rtalaridan hozirgi kunlargacha


Birinchi davrda to‘qimachilikning barcha jarayonlari-yigirish, to‘qish, tikish, ya’ni xomashyodan tayyor mahsulot gazlama yoki kiyim ishlab chiqarishgacha bo‘lgan jarayon qo‘lda bajarilgan. Hindisiton, Xitoy, Koreya, O‘rta Osiyo va boshqa hududlarda qo‘l va oyoq bilan harakatga keltiriladigan ilk dastgohlar paydo bo‘lgan.




Ip-gazlama olish uchun Koreys to‘quv dastgohi



Xitoy ipak to'quv dastgoxi



Negerlarning Exve qabilasi to'quv dastgohi




To'qima tayyorlash uchun ingliz to'quv dastgohi

Dastlab yigirishda tolani o'rash uchun yog'och (cho'p)dan foydalanilgan. Bunda ip chalkashib tugun bo'lib qolmagan. Keyinchalik yog'och (cho'p)dan tolani aylantirishda ham foydalanishgan. Shunday qilib, urchuq paydo bo'lgan. So'ng tik va gorizantal joylashgan to'quv dastgohlari yaratilgan. Tabiiyki, bo'lar qo'l uchun moslamalar edi.



Djon Key ixtiro qilgan "Moki-samalyot"



1733 yilda D.Key "Moki-samalyot" ga patent oldi



E.Kartrayt mexanik to'quv dastgohi ixtirochisi


XV asrga kelib uyg'onish davrining buyuk rassomi, me'mor va mexanik Leonardo da Vinchi birinchi marta o'zi aylanadigan qurilmani yaratdi.

To'qimachilikning rivojlanishida XVII-XVIII asrda, Yevropa mamlakatlarida, xususan Angliyada (1640-1642) va Fransiyada (1789) ro'y bergan burjua inqiloblari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu inqiloblar natijasida, **birinchidan,**


hokimiyatga mulkdorlar sinfi yoki o'sha davr tili bilan aytganda, burjuaziya sinfi keldi. Feodal-pomeshchiklar, ya'ni yirik yer egalari esa hokimiyatdan ketdi. Bu hol insoniyat jamiyatida feodal jamiyatdan burjua jamiyatiga o'tishni boshlab berdi.

Ikkinchidan, millatlar shakllandi, milliy davlatlar, jumladan ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispanlarning milliy davlatlari paydo bo'ldi va mustahkamlanib bordi. Jahonda o'z o'rniga ega bo'ldi.

Uchinchidan, hokimiyatga burjuaziya, ya'ni ishbilarmon, tadbirkor, mulkdorlar sinfining kelishi bilan ilg'or mamlakatlarda sanoat, ayniqsa to'qimachilik sanoati gurkirab rivojlana boshladi. U texnika asosiga ko'chdi.



E.Kartraytning dunyoda birinchi amaliy mexanik to'quv dastgohi (1786 yil)



Jakkordli qo'lda to'qish mashinasi

Masalan, 1738 yilda Dj.Uayt tomonidan yigirish qurilmasi yaratildi. 1769 yilda u Arkrayt tomonidan takomillashtirildi. Bu mashinalar suv bilan harakatga keltirilar edi. Shunday mashinalar Fransiya Robinson (1798) va Lerua (1807) tomonidan ham yaratildi. Shuningdek, Lionlik (Fransiya) to'quvchi Buman to'quv dastgohlarini takomillashtirdi va 1728 yilda Dalkon bilan birga amalda birinchi marta Jakkord mashinasini ixtiro qildi.

1775-1778 yilda Puanson ham bir mashina yaratdi. 1808 yilda esa Mari Jakkord o'zining

yangi to'quv mashinasini ixtiro qildi. Shunday qilib, XVIII-XIX asrlarda to'qimachilik sanoati texnik asosga ko'chdi. 1800 yilda yigiruv mashinalari bug' bilan ishlashga o'tkazildi. Natijada yigirish jarayoni tezlashdi. Bu xomashyoga bo'lgan talabni oshirdi. O'z navbatida qishloq xo'jaligi (paxta, pilla, zig'ir), chorvachilik (qo'ychilik), shuningdek, mashinasozlik, energetika, metallurgiya, stanoksozlik kabi tarmoqlar ham rivojlandi.

Jahonda to'qimachilik xomashyosi va mahsulotlariga ehtiyoj oshib ketdi. Natijada, Angliya Misr va Hindistonga, AQSH Lotin Amerikasiga, Rossiya Turkistonga e'tibor qaratdi. Masalan, Rossiya chetdan to'qimachilik sanoati ehtiyojlari uchun 1824 yilda 100 ming pud, 1848 yilda 1 mln. 320 ming pud, 1859 yilda esa 2 mln. 720 ming 975 pud paxta sotib olgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu davrda negadir to'qimachilik xomashyosi yetishtirish kamayib, uning narxi oshib ketdi. Masalan, 1860 yilda AQShda 8 mln. kip paxta tayrlangan bo'lsa, u 1870 yilda 3 mln. kipga tushib qoldi. Natijada bir pud paxtaning narxi 5 rubl 15 kopeyekdan 61 rubl 10 kopeyekgacha ko'tarildi. Ipak tolaning narxi esa 1754 yildagi 30-60 rubldan 1804 yilda 120-130 rublga, 1811 yilga kelib esa 600-700 rublga yetdi yoki 50-55 yilda 20 barobarga yaqin oshdi. Tabiiyki, bu hol to'qimachilik sanoati rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, 1860 yilda birgina Rossiyada 57 ta yigiruv va 659 ta to'quv fabrikasi ishlab turgan bo'lsa, 1903 yilga kelib ularning soni mos ravishda 35 va 358 taga tushib qoldi.

Ammo, XIX-asr so'nggi choragidan kapitalizm o'zining yuqori bosqichiga, ya'ni imperializm davriga kirishi bilan kapitalistik dunyoda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 30 yilda 3 borobar o'sdi. Sanoatda trest, konsern, kartel, sindikat, kompaniya kabi yirik-yirik monopolistik birlashmalar poydo bo'la boshladi.

Bunday monopoliyalar iqtisodiy hayotning hamma tomonlarini qamrab olib, davlatlar iqtisodiy hayotiga ta'sir o'tkaza bordi. Natidjada, imperialistik davlatlarda, birinchidan, ishlab chiqarish va kapital konsentratsiyasi (markazlashuvi) shunday yuqori darajaga yetdiki, davlatning butun xo'jalik hayotini idora qiluvchi yirik monopoliyalar vujudga keldi.

Ikkinchidan, bank kapitali bilan sanoat kapitali qo'shilib moliya kapitali uning zahirida esa moliya oligarxiyasi paydo bo'ldi. Kapital bir hovuch kishilar qo'lida to'plandi.

Uchinchidan, chetga mol chiqarishdag ko'ra kapital chiqarish ko'proq afzal va ahamiyatli bo'lib qoldi va hakozi. Masalan, 1902 - 1914 yillarda chetga kapital chiqarish Angliyada 62 mlrd. frankdan 75 - 100 mlrd. frankga, Fransiyada 27-37 mlrd. frankdan 60 mlrd. frankga, Germaniyada 12,5 mlrd. frankdan 44 mlrd. frankga ko'tarildi. Natijada, sudxo'r davlatlar soni ko'paydi. 1914 yilda yer yuzidagi jami 1 mlrd. 657 mln. aholining 930 millioni yoki 56 foizi mustamlaka ahvoriga tushib qoldi.

Ilg'or mamlakatlarda to'qimachilik sanoati jadal rivojlandi. Tarmoqda tabiiy tolalar bilan bir qatorda sun'iy tolalar ham ishlatila boshladi. 1884 yilda ilk bor sun'iy tola olindi. Ammo sellyuloza nitrati aralashmasidan olingan bu tola tez yonuvchan bo'lganligi bois keng yoyilmadi. Tabiiy tola tabiiyligicha qoldi.

To'qimachilik sanoati taraqqiyotida uchinchi bosqich-ilmiy-texnika inqlobi davri XX asr o'rtalaridan boshlandi: O'zbekiston to'qimachilik sanoati rivojlanishida 2-jahon urushi yillarida Rastov-Don shahridan (Rossiya) ko'chirib keltirilgan va Toshkentda ishga tushirilgan "Tashtekstil mash"-Toshkent to'qimachilik mashinasozligi zavodi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu zavod XX asr 50-60 yillarda to'qimachilik korxonalari uchun P-66 markali xalqali yigiruv va RTP-192 markali piliklash mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi. Jumladan, 1958 yilda zavod 337 ta yigiruv mashinasi ishlab chiqardi.

Umuman, urushdan keyingi 10 yil (1946-1955 yy.) ichida ittifoq, shu jumladan O'zbekiston to'qimachilik korxonalariga 5 mln. komplekt yigiruv va 68 ming to'quv dastgohlari yetkazib berildi. Shuni ham aytish kerakki, sobiq ittifoqda yoki O'zbekistonda ishlayotgan to'qimachilik dastgohlari tez yangilanmas edi. Masalan, Meddisonning ma'lumotlariga ko'ra Shvetsiyada 5, AQShda 8,5-9 yilda to'qimachilik dastgohlari almashtirilsa, sobiq SSSRda 16 yilda almashtirilar edi.

Shuningdek, 60-yillar oxiri-70-yillar boshlarida to'qimachilik korxonalarida, xususan Toshkent to'qimachilik kombinatida ATPR

turidagi mokisiz to‘quv dastgohlari o‘rnatila boshladi. 1971-75 yillarga kelib esa ilk bor sobiq Chexoslovakiyaning “Autosuk” qayta o‘rash avtomatlari, Penza (Rossiya) to‘qimachilik mashinasozligi zavodida ishlab chiqarilgan yangi mashinalar, sobiq GDRda ishlab chiqarilgan “Testima” markali qayta tarash mashinalari o‘rnatildi.

1913-1970 yillarda yigiruv va to‘quv ishlab chiqarishini g‘ildirakli mashinalar va avtomatik dastgohlar bilan jihozlanishi

Tarmoq	Ulushi foizda					
	G‘ildirakli yigiruv mashinasi			Avtomat to‘quv dastgohlari		
	1913	1966	1970	1913	1966	1970
Ip-gazlama	57	99,9	100	1	76	99,2
Jun	-	97,8	100	-	48,9	62,4
Zig‘ir tola	-	66,9	100	-	45,4	95,2
Ipak	-	-	-	-	51,7	82,9

Bu davrning eng muhim ixtirolaridan biri Ispaniyalik Feranda Kasablankaning 1926 yilda kashf qilgan ikki kamerali tortish uskunasi bo‘ldi. Bu ixtiro to‘qimachilik sanoatida yangi davrni boshlab berdi.

1928 yilda jahonda 4 mln. shu jumladan sobiq itifoqda 2,5 mln. urchuq Kasablanka usulida ishlagani buning isbotidir. Buning natijasida faqat sobiq ittifoqda korxonalar quvvati 11 foizga oshib, mahsulot tannarxi 8-11 foizga kamaydi.

Bu hol to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini yangi zamonaviy mashinalar bilan jihozlashni talab qilardi. Shu asosda 1966 yilda respublika yengil sanoatida-263 ta, 1967 yilda -159 ta, 1968 yilda-217 ta, 1969 yilda-239 ta, 1970 yilda-292 ta maxsus mashinalar o‘rnatildi. Natijada, ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash darajasi 1963-1970 yillarda ip-gazlama sohasida - 5,9 % ga o‘tdi.

**To‘qimachilik sanoati tarmoqlarini mexanizatsiyaash darajasi
(1963-1970 yy.)**

Tarmoq	1963 y.	1965 y.	1970 y.
Ip-gazlama	41,7	42,6	52,9
Ipak	45,0	47,9	64,1
Trikotaj	39,8	41,0	53,0

Jadvaldan shu narsa ko‘rinadiki, 1970 yilda ham to‘qimachilik sanoatida salkam 47 foiz ishlar qo‘lda bajarilar edi. Bu hol tezlik bilan tarmoq texnikasini yangilashni taqazo etar edi. Natijada, birgina 1969 yilda respublika to‘qimachilik korxonalarida yangi texnikani joriy etish bo‘yicha 78 ta tadbir o‘tkazilib 1 mln. 509,8 ming so‘m iqtisodiy samara olindi. Xususan, 6 ta sex kompleks mexanizatsiyalashtirildi, 2 ta texnologik va 1 ta mexanizaiyalashgan patok liniyalar joriy etildi, 434 ta yangi asbob-uskuna, shu jumladan 167 ta avtomatlashgan va modernizatsiyalashtirish mashinalar o‘rnatildi.

Jahonda esa ahvol quyidagicha edi. 1880 yildla AQSH to‘qimachilik sanoatida 10,6 mln. urchuq bo‘lgan bo‘lsa, 1900 yilda 19,1 mln.ga, 1910 yilda 28,3 mln.ga, 1913 yilda esa 31,5 mln.ga yetdi. Shu yili Angliyada 55,6 mln. urchuq ishlar qo‘lda edi. Rossiya ip-gazlama sanoatida esa atigi 9 mln. urchuq bo‘lib, bu Angliya va AQShga nisbatan mos ravishda 6,3 marta kam edi. Natijada Rossiya 1913 yilda AQShdan 2,1 marta, Angliyadan 2,6 marta kam ip-gazlama ishlab chiqardi. Boshqacha aytganda, bu paytda aholi jon boshiga AQShda 57,5 metr kvadrat ip-gazlama va 3,4 pogon metr jun gazlama ishlab chiqarilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich Rossiyada mos ravishda ip-gazlama bo‘yicha 11,9 m²ni, jun gazlama bo‘yicha esa 0,7 pogon metrni tashkil etdi xolos.

Birinchi jahon urushi va uning oqibatida ro‘y bergan iqtisodiy inqiroz boshqa sanoat tarmoqlari qatorida to‘qimachilik sanoatiga ham katta salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Masalan, 1917 yilda ip-gazlama ishlab chiqarish 1913 yilga nisbatan 52 foizga, jun gazlama-65 %, ipak gazlama-42%, Zig‘ir tolali gazlama-80 foiz darajaga tushib qoldi. 1920-1921 yillarda esa 5 foizgacha tushib ketdi yoki 1921 yilda jahonda

150 mln. metr kvadrat, ya'ni aholi jon boshiga atigi 1 metr kvadrat gazlama ishlab chiqarildi xolos.

Natijada XX asr boshlaridayoq to'qimachilik sanoati uchun zarur bo'lgan xomashyo tabiiy va sun'iy tolalarga talab oshib ketdi. Paxta, pilla, jun, zig'ir, kanop tolalar bozori chaqqon bo'lib qoldi.

Rossiya (sobiq ittifoq)da paxta va tola tayyorlashning o'sishi (1913-1987 yillar, ming tonna hisobida)

Yil	Umum.hosil	Tola	Hosildorlik (s.ga)		
				1970	1980
1913	744	223	SSSR	8,5	9,4
1928	-	208	AQSH	4,9	4,5
1950	3538	953	Misr	7,4	10,1
1970	6890	2340			
1987	8090	2470			

Jahonda paxta va kimyoviy tola ishlab chiqarish (mln.tonna hisobida)

Yil	Tola	
	Paxta	Kimyoviy
1913	4,9	0,12
1940	6,7	1,12
1970	12,3	8,6
1985	17,1	16,9

Biroq, sun'iy va kimyoviy tolalar paxta, jun, ipak, zig'ir tolalar o'rnini bosa olmadi. Masalan, 1970 yilda sobiq SSSRda 2.156 ming tonna paxta tolasi, 190 ming tonna jun, 450 ming tonna zig'ir tola ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1986 yilda bu ko'rsatkich paxta tolasi bo'yicha 2.431 ming tonnani, jun bo'yicha 219 ming tonnani, zig'ir tola bo'yicha esa 492 ming tonnani tashkil etdi.

Umuman, 1986 yilda jahonda 15 mln. 196 ming tonna paxta tolasi,

1 mln. 781 ming tonna jun va 700 ming tonna zig'ir tola ishlab chiqarildi. Ehtiyoj esa bundan yuqori edi.

**Sobiq ittifoq to'qimachilik sanoatida tolaga bo'lgan ehtiyoj
(ming tonna hisobida)**

Tola	1970	1980	1990
Paxta tolasi	1742	2010	1880
Jun tola	255	331	335
Zig'ir tola	415	263	200

Yuqorida keltirilgan dalil isbotlardan shu narsa ko'rinib turibdiki, to'qimachilik sanoati uchun tabiiy xomashyo-paxta, pilla, zig'ir, kanop tola yetkazib berish bundan buyon ham dolzarb vazifa bo'lib qolaveradi.

Masalan, shulardan bittasi paxta xomashyosi ishlab chiqarish bugun jahonning 100 dan ortiq mamlakatlarida, shu jumladan Xitoy, AQSH, Pokiston, Hindiston, Misr, O'zbekiston va boshqa mamlakatlarida yetakchi o'rinni egallaydi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, jahonda paxta, undan to'qiladigan gazlamaga, tikiladigan kiyimga talab oshib bormoqda. Fikrimizni isboti uchun quyidagi jadvalga murojaat qilaylik.

**Jahonda paxta va jun gazlama ishlab chiqarish
(mlrd. m² hisobida)**

Gazlama turi	1950 y.	1960 y.	1970 y.	1980 y.	1985 y.
Ip-gazlama	30,4	39,9	43,6	46,8	48,3
Jun-gazlama	2,4	3,0	3,3	3,4	3,4

Demak, 30-35 yil ichida jahonda paxtadan gazlama ishlab chiqarish chamasi 18 milliard kvadrat metr ko'payib 30,4 mlrd. m² dan 48,3 mlrd. m² ga yetdi. Jun gazlama ishlab chiqarish esa atigi 1 mlrd. m² ga oshib, 3,4 m² ga yetdi. O'z navbatida ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarish ham shunga mos ravishda ko'paydi. Ammo, shunday davrlar ham bo'ldiki, tabiiy tolalarga nisbatan kimyoviy tolalar chiqarish ustun rivojlandi. Masalan, tabiiy tolalar ishlab chiqarish 1970-1985 yillarda

deyarli bir hil 56,9 (1970 y.), 51,8 (1980 y.) 55,25 (1985 y.) holatda saqlanib qolgan holda kimyoviy tolalalar ishlab chiqarish mos ravishda 37%, 48,2% va 44,75% ni tashkil etdi. Bu holda kimyoviy ip ko'proq tabiiy ipakni siqib qo'ydi. Ayniqsa, Yaponiyada bu ko'proq sezildi. Biroq boshqa davlatlarda bunday bo'lmadi.

O'tgan asr 80-yillari oxiridan boshlab jahonda yana tabiiy tolalar va ulardan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

TURKISTONDA TO'QIMACHILIK SANOATI TARMOQLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI

(XIX asr 2-yarmi - XX asr boshlari)

Insoniyat uchun o'z ahamiyatiga ko'ra oltin, neft, gaz, bug'doy, metall kabi o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan hayotiy zarur narsalardan biri bu paxta. Ha, paxta strategik ahamiyatga molik qimmatbaho xomashyo hisoblanadi. Undan 240 xildan ortiq turli xil mahsulotlar olinadi.

Paxtachilik O'zbekistonda uzoq tarixga ega. Arxeologik topilmalar va ko'hna, nodir manbalarning guvohlilik berishicha, xalqimiz paxtachilik bilan bundan 2-2,5 ming yillar ilgari ham shug'ullangan. Farg'ona viloyati Quva tumani Chillamozor tepaligida o'tkazilgan qazishmalar paytida yonib ketgan bir uy harobalaridagi uy ro'zg'or idishlari ichidan kulga aylangan paxta chigitlari yoki eramizdan oldingi III-IV asrga oid bir qabrdan ham bir siqim paxta tolasidan olingan ip-gazlama qoldiqlari topilgan. Shuningdek, Aleksandr Makedonskiy qo'shinlari ham O'rta Osiyoga bostirib kirganlarida Amudaryo bo'ylarida paxta ekilgan katta-katta maydonlarni ko'rishganini aytishgani haqida ma'lumotlar bor. Bunday ma'lumotlarni tarixchi Gerodot ham bundan 2,5 ming yil burun keltirib o'tgan. U va boshqa Yevropalik tarixchilar, savdogar-sayyohlar paxta shunday o'simlikki, uni mevasi pillaga o'xshaydi, unda tola borki, u ipga o'xshaydi. Uni teradilar va o'zining ajib yengilligi va oqligi bilan ajralib turadigan

matolor to‘qiydilar, deb ta’rif berishgan.

Chingizxon bosqini davrida, aniqroqg‘i 1221 yilda yurtimizga tashrif buyurgan Xitoy tarixchisi Chan-Chun Buxoro va Samarqandda hayotida birinchi marta katta paxta maydonlarini ko‘rganini aytib “Bir necha o‘ram o‘simlik tolasi va qishki kiyim uchun yetti o‘ram gazlama sotib oldim. Gazlama juda chiroyli, toza, yumshoq. Bu yerda kiyimdan tashqari o‘simlik junidan ip va arqonlar tayorlaydi”,-deb yozadi.

Demak, bizning zamonamizda tom ma’noda **“Oq oltin”** nomini olgan, mustaqillikdan keyin **“haqiqiy milliy boyligimizga aylangan”** paxta va u bilan bog‘liq sohalar qadimiy kasblardan hisoblangan.

Jahonda paxtaga bo‘lgan qiziqish va talab inglizlar Hindistonni, Xristofor Kolumb Amerikani ochgandan so‘ng kuchaydi. Bunga AQSH, Angliya, Germaniya, Fransiya, Rossiya kabi mamlakatlarda to‘qimachilik va ip-gazlama sanoatining jadal suratlarda rivojlanishi ham sabab bo‘ldi.

Natijada XIX-asr o‘rtalarida dunyo bo‘yicha paxta tolasi tayorlash 5 mln. Tyuk (1 tyuk=160 kg. yoki 440 futga teng)ga yetdi. Uning 4000 tyuki Hindistonga, 5000 tyuk-Braziliyaga, 86000 tyuk-Misrga, 440 000 tyuk-Afrika mamlakatlariga, 3 mln. 800000 tyuki-AQSH hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu davrda buncha miqdordagi paxta tolasining 55-60 foizi Angliyada, katta qismi AQShda, atigi 7 foizi Rossiyada qayta ishlangan. Turkistonda paxtachilik o‘lkani chor Rossiyasi bosib olgandan co‘ng juda tez rivojlandi. Zero, Turkistonni bosib olinish sabablaridan biri ham uning paxtasiga egalik qilish va o‘lkani Rossiya to‘qimachilik sanoati xomashyo bazasiga aylantirish edi.¹

Saqlanib qolgan ma’lumotlarga ko‘ra, 1860 yilda Turkistonda atigi 1,5 ming tyuk yoki 25 ming tonna paxta tayyorlangan. Bu o‘lkani ichki ehtiyojlari uchun yetar, biroq chor Rossiyasi ehtiyojini qondiraolmas edi. Buning ustiga AQShda ham paxta tayyorlash kamayib ketdi. Masalan, u 1860 yildagi 8 mln. kipdan, 1864-65 yilda 300-400 ming kipga tushib qoldi. 1870 yilga kelib esa atigi 3 mln. kipga ko‘tarildi, xalos.

¹ Y.Berezikov, Legendi i tayni Uzbekistana.T.: 1991 y., 181-bet.

Natijada jahon paxta bozorida 1 pud paxtaninng narxi 5 rubl 15 kopeyekdan 61 rubl 10 kopeyekgacha ko'tarildi. Bu hol o'z o'zidan Rossiyani Turkistonni bosib olishga da'vat etdi. Rus agronomi N.N.Rayevskiyning ma'lumotlariga ko'ra, XIX-asrning 60-yillarida Turkistondan Rossiyaga har yili 3.088.285 pud (42710136 mln. so'mlik) paxta olib ketilgan. U yana Turkistonda Amerika paxta navini yettishtirishga ham da'vat etadi. Shu maqsadda, Rossiya va O'rta Osiyoda paxtachilikni rivojlantirish komitetini tuzishni taklif qiladi. Hukumat N.N.Rayevskiyning taklifini quvvatlab 1871-1872 yillarda uning Toshkentdagi idorasiga 200 pud Amerika paxta navi urug'ini tekinga berdi. Natijada 1872 yili Samarqandda paxta tajriba stansiyasi ochilib S-Aylend nomli paxta urug'i ekilib yaxshi natijaga erishildi.

Shunday qilib, chorizm Turkistonni bosib olgach, o'lkada paxtachilikni rivojlantirish uning asosiy bosh maqsadi bo'lib qoldi. Paxtachilik 10 minglab kishilarni qamrab, 100 minglab odamlarni oziq-ovqat bilan ta'minlaydigan va 10 millionlab so'mlar muomalasini o'z ichiga olgan katta ishga aylandi.

Paxta maydonlari yildan-yilga ko'payib bordi, yangi yerlar o'zlashtirildi, ariq va kanallar qazildi, g'alla, bog'u-rog'lar, poliz maydonlari qisqartirildi. Rossiya dehqonchilik departamenti vakili V.I.Masalskiyning yozishicha, "Turkistonni paxta vasvasasi" qamrab oldi.

Oqibat shu bo'ldiki, o'lkada paxta maydonlari 1895 yilda 142.527 desyatina bo'lgan bo'lsa, 1900 yilda 234.274 desyatinaga yetdi. Buning yarmidan ko'pi o'lkaning asosiy paxtakor viloyati Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelar edi. 1901 yildan 1915 yilgacha o'lkada paxta maydonlari yana 2 barobardan oshiq ko'payib 260.013 desyatinadan 533.671 desyatinaga yetdi. Bu yerlardan olinadigan hosil ham ortib uning Rossiyaga olib ketiladigan miqdori 1915-1916 yillarda 18 mln. pudga yetdi. Holbuki, 1886 yilda u 0,3 mln. pudni tashkil etgan edi. Yoki 1911-1912 yilda Rossiyaga chiqarilgan umumiy qiymati 200 mln. so'mlik mahsulotning 138 mln. so'mini, ya'ni 70 foizini paxta qoplagan.

Bu davrda, yuqorida qayd etganimizdayek, mahalliy g'o'za naviga nisbatan ancha yaxshi tola beradigan Amerika g'o'za navini ekishga

e'tibor ancha kuchaydi. Masalan, 1888 yildan 1913 yilgacha Amerika navi ekiladigan maydonlar Farg'ona viloyatida 34669 desyatinadan 274897 desyatinaga yoki 70 foizga, Samarqand viloyatida esa 298 foizga o'sib 7880 desyatinadan 31856 desyatinaga yetdi. Sirdaryo viloyatida 25841 desyatinadan 62691 desyatinaga ko'paydi yoki 139 foizga o'sdi.

Turkiston, Buxoro va Xivada paxta ekiladigan maydonlarining ko'payishi. (ming desyatina hisobida)

Yillar	Turkistonda	Buxoro va Xivada	Jami
1900	221.0	125,0	346,0
1905	198.1	80,0	278,1
1910	350,8	110,0	460,8
1915	350,1	146,0	496,1

Umuman, 30 yilda 1885 yildan 1915 yilgacha o'lkada paxta maydonlari umumiy ekin maydonlarining 14 foizidan 44 foiziga yetdi. O'z navbatida 1864-1913 yillarda yoki 50 yil ichida Turkistonda paxta tayyorlash 21 barobardan ortiq ko'payib 25 ming tonnadan 532 ming tonnaga yetdi. Ammo, bu ham hali Rossiyaning paxtaga bo'lgan ehtiyojini 70 fizga qondirardi xalos.

Shunday qilib, o'lkada paxtachilikning bu qadar jadal rivojlanishi oqibatida **birinchidan**, paxtachilik Turkiston dehqonchiligining asosiy sohasi bo'lib qoldi, **ikkinchidan**, paxtachilik agrotexnika asosiga ko'chirildi, ya'ni uni yetishtirish uchun yangi yerlar o'zlashtirildi, ariqlar qazildi, o'g'itlardan foydalanish yo'lga qo'yildi, urug'chilik va agrotexnika bilimlari qo'lanila boshlandi, **uchinchidan**, o'lka iqtisodiyotida paxta yakkahokimligiga erishilib, boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish kamayib ketdi va nihoyat **to'rtinchidan**, paxtadan keladigan katta daromaddan uni yetishtiruvchi dehqon emas, balki ekishdan to hosilni yig'ib olib qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonni nazorat qiluvchi rus burjuaziyasi va moliyachi sudxo'r korchalonlari foyda ko'ra boshladi.

Turkistonda paxtachilikni bunday jadal sur'atlarda rivojlanishi tabiiy holda uni dastlabki qayta ishlash va keyinchalik undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ham taqazo etar edi. Bu o'z navbatida qo'yidagi muammolarni keltirib chiqardi:

1. Paxtani xomashyo sifatida Rossiyaning markaziy rayonlariga tashib ketish muammosi. Chunki, Turkiston paxtasi Rossiya markaziy to'qimachilik shaharlariga XIX asr 80-yillari o'ratalariga qadar asosan tuya, ot, eshak karvonlari bilan 2-3 oy yo'l yurib yetkazib berilardi.

2. Paxtani chigitdan ajratib, tolasini tashish, nafaqat transport harajatlarini, balki mahsulot tannarxini ham anchagina kamaytirgan bo'lardi.

3. Paxta xomashyosini Rossiya markaziy rayonlariga tez va kam harajat bilan tashish uchun Turkistonda temir yo'l qurilishini boshlash kerak edi.

4. Paxtachilikning bu qadar tez rivojlanishi o'lka aholisini boshqa qishloq xo'jalik va sanoat mahsulotlari bilan ta'minlashni taqazo etar edi.

5. Tabiiyki, mustamlakachilar o'lkada paxtachilikni rivojlantirishdan millionlab rubl sof foyda ko'rishi lozim edi. Aks holda Turkistondek bir mustamlakaga bu qadar e'tibor berilmas edi. Bu haqda keyinroq to'xtalib o'tamiz.

Chorizm Turkistonni bosib olgach, o'zining yuqoridagi reja va maqsadlarini birin-ketin amalga oshira boshladi. Dastlab XIX asr 70-yillari oxirida o'lkada paxta tolasini chigitdan ajratuvchi korxonalar qurilishi boshlandi. Bu ish bilan asosan rus sanoatchi va moliyachi burjuaziyasi shug'ullandi. Ular, paxtani ekishdan tortib uni chigitdan ajratish, saqlash va sotishgacha bo'lgan jarayonni o'z qo'liga olishdi.

Shu sabab o'lkada ilk paxta tozalash zavodlari qurilishi boshlandi. Ularning dastlabkilari 1880-1881 yillarda Toshkent, Qo'qon va Kattaqo'rg'onda qurildi. 1913 yilga kelib ularning soni 228 taga yetdi. Bu har yili o'rtacha 7-8 tadan paxta tozalash zavodi qurildi demakdir. O'lkadagi paxta tozalash zavodlarining 197 tasi hozirgi O'zbekiston hududiga to'g'ri kelsa, 28 tasi Buxoro amirligi, 11 tasi esa Xiva xonligi hududiga to'g'ri kelardi.

Shuni ham aytish kerakki, paxta tozalash zavodlari asosan shaharlarda va temir yo‘l bekatlari yaqinida kurildi. Masalan, 1913 - 1914 yillarda Samarqandda va uning atrofida 34 ta, Andijonda 26 ta, Namanganda 17 ta, Qo‘qonda 10 ta, Kattaqo‘rg‘onda 3 ta paxta tozalash zavodlari bor edi. Ulardan Andijon zavodlari umumiy hisobda 7.533.053 pud, Namangan zavodlari-4.114.949 pud, Qo‘qon zavodlari-2.351.735 pud yoki har bir zavod o‘rtacha 252.237 pud paxta xomashyosini chigitdan tozalagan.

Natijada, XX-asr boshlarida paxta tozalash sanoatida bir qator o‘zgarishlar va texnik siljishlar yuz berdi. Masalan, 1913 yilda 145 ta paxta tozalash zavodida ichki yonuv dvigateli yoki bug‘ mashinalari qo‘llanildi. Umuman olganda, o‘lkada paxtachilik va paxta tozalash sanoati jadal rivojlanishi natijasida Turkistonda savdo markazlari, paxta firmalari tashkil etildi.

Biroq bu zavodlarning aksariyati to‘laligicha rus sanoatchi va moliyachi sudxo‘r burjuaziyasiga qarashli edi. Masalan, Aka-uka Vedyeyevlar savdo uyi Turkistondagi 30 ta paxta tozalash va 5 ta yog‘-sovun, “Bolshaya Yaraslavskaya manifaktura”-3 ta, “Moskva savdo-sanoat shirkati”-7 ta, “Eron va O‘rta Osiyo shirkati” - 7 ta, “Aka-uka Kraftlar shirkati” - 16 ta paxta zavodiga egalik qilardi va hakoza.

Ammo bu paxta zavodlari o‘ta primitiv bo‘lib, ko‘pgina ishlar asosan qo‘l mehnati bilan bajarilardi. Masalan, 1897 yilda Farg‘ona viloyatidagi 29 ta zavodga 131 ta (o‘rtacha har bir zavodga 44 ta) jin to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 1911 yilda 48 ta zavodga 339 ta jin (o‘rtacha 7 tadan) to‘g‘ri keldi.

1886 yilda Farg‘ona viloyatining Garchakova bekatida mahalliy sarmoyadorlarga qarashli (6 ta jin va 25 ot kuchiga ega bug‘ dvigateli bor) birinchi paxta tozalash zavodi qurildi. Keyinchalik Dautboyev, Xo‘jayev, Buzrukxo‘ja, Mirkomil Mirmo‘minboyev, Qalandarov, Fuzaylov, Asadullayev, Orifxo‘jayev kabi mahalliy boylar ham paxta tozalash zavodlarini qurishdi. Ulardan Mirkomil Mirmo‘minboyev 4 ta paxta tozalash zavodiga egalik qilardi.

Tabiiyki, o‘lkamizda paxtachilik va u bilan bevosita bog‘liq paxta tozalash sanoatining bunday jadal suratlarda rivojlanishi o‘lka

iqtisodiyotiga asos bo'ldi. Qisqa qilib aytganda, Turkiston paxtasi Rossiyaning boylik orttirish manbaiga aylandi.

Turkistonda paxtachilik va paxta tozalash sanoatining bu qadar tez rivojlanishining yana bir sababi Rossiyada to'qimachilik sanoatining xomashyo-paxta tolasiga bo'lgan ehtiyojining muntazam oshib borishida edi. Masalan, Rossiya to'qimachilik sanoati uchun chetdan 1824 yilda 100 ming pud, 1848 yilda 1.330 ming pud, 1859 yilda 2.270.975 pud paxta xomashyosi olib kelingan. Bu ko'rsatkichlar yildan-yilga oshib borgan. Birgina Buxoro amirligidan olib ketilgan mahsulotlarning 75 foizini paxta tashkil etgan. Jumladan, 1840-50 yillarda Buxorodan 7 mln. kumush rubllik paxta olib ketilgan. Bu davrda Rossiya to'qimachilik sanoati tarkibida 57 ta yigiruv, 659 ta to'quv fabrikasi bor edi.

Tabiiyki, bu sohada ham doimiy o'sish bo'ldi. 1913 yilda Rossiya yalpi sanoat mahsulotining 20,5 %i va iste'mol mollarining 32%i to'qimachilik sanoati hissasiga to'g'ri keldi. Umuman, 1913 yilda Rossiyada 1.817 mln. m² ip-gazlama, 138 mln. m² jun gazlama, 35,4 mln. m² ipak gazlama, 121 mln. m² zig'ir tolali gazlama ishlab chiqarildi.

Raqamlardan ko'rinib turibdiki, to'qimachilik Rossiyaning yetakchi sanoat tarmoqlaridan bo'lib katta foyda keltirgan. Masalan, Rossiya sanoatchi-sudxo'rlari 1869-1898 yillarda O'rta Osiyodan temir yo'l orqali har yili olib ketilgan 4-5 mln.pud paxtani qayta ishlab 45 mln. rubldan foyda olgan. Umuman, 1880-1917 yillarda 2,1 mlrd.oltin rublga teng 225,8 mln. pud tola olib ketilib, faqat 1887-1917 yillarda Turkiston paxtasidan 346 mln. rubl sof foyda ko'rilgan. Bu raqamlarni birgina Tver shahridagi to'qimachilik korxonalari misolida ko'radigan bo'lsak, ahvol quyidagicha: 1913-1914 yilda Tver to'qimachilari Turkiston paxtasidan 1 mln. 893 ming rubl sof foyda olgan bo'lsa, 1915 - 1916 yilda bu ko'rsatkich 10 mln. rublni tashkil etdi yoki 5 baravar ko'paydi. Qisqasi Rossiya atigi 35 yil ichida Turkiston paxtasidan xazinasiga tushadigan mablag' yiliga o'rtacha 2,3 mln.rubldan, 22,2 mln. rublga yetishiga erishdi.

Shunday qilib, 1913-1914 yillarda Rossiya o'zining paxta tolasiga

bo'lgan ehtiyojini 70 % Turkiston, Buxoro, Xiva hisobiga, ya'ni mustamlakalari hisobiga qondira boshladi. Ammo, bu ham masalaning yechimi emas edi.

Paxta-qadimiy texnik o'simlik bo'lib, o'lkamizda bundan 2,5 - 3 ming yil oldin ham ekilgan.¹ Demak, xalqimiz paxtachilik va undan ip-gazlama tayyorlash bilan qadimdan shug'illanib kelgan.

Keyinchalik, bizning serquyosh zaminimizdan "Paxta O'rta Dengiz sohillariga, Yaqin Sharq va Kichik Osiyoga Markaziy Osiyoning qoq markazi-aynan hozirgi O'zbekiston xududidan tarqalgan".²

Bu paxtani yetishtirish va uni qayta ishlash sanati xalqimiz turmushida azaliy kasb bo'lganligidan dalolatdir. Ha, bugungi kunda ham "G'o'za juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan noyob ekinlardan biridir. Shu sababli paxta faqat tolani qayta ishlash evazigagina emas, boshqa jihatlardan ham O'zbekiston iqtisodiyoti uchun juda katta ahamiyatga ega".³

Haqiqatdan ham paxta mamlakatimiz xalq xo'jaligi uchun muhim ahamiyatga ega. Undan chit, satin, batist, vilvet, chigit, sovun, yog', stearin, turli xil laklar, alif, kino-foto plenka, portlovchi moddalar, qog'oz, sheluxa, kunjara kabi 200 dan ortiq mahsulotlar olinadi. Ammo paxta juda katta mehnat talab qiladigan "nozik, injiq ekin".⁴

Bugungi kunga kelib yer yuzida 100 ta mamlakat paxta yetishtirmokda. XX asr 80-yillariga kelib yer yuzida 32-34 million tonna paxta hosili olindi. Shu davrda paxta tolasidan ip-gazlama ishlab chiqarish 10 barobar ortib 40 milliard metrqa yetdi.⁵ 2001-2002 yilda esa 21,15 million tonna paxta tayyorlandi. Jahondagi paxtaga bo'lgan ehtiyoj esa 18-20 million tonnani tashkil etadi. Eng yirik paxta yetishtiruvchi mamlakatlar - Xitoy (25%), AQSH (21%), Pokiston (8%), O'zbekiston (5%) hisoblanadi.⁶

Boshqacha aytganda, 2001 yilda AQSHda 4.61 million tonna, Xitoyda-6 million tonna, O'zbekistonda esa 3,3 million tonna paxta

¹ YE Berezikov. Legendi i tayni Uzbekastana. -T.: G'.G'ulom, 1991 y., 181-bet.

² I.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild.- T.; "O'zbekiston", 1997 y., 151-152-bet.

³ O'sha joyda, 153-bet

⁴ O'sha joyda, 151-bet.

⁵ YE.Berezikov. Ko'rsatilgan kitob, 179-bet.

⁶ Internet ma'lumotlari. 18.03.2004 y.

tayyorlandi.¹ Bu shundan dalolat beradiki, bugungi kunga kelib dunyoda “Paxta, butun paxta sanoati qudratli va keng tarmoqli, yuz minglab kishilar band bo‘lgan infrostrukturani o‘z ichiga oladi”.²

Bundan shu narsa malum bo‘ladiki, paxtachilik va paxta tozalash sanoati, shuningdek ular bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan sanoat tarmoqlari paxta yetishtiruvchi barcha mamlakatlarda o‘zining malum salmog‘iga ega.

Asosiy paxtakor mamlakatlar bo‘lgan Xitoy, AQSH, Pokiston, Hindiston, O‘zbekistonda bu salmoq yanada sezilarli. Masalan, “Paxta O‘zbekiston uchun respublikaning mustaqilligini kafolatlaydigan siyosiy va iqtisodiy kuch-qudrat manbai”³ hisoblanadi.

Demak, dunyo miqyosida olib qaraydigan bo‘lsak, paxtachilik va paxta tozalash sanoati bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan sanoat tarmoqlarida millionlab kishilar mehnat qilishadi. Jumladan, birgina O‘zbekiston paxta sanoatining o‘zida 60 mingga yaqin kishi mehnat qilmoqda. Agar bu hisobga mazkur tarmoq bilan bevosita bog‘liq to‘qimachilik, tikuvchilik, yigiruvchilik, yog‘-sovun kabi iqqisodiyotning qator sohalarini qo‘shsak bu raqam bir necha barobar ortishi tabiiy.

Shunga qaramay, hozirga qadar respublikamizda paxta tozalash sanoati tarixi chuqur o‘rganilmagan. SHo‘rolar davrida tarixchi olimlardan Q.X.Xasanov, Z.Ergashev, O.Begmatov, G.Xoliyev, I.S.Xayitov, U.A.Xayitov, T.Z.Akbarov va boshqalar paxta tozalash sanoati tarixini o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib borgan. Biroq ularning ilmiy tadqiqotlarida, monografiya, risola va maqolalarida O‘zbekistonda paxta tozalash sanoatining paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari ayrim davrigina o‘rganilgan.⁴

O‘zbekiston tarixi, O‘zbekiston Kompartiyasi tarixi ocherklari, O‘zbekistonda industrlashtirish ocherklari kabi bir qator yirik monografiyalarda ham paxta tozalash sanoati tarixi maxsus tahlil etilmasdan, yo‘l-yo‘lakay undan ayrim misollar keltirilgan xolos.

¹ O‘sha joyda

² I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild.-T.; “O‘zbekiston”, 1997 y., 153-bet.

³ I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Z-jild.-T.; “O‘zbekiston”, 1996 y., 220-bet.

⁴ Masalan, Z.Ergashev O‘zbekistonda paxta tozalash sanoatining 1929-1932 yillardagi holatini tadqiq etgan bo‘lsa, T.Z.Akbarov esa tarmoqning 1918-1924 yillardagi, I.S.Hayitov, 1933-1941 yillarni, U.A.Hayitov, 1946-1958 yillar davrini ilmiy jihatdan o‘rganishgan.

Shuni alohida takidlash kerakki, umuman sho‘rolar davrida chop etilgan barcha adabiyotlar va ilmiy-tadqiqotlarda mafkuraviy tazyiq kuchli edi. Natijada har bir masalaga sinfiy, partiyaviy va albatta mafkuraviy yondoshuv ustivor edi. Tabiiyki, bundan ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar, manografiya va ilmiy-tadqiqotlar ham xoli emas edi.

Bunday vaziyatda boshqacha bo‘lishi ham mumkin emas edi. Shuning uchun ham fanning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarda asosiy etibor partiyaning rolini ko‘rsatishga qaratilardi.

Istiqlol yillarida bu soha tarixini o‘rganish bo‘yicha asosan, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti “O‘zbekiston tarixi” kafedrası olimlari, shuningdek, “O‘zpaxtasanoat” uyushmasi mutaxassislari ilmiy tadqiqot va qiyosiy-tahliliy izlanishlar olib borishmoqda.

So‘nggi yillarda elon qilingan monografiya, adabiyot va maqolalarda paxta tozalash sanoati tarixini o‘rganish va yoritishga milliy istiqbol g‘oyasi talablari nuqtai nazaridan yondashish sezilmoqda.¹ Jumladan, yuqorida keltirilgan maqolalarda, shuningdek, “To‘qimachi kadrlar tayyorlash maskani” nomli monografiyada,² “O‘zbekiston paxta tozalash sanoati mustaqilikning o‘n yilida” nomli kitobda³ mustaqilik yillarida mazkur tarmoqni rivojlantirishga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov va respublika hukumati tomonidan berilayotgan etibor natijasida **paxta haqiqiy milliy boyligimizga aylanganligi**, paxtachilik va paxta tozalash sanoatini rivojlantirish iqtisodiyotimiz istiqboli uchun zarurligi takidlanmoqda.

¹ Qarang. I.S.Hayitov. Paxtachilik-vatanimiz istiqboli. jurnal-Muloqat, 2000 y., 3-son, 51-52- bet.; I.S.Hayitov. Endi milliy boyligimizga aylandi. - jurnal Guliston, 2001 y., 2-son, 44-45-bet; I.S.Hayitov, Vajny otrasl promeshlennosti Uzbekistana. Sb. nauch. tr. KGTU (Rossiya) 2002y.

² H.Alimova, I.Hayitov va boshqalar. To‘qimachi kadrlar tayyorlash maskani. - T.: Sharq, 2002 y.

³ O‘zbekiston paxta tozalash sanoati mustaqilikning o‘n yilida.-T.: 2001 y.

O‘ZBEKISTONDA PAXTA TOZALASH SANOATINING SHO‘ROLAR MUSTAMLAKACHILIGI YILLARIDAGI AHVOLI

Ma'lumki, sho'rolar hukumronligi davri (1918-1990 yillar)da ham O'zbekiston paxta tozalash sanoati sobiq ittifoq manfaatlariga xizmat qilishda davom etdi. Biroq, bu davrning dastlabki yillarida paxta tozalash sanoati chuqur inqirozga uchragan edi.

Dastlab birinchi jahon urushi (1914-1918 yillar) so'ng sovetlar mamlakatida bo'lib o'tgan fuqoralar urushi (1918-1920 yillar) natijasida Turkiston paxtachiligi va paxta tozalash sanoati orqaga ketdi. Masalan, 1920 yilda O'zbekistonda paxta ekiladigan maydonlar 1913 yildagi 423 ming gektardan 94 ming gektarga tushib qoldi, yoki 4,5 barobar kamaydi. Shu davrda yalpi paxta hosili esa 17 barobar kamayib 532 ming tonnadan 31 ming tonnagacha qisqardi.

Bu hol paxta tozalash sanoatiga ham salbiy tasir ko'rsatdi. Birgina 1920 yil 17 iyuldan 14 avgustgacha, yani salkam bir oy ichida Andijon tumanida-17 ta, Farg'ona tumanida-9 ta, Asaka tumanida-8 ta, jami 34 ta paxta tozalash zavodlari vayron qilindi.¹

1920 yilda o'lkada mavjud 228 ta paxta tozalash zavodidan atigi 16 tasi ishlamoqda edi xolos. Bu hol sho'rolar hukumatini tashvishga solmay qolmasdi, albatta. Chunki, markaziy shaharlarda o'nlab to'qimachilik korxonalari to'xtab qolgan, minglab kishilar ishsiz edi. Jumladan, 1918 yilda Turkistondan Rossiya to'qimachilik korxonalariga 1310 vagon paxta tolasi jo'natilgan bo'lsa, 1919 yilda bu ko'rasatkich yana ham kamayib, atigi 940 vagonni tashkil etdi xolos.²

Amerika, Misr yoki boshqa mamlakatlardan paxta sotib olish uchun esa mablag' yo'q edi. **“Yagona manba esa Turkiston”** edi. Buni yaxshi anglagan sho'rolar hukumati o'z manfatlari yo'lida Turkiston (O'zbekistonda)da zudlik bilan paxtachilik va paxta tozalash sanoatini tiklash xamda rivojlantirishga kirishdi.

Dastlab, 1918 yilda paxta tozalash zavodlari milliylashtirildi, ya'ni xususiy mulkdorlardan davlat ixtiyoriga tortib olindi. So'ng 1919 yil

¹ I.S.Hayitov, T.Akbarov. O'zbekiston paxta tozalash sanoati tarixidan.-T.; "Bilim jamiyati", 1989 y. ,7- bet.

² O'sha joyda

fevralda 1 milliard, shu yil oxirida yana 1 milliard 267 million rubl mablag‘ O‘zbekiston (Turkiston)da paxta tozalash sanoatini tiklash va rivojlantirishga ajratildi.¹ Albatta, tarmoqni rivojlantirishga sarflangan bu mablag‘lar keyinchalik bir necha yuz barobar bo‘lib qaytishini sho‘ro hukumati yaxshi bilardi. Ha, sovet Rossiyasi to‘qimachilik va ip-gazlama sanoati uchun o‘ta dolzarb bo‘lgan bu masala shaxsan hukumat raisi diqqat markazida turdi. Natijada 1918-1922 yillarda hukumat raisi 71 marotaba hukumat azolari etiborini Turkistonda paxtachilik va paxta tozalash sanoati muommolariga qaratdi.

Shuningdek, Turkistonda faoliyat ko‘rsatgan Butunrossiya Markaziy ijroiya qo‘mitasi va RKP(b) Markaziy Komitetining Turkiston ishlari bo‘yicha komissiyasi, keyinchalik Turkbyuro va O‘rta Osiyo byurosi ham o‘lkada paxta tozalash sanoatiga katta «e’tibor» berdi. Masalan, Turkkomissiya 1920 yil 30 yanvardan 1922 yil 11 fevralgacha 9 marta, Turkbyuro 1921 yil fevraldan 1922 yil fevralgacha 7 marta, O‘rta Osiyo byurosi 1922 yil oktabrdan 1924 yil oktabrgacha 10 marta paxta tozalash sanoati masalalarini maxsus ko‘rib chiqdi.

Shuning uchun ham 1920 yil fevralda RSFSR XKK “Turkistonda paxta tozalash sanoatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Ko‘p o‘tmai, 1921 yil martda Turkiston paxta qo‘mitasiga 677 million, 1922 yil may oyida 1,5 milliard, dekabrda yana 9,7 million rubl ajratildi.² Sho‘rolar hukumati bu bilan cheklanmadi, chunki unga «paxta suv va havodek» zarur edi.

Ko‘rilgan chora-tadbirlar natija bera boshladi. Arxiv xujjatlarining guvohlik berishicha, 1922-1923 yil paxta mavsumidan boshlab paxta tozalash zavodlari foyda ko‘rib ishlay boshladilar. 1923 yilda tiklangan paxta tozalash zavodlari soni 23 taga, 1924 yilda esa 35 taga yetdi. Bitta zavod hissasiga to‘g‘ri keladigan tola ishlab chiqarish 1913 yildagi o‘rtacha 186 ming pudgan, 1923 yilda 268 ming pudga, 1924 yilda esa ikki barobar ko‘payib 374 ming pudga yetdi.

Boshqacha qilib aytganda, 1924-1925 yilda paxta tozalash sanoatida yalpi mahsulot ishlab chiqarish 57,8 million rublni tashkil etdi. Bu

¹ I.Hayitov. Endi milliy boyligimizga aylandi j-l, «Guliston», 2-son, 2001 y., 44-bet.

² O‘sha joyda

1913 yilga nisbatan (96,2 million rubl) 60 % ga teng edi.¹

1924 yilda Toshkent va Andijonda, 1925 yilda Mang‘it, Hazorasp, Kitob, Qo‘rg‘ontepa, Qo‘qonqishloqda yangi paxta tozalash zavodlari qurib ishga tushirildi. Shunday qilib, 1924 yilda Kommunistik partiya va sovet hukumati turkistonlik mahaliy aholidan so‘ramasdan, yuqoridan turib o‘z bilganicha, ammo uzoqni ko‘zlab, aniq maqsad yo‘lida o‘tkazgan miliy-davlat chegaralanishi natijasida sobiq SSSR tarkibida tuzilgan sobiq O‘zbekiston SSR ixtiyoriga o‘tgan o‘lkadagi 110 ta paxta tozalash zavodidan 1925 yilda 52 tasi ishga tayyor edi.

Bu hol asta-sekinlik bilan bo‘lsada, sobiq ittifoq to‘qimachilik sanoatining ham jonlanishga olib keldi. Ammo bu ham “markaz” ning ehtiyojini qondira olmas edi. Natijada respublikada paxtachilik va paxta tozalash sanoatini tiklash, qayta ta‘mirlash va yangilarini qurish davom ettirildi. 1926 yilda Qorasuvda, 1927 yilda Uchqo‘rg‘on, Shahrixon, Haqqulobodda yangi paxta tozalash zavodlari qurildi. Natijada 1927-1928 yilga kelib, O‘zbekiston sanoati yalpi mahsulot hajmi bo‘yicha 1913 yil darajasiga yetdi. Biroq, uning yetakchi tarmog‘i paxta tozalash sanoati hali 81 foiz darajasida qolayotgan edi.²

Paxta tozalash sanoati faqat 1928-1929 yil mavsumiga kelib tiklandi. Bunda Toshkentda qurib ishga tushirilgan va asosan paxta tozalash zavodlari uchun asbob-uskuna va ehtiyot qismlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan “Bosh paxtachilik qo‘mitasi” ning mexanik ustaxonalari malum rol o‘ynadi. Ustaxonada tola va momiqni ajratuvchi jin va linterlar ishlab chiqarilishi tarmoqqa chetdan ehtiyot qismlar olib kelishni to‘xtatdi.

Natijada paxta tozalash zavodlarida jin va arralar soni ko‘paydi. Masalan, 1913 yilda bitta zavodda o‘rtacha 5 ta jin 333 ta arra o‘rnatilgan bo‘lsa, 1927 yilda ularning soni mos ravishda 7,5 va 573 taga yetdi. Bu o‘z navbatida, paxta tozalash zavodlarining o‘rtacha kuvvatini 58 ot kuchidan (1913) 150 ot kuchiga oshirdi. Yoki 1913 yilda bitta jinga 10,3 ot kuchi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 1927 yilda 20,8 ot kuchi to‘g‘ri keldi. Umuman, 1913 yildan 1928 yilgacha paxta tozalash zavodlarining ishlab chiqarish quvvati uch barobar, bitta jin va arraga

¹ Industrialnoye raziitiye Uzbekistana T.: 1966 y., 59-bet

² Uzbekistan za 15 let. stat.sb. 116-bet.

to'g'ri keladigan xomashyo yuklamasi esa ikki barobarga oshdi.

Paxta tozalash zavodlarida xomashyo yuklamasining ortib borishi (pud hisobida)¹

Yillar	1 ta zavodga	1 ta jinga	1 ta arraga
1913	171000	35500	500
1925	353000	50000	689
1928	520607	69616	906

Bir vaqtning o'zida paxta tozalash zavodlarida yangi «Pretta» tizimidagi jinlar o'rnatildi. 1924-1925 yilda bunday jinlar 71 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1925-1926 yilda 77%, 1926-1927 yilda 86% ni tashkil etdi. Yoki O'zboshpaxtasanoat tizimidagi zavodlarda mavjud 346 ta jindan 315 tasi "Pretta" rusimidagi jinlar edi. Natijada paxta tozalash sanoatida yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi tola hisobida 1924-1925 yildagi 64,5 ming tonnadan. 1927-1928 yilda 147,9 ming tonnaga yetdi.

1928-1929 yildan xalq xo'jaligini rivojlantirish besh yillik rejalar asosiga ko'chirildi. Bu davrda O'zbekiston paxta tozalash sanoati oldiga yanada katta vazifalar quyildi. U ham bo'lsa, qisqa davrda sobiq SSSR to'qimachilik sanoatining xomashyo-paxta tolasiga bo'lgan ehtiyojini 100 foizga qondirish vazifasi edi. Shu maqsadda paxta tozalash sanoatini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirildi.

Shu yerda ta'kidlash joizki, sovet hukumati mamlakatni industrilashtirish yillarida O'zbekistonda birorta ham yirik sanoat korxonasini, masalan metallurgiya yoki mashinasozlik korxonalarini qurmadi.

Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan uchta 5 yillik (1928/1929-1940/1941 yillar) davrida respublikada ishga tushirilgan 514 ta korxonaning deyarli barchasi paxta va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi-paxta tozalash, to'qimachilik, pillakashlik, shoyi to'qish, yog'-sovun, g'isht, urugchilik, ko'n-charm kabi korxonalardan iborat edi xolos.

Shunga qaramay, Chirchiq Elektrkimyo, Toshkent Qishloq xo'jaligi

¹ O'z.R.MDA. 9-f, 1-ro'yxat, 15 to'plam, 15-bet.

mashinasozligi, kichik quvvatli suv va issiqlik elektr stansiyalari, sement zavodi kabilar burttirilib ko'rsatildi! Respublika iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlardan biri-paxta tozalash sanoati haqidagi malumotlar atayin kamaytirib ko'rsatildi yoki umuman hisobga olinmadi.

Holbuki, O'zbekiston paxta tozalash sanoati sovet hokimiyatining 74 yillik hukmronligi davrida respublika iqtisodiyotida o'zining salmoqli o'rnini yo'qotmadi. Aksincha, boshqa sanoat tarmoqlari, xususan sobiq markazning to'qimachilik sanoati rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Masalan, 1932 yilda O'zbekiston paxta tozalash sanoatining asosiy ishlab chiqarish fondlari 1927-1928 yildagi 21 million 937 ming so'mdan 36 million 427 ming so'mga yetdi.

Shu yili (1932 y) O'zbekiston paxta tozalash sanoati 250 ming tonnadan ortik paxta tolasi ishlab chiqardi. Buncha miqdordagi paxta tolasi bilan sobiq SSSR o'z ehtiyojini 94,8 foizga qondirdi.¹ Bu O'zbekistonning "sobiq SSSR paxta mustaqilligi"ga, umuman industrilashtirishga qo'shgan juda muhim hissasi edi.

Bundan ruhlangan sho'rolar hukumati ikkinchi va uchinchi besh yilliklarda (1933-1941 y.y.) O'zbekiston paxta tozalash sanoatini rivojlantirishning yangi rejalarini ishlab chikdi. Natijada tarmoqqa 1933-1937 yillarda salkam 13.6 million rubl, 1938-1941 yillarda 52.8 million rubl mablag' sarflashni rejalashtirdi.²

Shu hisobdan mavjud paxta tozalash zavodlarini rekonstruksiya qilish, yangilarini qurish boshlandi. Ikkinchi besh yillikda 6 ta Denov, Yangi Urganch, Karmana paxta tozalash zavodlari va boshqalar. Uchinchi besh yillikda rejadagi 17 ta o'rniga 8 ta paxta tozalash zavodi qurildi. Tarmoqda yalpi mahsulot ishlab chiqarish 1937 yilda 1932 yilga nisbatan 199.8 foizga, shu jumladan qimmatbaho xomashyo-paxta tolasi ishlab chiqarish 193.4 foizga oshdi.³

Paxta tazalash zavodlarini elektrlashtirish boshlandi. 1937 yilda elektrlashtirilgan zavodlar soni 14 taga yetdi. 1932 yilda bunday zavodlar soni atigi 2 ta edi. Natijada tarmokda elektr quvvati 55 ot

¹ I.Hayitov. Endi milliy boyligimizga aylandi-j-l. «Guluston» , 2001 y., 2-son, 44-bet.

² I.Hayitov. Disssrtasiya Avtoreferatidan.

³ Statistik to'plam -1939 y.,145-bet.

kuchidan 270 ot kuchiga teng bo'ldi. Paxta uzatish bo'yicha ichki zavod transporti mexanizatsiyalashtirildi. Gidravlik presslar o'rnatilishi natijasida bitta kipning o'rtacha og'irligi 8-8,5 puddan 12-14 pud (o'rtacha 210 kg) ga yetkazildi. Zavodlarning bir mavsumdagi ish kuni 111 kundan (1913 y), 246 kunga (1937 y) yetdi.

Paxta tozalash zavodlarini yiriklashtirish va rekonstruksiya qilish natijasida asosiy mahsulot-paxta tolasi ishlab chiqarish o'rtacha bitta zavodga 9,59 ming tonnani tashkil etib, jami 47 ta zavodga 451 ming tonna to'g'ri keldi. Bu 1932 yilga nisbatan salkam ikki barobar ko'p edi.

Paxta tozalash sanoatining boshqa texnika-iqtisodiy ko'rsatkichlari yaxshilandi. Masalan, jin dastgohining mehnat unumdorligi bir arra soatga 2,14 kg. dan 2,43 kg. ga yetdi. Shu davr ichida tolaning chiqishi 31,77 foizdan 33,92 foizga ko'paydi.¹

Uchinchi besh yillikda ham yengil sanoat, xususan uning paxta tozalash tarmog'i respublika iqtisodiyotida yetakchi tarmoq bo'lib qolaverdi. Masalan, faqat ikki yilda (1938-1939) paxta tozalash sanoatiga 52,8 million rubl mablag' sarflandi. G'ijduvon, Xo'jayli, Qung'irod, Krasnogvardeysk (Bulung'ur), Chinoz va boshqa tumanlarda yangi paxta tozalash zavodlari qurildi, 10 dan ortiq zavod rekonstruksiya qilindi. Shunday qilib, urush arafasida respublikada 58 ta zamonaviy yirik paxta tozalash zavodi ishlay boshladi. 1940 yilda tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish hajmi 657,4 million rublga teng bo'ldi. Bu 1913 yilga nisbatan uch barobar ko'p edi. Natijada O'zbekiston sobiq ittifoqda ishlab chiqarilayotgan jami paxta tolasining 63,5% ni bera boshladi.

Umuman olganda, urushdan oldingi 15-20 yil ichida paxta tozalash sanoati respublika iqtisodiyotida o'z yetakchilik o'rnini saqlab qoldi. Bunda tarmoq uchun kadrlar tayyorlash masalasi ham malum rol o'ynadi. Zero, paxta tozalash sanoatini tiklash, rekonstruksiya qilish va rivojlantirish mutaxassislariga ehtiyojni kuchaytirdi.

Shu maqsada, 1927 yilda sobiq O'rta Osiyo davlat universitetida "Paxtani dastlabki ishlash" kafedrasi, keyinchalik O'rta Osiyo politexnika va irrigatsiya hamda O'rta Osiyo mexanika-texnologiya

¹ Uzbekistan za XV let. stat.sb. 1939 y., 41-bet

institutlarida “Paxtani dastlabki ishlash” mutaxassislarini tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Nixoyat, 1932 yil 26 iyunda sobiq ittifoq yengil sanoat xalq komissarligining 90-sonli buyrug‘i bilan Toshkentda to‘qimachilik instituti tashkil etildi. Institutda maxsus “Paxtani dastlabki ishlash fakulteti” va shu nomda kafedra tashkil etilib, paxta tozalash sanoati uchun bevosita muxandis-texnologlar tayyorlash yo‘lga quyildi. Bundan tashqari, bir necha bilim yurtlari, uch oylik, olti oylik kurslar, malaka oshirish muassasalari ham tashkil etildi. Tarmoq ishchi, xizmatchi va xodimlaridan texminimum (texnikani bilish minimumi) bo‘yicha maxsus imtihonlar qabul qilish tartibi joriy qilindi.

O‘z navbatida, Moskva, Leningrad (Sankt-Peterburg), Ivanova oliy o‘quv yurtlarida ham O‘zbekiston paxta tozalash sanoati uchun kadrlar tayyorlandi. Shuningdek, mamlakat to‘qimachilik markazlaridan malakali ishchilar, muhandis-texniklar ham paxta tozalash zavodlarida ishlash uchun O‘zbekistonga yuborildilar.

Urushdan oldingi yillarda paxta tozalash sanoatining “rivojlantirilishi” shunga olib keldiki, sho‘ro hukumati o‘zini oqlash uchun nomiga bo‘lsada, O‘zbekistonda 5-6 foiz paxta tolasini qayta ishlab, undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishga majbur bo‘ldi.

Natijada 1930 yilda Farg‘onada, 1936-1939 yillarda Toshkentda to‘qimachilik koxonalarini qurib ishga tushirdi. Paxta sanoatiga butlovchi qismlar yetkazib beruvchi - Toshkent mashinasozlik zavodi (1947), “Kommunar” (1929), Kattaqo‘rg‘on “Paxtamash” (1939) korxonalari qurildi.

Urush yillarida paxta tozalash sanoati bir oz orqaga ketdi. Masalan, 1941 yilda respublikada paxta tolasini ishlab chiqarish 470.742 tonnani tashkil etdi, bu 1939 yilga nisbatan qariyb 100 ming tonna kam edi. Bu ko‘rsatkich 1942 yilda, 270.571 ming tonnaga 1945 yilda esa 205.165 tonnaga tushib qoldi.¹

Bunga zavodlarda elektr energiyasining yetishmasligi, rejalashtirilmagan tamirlashlar, xomashyo tanqisligi, yetarli darajada

¹ O‘zR. MDA- 37-f, 32-ro‘yxat, 7001 delo, 25-bet.

kadrlar va ishchi kuchining yo‘qligi va boshqalar sabab bo‘ldi. Buning ustiga ayrim paxta tozalash zavodlari front uchun mahsulot ishlab chiqarishga o‘tkazildi. Natijada ishlab turgan paxta zavodlari soni 1940 yildagi 58 tadan 1945 yilda 50 taga tushib qoldi.

Tabiiyki, O‘zbekiston paxta tozalash sanoatidagi bunday ahvol sho‘rolar hukumatiga xush kelmas edi. Shuning uchun zudlik bilan respublika iqtisodiyotining bu tarmog‘ini tiklash va rivojlantirish choralari ko‘rildi. Endilikda uni nafaqat ittifoq to‘qimachilik sanoati uchun, balki o‘z tasiridagi sotsialistik davlatlar to‘qimachilik korxonalari uchun ham strategik xomashyo-paxta tolasi yetkazib beruvchi tarmoqqa aylantirish vazifasi quyildi.

Shu maqsadda 1946-1950 yillarda paxta tozalash sanoatida katta hajmdagi tiklash-tamirlash ishlari amalga oshirildi. Natija shu bo‘ldiki, butun sanoatda bo‘lganidek, O‘zbekiston paxta tozalash sanoatida ham besh yillik reja uch yilda (1946-1948) bajarildi. 1948 yilda respublika paxta tozalash sanoatida tola ishlab chiqarish urushdan oldingi darajaga yetdi. Shu yili O‘zbekistonda 517,7 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqarildi. Bu 1940 yilga nisbatan 97,1 foiz (532,3 ming tonna) ni tashkil etdi. 1950 yilda esa paxta tolasi ishlab chiqarish 641 ming tonnaga yetdi. Ishlab turgan paxta zavodlari soni 63 tani tashkil etdi.¹

Paxta tozalash sanoatining texnika iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

	O‘lchov birligi	1958	1959	1960	1961	1962	1963
Paxta tolasi ishlab chiqarish	Ming tonna	989	1019	1092	1055	1048	1012
Jinning unumdorligi	kg arra/soat	6.8	7.1	7.3	7.6	7.9	7.6
Tola chiqishi	foiz	34.4	34.1	34.7	33.9	34.3	34.1

1950-1980 yillarda respublikada paxtachilik jadal rivojlandi. Shu davrda paxta tayyorlash 2 mln. tonnadan 6 mln. tonnaga yetdi. Bu hol paxta tozalash sanoatini ham rivojlantirishni talab etdi. Natijada, 1951-1960 yillarda respublikada 12 ta, 1965 yilgacha yana 7 da paxta tozalash zavodlarini qurib ishga tushirish rejalashtirildi. Amalda 1950 - 1962 yillarda 7 ta paxta tozalash zavodi, shu jumladan, Juma,

¹ O‘zbekiston Respublikasi. EksiklopediY.-T.: 1997 y., 258-259 betlar.

Yakkabog‘, Sho‘rchi, Bo‘ka, Termiz, To‘rtko‘l zavodlari qurildi. Qolgan zavodlarda yangi jin va linter mashinalari o‘rnatildi. Masalan, 1958-1961 yillarda o‘rnatilgan 178 ta yangi linterlar, chigitni linterlashni 2-3 marta oshirib, linter xo‘jaligi quvvatini 19,5 foizga ko‘tardi. Tarmoqdagi ko‘plab zavodlar qayta uskunalandi. Faqat 50 yillar oxiri, 60 yillar boshida qo‘shimcha 84 ta quritish-tozalash sexi qurildi. 400 tonnalik presslar o‘rnatildi.¹

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 1958-1963 yillarda paxta tozalash sanoati bir tekisda rivojlandi va respublika iqtisodiyotida muhim rol o‘ynashda davom etdi.

1966-1970 yillarda respublikada paxta tayyorlashning yillik o‘rtacha miqdori 4 mln. tonnadan oshib ketishi sababli 21 ta paxta tozalash zavodi qurib ishga tushirildi. Boshqa zavodlarda jin va linterlar to‘la yangilandi, qudratli gidroresslar o‘rnatildi. Natijada paxta tozalash sanoatining asosiy fondlari 43 foizga o‘sd.²

Mustaqillikgacha bo‘lgan so‘ngi 20 yilda (1970-1990) paxta tozalash sanoatini modernizatsiya qilish davom ettirildi. Shu davrda 30 dan ortiq yangi zavodlar, shu jumladan 80-yillarda 12 ta paxta tozalash zavodi qurilib, ularning soni mustaqillik arafasida (1990 y) 119 tani tashkil etdi.³

Shuni ham aytish kerakki, bu davrda paxta tozalash zavodlari yiriklashtirildi. Qorako‘l, G‘ijduvon, Kattaqo‘rg‘on, Qo‘rg‘ontepa, Hazorasp, Qo‘qon-1, Quva, Juma, Denov va boshqa paxta tozalash zavodlari quvvati yiliga 100 ming va undan ortiq paxta hosilini qayta ishlashgacha oshirildi.

Sanoatning paxta tozalash tarmog‘iga ehtiyot qismlar yetkazib beruvchi Samarqand “Paxtamash”, Chust “Olmospaxtamash” korxonalari qurildi, Kattaqo‘rg‘on “Paxtamash”, “Toshpaxtamash-2” korxonalari esa qayta ixtisoslashtirildi.

Tarmoqda asosiy xomashyo-paxta tolasi, shuningdek momiq, chigit chiqishini yaxshilash, sifatini oshirish, yangi paxta navlarini yaratish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borildi. Shu maqsadda, O‘zbekiston paxta

¹ Sovetskiy Uzbekistan za 40 let. 71, 72-bet.

² I.Iskandarov, Tekstilnaya promyshlennost‘ Uzbekistana.-T, 1974,84- bet

³ O‘zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya.258 bet

tozalash sanoati rivojlanishining sho'rolar davri bosqichida (73 yilda) Markaziy paxta tozalash sanoati ilmiy-tadqiqot instituti (1926 y.), Toshkent davlat maxsus paxta tozalash uskunalari konstruktorlik byurosi (1953 y.), Paxta sellyulozasi kimyosi va texnologiyasi ilmiy-tekshirish instituti (1959 y.) tashkil etilib, ilmiy izlanishlar olib borildi.¹

Natijada, olimlar va tarmoq ishchi xodimlari hamkorligida paxta tozalash sanoati uchun texnologik qurilmalar paxtani tayyorlash, quritish, tozalash, saqlashda qo'llaniladigan mashina va mexanizmlar, arrali va jo'vali jin mashinalari, linterlar, tola tozalagichlar, chigitni saralash va tozalash mashinalari, transportyorlar, jami 50 dan ortiq nomdagi mahsulotlar ishlab chiqarilib joriy etildi.

Jumladan, 1975-1978 yillarda paxtani qayta ishlash bo'yicha potok liniyalar yaratilib ishlab chiqarishga joriy etilishi yaxshi samara berdi. Xususan, "Mehnat" va RX-1 tola tozalagich mashinalari Zagreb (1977y.), Plovdiv (1979) xalqaro yarmarkalarida oltin medalga sazovor bo'ldi.²

Shunday qilib, O'zbekiston paxta tozalash sanoati sho'rolarning 74 yillik hukmronligi davrida katta tarixiy bosqichni bosib o'tdi. Bu davrda zamonaviy paxta tozalash zavodlari soni 119 taga yetdi. Tola ishlab chiqarish 1980 yilda eng yuqori darajaga yetib 1 mln. 745 ming tonnani tashkil etdi.

Xulosa qilib, shuni aytish joizki, birinchidan sho'rolar davrida O'zbekiston paxta tozalash sanoati asosan sobiq markaz uchun xizmat qildi va uning manfaati yo'lida rivojlantirildi.

Ikkinchidan, respublikada jami tayyorlangan paxta xom ashyosining atiga 6-8 foizi shu yerda qayta ishlandi. Bu hol so'ngi 60 yil (1930-1990y.y.) o'zgarmadi.

Uchinchidan, paxta tozalash zavodlari asosan shaharlarda joylashtirildi. Natijada paxtani tashish va qayta ishlash xarajatlari oshib ketdi, ekologik muhit buzildi.

To'rtinchidan, respublika iqtisodiyoti asosan paxtachilik, paxta tozalash sanoati bilan bevosita va bilvosita aloqador tarmoqlarga ixtisoslashib bir tomonlama rivojlandi.

¹ O'zbekiston Respublikasi. Ensiklopediy. 251, 259- bet

² O'sha joyda, 251 - bet

Beshinchidan, sho'rolarning 74 yillik hukmronligi davrida qanchalik harakat qilinmasin, tola chiqishi va sifatida jiddiy o'zgarish bo'lmadi, toladan tayyor mahsulot ishlab chiqarish markazda qolaverdi.

SHO'ROLAR DAVRIDA O'ZBEKISTONNING MAMLAKAT XOMASHYO BAZASIGA AYLANIB QOLISHI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY OQIBATLARI

O'zbek xalqi qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan. Bugun ham u yetakchi o'rinda. O'z navbatida dehqonchilikning yetakchi tarmog'ini paxtachilik tashkil etadi. Paxtachilikning pirovard asosiy mahsuloti-paxta tolasi va paxta moyidir.

Paxta, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, qimmatbaho xomashyo, bebaho boylik. Masalan, 1 tonna paxta xomashyosidan o'rtacha 320 - 350 kg. tola yoki 3500 m² gazlama, 10 kg momiq, 620 kg chigit olinadi. Chigitdan esa 110 kg moy, 225 kg kunjara, 175 kg shulxa, 35 kg lint, 30 kg tuk (delint) chiqadi.¹ Umuman g'o'zadan olinadigan mahsulotlar asosida sanoat usulida 1200 dan ko'proq turli mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin.²

Bugungi kunda respublikamiz xalq xo'jaligining 70 foizdan ko'prog'i texnologik jihatdan paxtachilik bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun ham sovet hukumati sobiq umumittifoq mehnat taqsimotida O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirishni o'zbek xalqi oldiga asosiy vazifa qilib qo'ydi. Natijada, sovet hokimiyatining birinchi kunlaridanoq O'zbekiston qishloq xo'jaligida paxtachilik yetakchi o'rin tuta boshladi. Zero, "Turkiston (O'zbekiston) sobiq ittifoq uchun yagona paxta manbai" edi.³

Bu hol yosh sovet davlatidan zudlik bilan O'zbekistonda paxtachilikni tiklashni taqazo etardi. Shu maqsadda sovet hukumati O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirishga kirishdi. Bunda qo'yilgan asosiy vazifa O'zbekistonni mamlakatning xomashyo bazasiga aylantirish edi. Natijada bu yo'nalishda aniq harakatlar boshlandi.

¹ O'zbekiston Respublikasi. EnsiklopediY. 284- bst

² O'sha joyda

³ I.S.Hayitov O'zbekiston paxta tozalash sanoati tarixidan. 1989 y., 8-bet.

1918 yil 17 mayda RSFSR xalq komissarlari kengashining «Turkiston oʻlkasida sugʻorish ishlariga 50 million soʻm ajratish toʻgʻrisida»gi, 1920 yil 2 va 27 noyabrda «Turkiston va Ozarbayjonda paxtachilikni rivojlantirish toʻgʻrisida»gi dekretlari qabul qilindi. Bundan tashqari, 1921 yilda Turkistonda paxtachilikni tiklash va rivojlantirish ishlariga bosh-qosh boʻluvchi Turkiston paxtachilik qoʻmitasi, (Turkxlopkom), koʻp oʻtmay markazda «Bosh paxtachilik qoʻmitasi» (Glavxlopkom) tashkil etildi. Shuningdek, bir necha bor paxtakorlar uchun katta miqdorda mablagʻlar ajratildi. Masalan, 1921 yil sentabrdan 1922 yil yanvargacha Turkiston paxtachilik qoʻmitasi ixtiyoriga markazdan 134 milliard rubl. mablagʻ joʻnatildi.¹ Bu koʻrilgan chora-tadbirlar natijada, asta-sekinlik bilan Oʻzbekistonda paxtachilik tiklanib, rivojlana boshladi. 1924 yilda, yani Oʻzbekiston SSR tuzilgan yili respublikada paxta ekiladigan maydonlar 264,8 ming gektarni, yalpi hosil esa 205,8 ming tonnani tashkil etdi. Bu 1921 yilga nisbatan mos ravishda 2,8 va 6,6 barobar koʻp edi.² Koʻp oʻtmay, 1928 yilga kelib, Oʻzbekistonda paxtachilik tiklandi. Shu yili paxta maydonlari 589,2 ming gektarga, yalpi hosil esa 533,3 ming tonnaga yetdi.³

Bundan ruhlanib ketgan sovet hukumati Oʻzbekiston mehnatkashlari oldiga yanada kattaroq vazifa qoʻydi. U ham boʻlsa, paxta tayyorlashni yaqin besh yil (1928-1932y.y) ichida kamida 1 mln. tonnaga yetkazish va shu bilan sobiq ittifoqning chetdan paxta sotib olishiga chek qoʻyib mamlakat «paxta mustaqilligi» ni taminlash vazifasi edi.

Shoʻrolarning dabdabali soxta vadalariga uchgan, ertaga albatta turmishimiz yaxshi boʻladi deb ishongan oʻzbek xalqi bu vazifani oʻziga katta ishonch deb bildi. Sof, halol, lekin ogʻir mehnat qilib oldiga qoʻyilgan vazifani bajardi. 1932 yilda Respublikada 814 ming tonna paxta xomashyosi tayyorlanib, undan 250 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqarildi. Buncha miqdordagi paxta bilan sobiq ittifoq oʻzining toʻqimachilik sanoati va boshqa ehtiyojlari uchun qimmatli hamda strategik ahamiyatga ega boʻlgan xomashyo-paxta tolasiga talabini

¹ Oʻsha joyda, 17- bet

² Uzbekskeya SSR. T. 1977 y., 105- bet

³ Oʻsha joyda.

94,6 foizga qondirdi. Bu amalda “SSSR ning paxta mustaqilligi” ga erishildi degan soʻz edi.

Mamlakat “Paxta mustaqilligi” ning taminlanishi sobiq ittifoqni har yili chetdan paxta sotib olish uchun sarflaydigan 100 millionlab. oltin rubldan xalos etdi. Bu industrilashtirish uchun Oʻzbekiston qoʻshgan katta hissa edi. Afsuslar boʻlsinkim, bu mablagʻning bir foizi ham Oʻzbekistonga tegmadi yoki respublikada shu hisobdan birorta ham yirik sanoat korxonasi qurilmadi. Oʻzbek xalqiga rahmat ham aytilmadi, kosasi ham oqarmadi.

Aksincha, paxta va paxtachilik xalqimiz uchun “milliy gʻurur, iftixor, milliy boylik, partiya va vatan oldidagi burch” deb eʼlon qilindi. Vazifalar esa yanada kengaydi. Shunday qilib, sovet hokimiyati yillarida Oʻzbekiston paxtachiligi katta, ogʻir va murakkab davrni boshidan kechirdi.

Shoʻrolar davrida Oʻzbekiston paxtachiligi ¹

Yillar	Ekin maydoni (ming.ga)	Yalpi hosil (ming tonna)	Hosildorlik s/ga
1924	264.8	205.8	7.8
1928	589.2	533.8	9.1
1930	883.8	744.3	8.4
1940	923.5	1385.9	15
1950	1098.1	2225.6	20.3
1960	1386.6	2823.5	20.4
1970	1709.2	4495.2	26.3
1980	1877.7	5578.7	29.7
1990	1830.1	5058.0	27.6

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, respublikada paxta tayyorlash yildan-yilga ortib bordi. Birin-ketin millionlik marralar zabt etila boshladi. Xususan, 1935 yilda birinchi millionlik marradan oʻtilgan boʻlsa, 1950 yilda ikkinchi, 1961 yilda uchinchi, 1966 yilda toʻrtinchi, 1971 yilda beshinchi va 1980 yilda oltinchi millionlik marra ham egallandi. Shu davrda hosildorlik gektar boshiga oʻrtacha 10 sentnerdan 32 sentnerga yetdi.

Hisob-kitoblarga koʻra sovet hokimiyatining 60 yilida (1930-1990) Oʻzbekiston “mamlakat” xazinasiga taxminan 180-185 million tonna strategik xomashyo paxta hosili yetkazib berdi. Agar buni paxta tolasi

¹ Oʻzbekiston Respublikasi, EnsiklopediY. 1997 y., 284-bet

hisobida ko'rsak u ham taxminan 57-60 million tonnani tashkil etadi. Endi buni pulga chaqib ko'ring. U bir necha yuz milliard dollarni tashkil etadi.¹

Biroq, shuncha mikdordagi boylik-paxta tolasi berib sobiq ittifoq iqtisodiyotiga salmoqli hissa qo'shgan bo'lsada, O'zbekistonga «boqimanda» sifatida qaralardi. Holbuki, o'zbek paxtasi bir necha bor sobiq ittifoq xalqlarini ocharchilik xavfidan sakdab qolgan.

Masalan, 1976 yilda SSSR da g'alladan kam hosil olindi. Shunda sovet hukumati G'arb davlatlaridan oltin hisobiga g'alla sotib olmoqchi bo'ldi, ammo ular oltinni olmadilar. "biz uni faqat strategik xomashyo paxtaga sotamiz", - deyishdi. Shu yil O'zbekistonda rejada belgilanganidan 400 ming tonna ko'p paxta hosili olingan edi. Natijada sovet hukumati paxtani donga almashtirdi. G'arb davlatlari uning har tonnasiga 18 tonnadan g'alla berdilar. Natijada bu don mamlakat xalqini ochlikdan saqlab qoldi.² Demak, paxtamiz oltindan ham kuchli, bebaho xazina ekan.

Afsus-nadomatlar bo'lsinkim, O'zbekiston, o'zbek xalqi bu boylikdan bahramand bo'la olmadi. Bu haqda hurmatli Prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edi. "O'zbek paxtasini kimdir, qayoqqadir olib borib, qaysidir narhda, kimgadir sotish payida bo'lardi. Bir e'tibor bering-a qanchalik mavhum bu gaplar! "Kimdir", "Qayoqqadir", "Kimgadir" va "Qaysidir" - yaqin o'tmishda biz guvoh bo'lgan savdolar ana shu so'zlarda o'z ifodasini topgan edi".³

Shuni o'zi ko'rsatadiki, O'zbekiston va o'zbek xalqi bilan hech kim hisoblashmadi. "Sobiq markaz olib borgan siyosat oqibatida O'zbekiston faqat xomashyo berishdan nariga o'tmadi. O'zida bor narsani o'zi ishlata olmadi".⁴

Bundan xulosa shuki, sovet hokimiyati yillarida O'zbekiston nafaqat SSSR ning, balki sobiq sotsialistik mamlakatlarning ham xom ashyo bazasiga aylanib qoldi. U o'z paxtasi bilan SSSR ning 100 foiz, sotsialistik mamlakatlarning 80 foiz ehtiyojini qondirar edi.

¹ I.S.Hayitov. ma'ruzalar matni - TTESI, 1999 y.

² «Xalq so'zi». Paxta-oltindan ham bebaho. 2000 y. 13-dekabr

³ I.A.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura -1 jild. T.: 1996 y., 106-bet.

⁴ O'sha joyda, 13-bet.

1976 yilda dunyoning ayrim mamlakatlarida paxta hosildorligi va tola ishlab chiqarish holati.

Davlatlar	Hosildorlik s/ga	Tola ishlab chiqarish (ming tonna)	Davlatlar	Hosildorlik s/ga	Tola ishlab chiqarish (ming tonna)
SSSR (sobiq)	8,6	2515	Kolumbiya	5,0	136
Shu jumladan					
O'zbekiston SSR (sobiq)	9,0	1604	Meksika	8,0	200
Misr	7,0	392	Pokiston	2,7	510
Argentina	3,6	160	Suriya	7,5	150 ¹
Braziliya	1,4	516	Sudan	4,8	229
Hindiston	1,4	1110	AQSH	4,8	1813
Eron	5,0	165	Turkiya	5,9	457

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston paxta tolasini ishlab chiqarish bo‘yicha ham yetakchi davlatlar qatorida turibdi. Bu paxta bizning asosiy boyligimiz ekanidan dalolat emasmi? Xuddi shunday, ammo sho‘rolar davlati bizdan shu boylikni olib qo‘ydi. Fikrimiz isboti uchun Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi so‘zlarini eslash o‘rinli deb bilamiz. “Keyingi 15 yilda terilgan paxtaning ham hisob-kitobi ayon. O‘zim hisoblab chiqqanman: shu davr mobaynida kamida 35 milliard dollarlik boylik paxta va oltin Markaz ehtiyoji uchun olib chiqib ketilgan”.¹ Bu yerda yurtboshimiz 1976-1990 yillarni nazarda tutgan. Hisob-kitobda boshqa boyliklar inobatga olinmagan.

Tobiiyki, paxta o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. U juda katta mehnat va qo‘shimcha resurslarni talab qiladi. Masalan, Sobiq ittifoqda paxtachilikni rivojlantirish maqsadlarida birinchi navbatda jamoalashtirish siyosati amalga oshirildi. Yakka dehqon xo‘jaliklari tugatilib yirik jamoa xo‘jaliklari-kolxozlar tashkil etildi, “Xalq hashari” deb atalmish yo‘l bilan suv xo‘jaligi qurilishi-kanallar, suv omborlari qurish keng avj oldirildi.

Albatta, paxta ekiladigan maydonlarning 60 yil (1930-1990) davomida 884 ming gektardan 2 million 110 ming gektarga yetishi o‘z navbatida suvga, mineral o‘g‘itlarga bo‘lgan talabni oshirib yubordi. Natijada. 1929-1940 yillarda umumiy uzunligi 2108 km bo‘lgan katta va kichik kanallar, shu jumladan Katta Farg‘ona kanali (270 km.), Shimoliy

¹ I.A.Karimov O‘zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. - T , 1996 y., 188-bet

Fargʻona kanali (133 km.), Qizketgan, Darxom, Norpay, Hazarbogʻ, Toshsaqa, Sovoy, Dalvorzin kanallari. Kattaqoʻrgʻon suv ombori qurildi.

Urushdan keyingi yillarda Oʻzbekiston paxtachiligida yanada «katta oʻzgarishlar» qilindi. Oʻtgan asr 50-yillaridan quriq va boʻz yerlarni oʻzlashtirish avj oldirildi. Mirzachoʻl, Qarshi, Surxon-Sherobod, Markaziy Fargʻona, Malik, Jizzax choʻllarida ming-minglab gektar yangi yerlar oʻzlashtirildi. Bu yerlarni sugʻorish uchun esa Janubiy Mirzachoʻl, Kirov nomli, Amu-Buxoro, Amu-Qorakoʻl, Katta Andijon kanallari, Kosonsoy, Uchqizil, Kuyimozor, Toshkent, Janubiy Surxon, Chimqoʻrgʻon, Karkidon, Pachkamar suv omborlari qurildi.

60-yillardan paxtachilikda kompleks mexanizatsiyalash, kimyolashtirish, fan va texnikaning eng yangi yutukdarini ishlab chiqarishga joriy etish, gʻoʻzaning serhosil, erta pishar navlarini yaratishga eʼtibor kuchaytirildi. Keyingi yillarda respublikaning barcha viloyatlari va Qoraqalpogʻiston Respublikasida ilmiy asoslangan mintaqaviy dehqonchilik tizimi, gʻoʻza yetishtirishning industrial texnologiyasi ishlab chiqildi va joriy etildi.

Paxta hosildorligini oshirish va tola sifatini yaxshilash choralari koʻrildi. 1922 yildan 1990 yilgacha 7 marta paxta navlarini almashtirish oʻtkazildi. Yangi tezpishar, serhosil, uzun tolali navlar yaratildi. Natijada tola uzunligi 26-28 mm. dan (1913 y.) 32-33 mm. gacha, tola chiqishi esa 26-28 foizdan 35-41 foizgacha koʻtarildi. Gʻoʻzaning vilt va boshqa kasalliklardan zararlanishi keskin kamaytirildi.¹

Shu bilan birga, Oʻzbekistonda paxtachilikning keskin darajada rivojlantirilishi bir qator salbiy oqibatlariga ham olib keldi. Xususan, oziq-ovqat mahsulotlari-goʻsht, sut, kartoshka, meva-sabzavot, gʻalla yetishtirish kamayib ketdi. Respublika ularning asosiy qismini chetdan olib kelishga majbur boʻldi.

Ikkinchidan, gʻoʻzaga ishlov berish maqsadida turli xil ximikat va gerbitsidlarning ishlatilishi oqibatida suv, havo, oziq-ovqat mahsulotlari, eng yomoni odamlar zaharlandi. Natijada ayollarda kamqonlik kasali, farzandlarning nogiron boʻlib tugʻilishi koʻpayib ketdi. Hisob-kitoblarga qaraganda, AQSH 70-yillarda Vyetnamdagi urushda jon boshiga 3-4 kg zaharli kimyoviy modlalar ishlatgan ekan. Tinch Oʻzbekistonda esa bu koʻrsatkich 53-54 kg ni tashkil etgan. Biroq bu hakda «markaz» lom-mim demasdi, chunki “paxta bahonasi” bor edida.

Uchinchidan, Respublikada ekologik vaziyat buzildi. Katta mikdordagi yer maydonlari ishdan chiqdi. Urushdan keyingi yillarda

¹ Oʻzbekiston Respublikasi. EnsiklopediY. 287-bet

sugʻoriladigan yerlar maydoni 2 barobar koʻpaydi. Faqat 1975 - 1985 yillarda 1 million gektar yangi yerlar oʻzlashtirildi. 1985 yilga kelib ekin maydonlarining 75 foizi paxta hissasiga toʻgʻri keldi.¹ Dunyoning hech bir mamlakatida paxta bu qadar monopoliya darajasiga yetmagan edi.

Toʻrtinchidan, 50-60 yillardan boshlab keng masshtabda yangi yerlarning oʻzlashtirilishi, sanoat va chorvachilik komplekslarining ekstensiv rivojlanishi Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshonda suv mikdorining kamayishi va shoʻrlanishga olib keldi.

Beshinchidan, nafaqat Oʻzbekiston, balki butun Markaziy Osiyo uchun eng katta muammo - Orol fojeasi kelib chikdi. 1962-1990 yillar ichida Orol dengizida suv hajmi 1064 kub. km. dan 400 ming kub km. ga kamaydi yoki shu davrda uning suv havzasi maydoni 66 ming kv.km dan 32,5 ming kv.km ga qisqarib, bugun Orol dengizi bir necha boʻlaklarga boʻlinib ketdi. Uning qirgʻoqlari 80-100 kilometr chekinib, 4 million gektardan ortiq yangi qum-tuzli choʻl paydo boʻldi.²

Orolning bunday axvolga tushib qolishi uning mintaqasida yashovchi 35-40 million aholi turmush tarziga salbiy taʼsir koʻrsatdi. Xususan, uning oʻrnida paydo boʻlgan choʻldan har yili atmosferaga koʻtarilayotgan 15-75 million tonna chang va tuz aralash qum 400-500 kilometrgacha borib yetmoqda. Natijada, aholini toza ichimlik suv, oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlashda muammolar kelib chiqdi. Kasalmand kishilar soni ortib bormoqda.

Xulosa qilib aytsak, mana shu va boshqa sabablar Oʻzbekiston iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanib, asosan paxtachilik va u bilan bogʻliq tarmoqlar bilan oʻralashib qolganligini bevosita isbotidir. Natijada, iqtisodiyotimizning boshqa hayotiy zarur sohalari rivojlanmay qoldi. Oʻzbekiston agrar mamlakat boʻlib qolaveradi. Xalqimiz turmush darajasida jiddiy oʻzgarishlar boʻlmadi.

ISTIQLOL YILLARIDA MAMLAKAT PAXTA TOZALASH SANOATI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID KOʻRILGAN CHORA-TADBIRLAR

Oʻzbekiston mustaqillikka erishganidan soʻng paxta haqiqiy boyligimizga aylandi. Oʻzbekiston hukumati respublikada paxtachilikni rivojlantirishning strategiyasini qayta koʻrib chiqdi. Asosiy eʼtibor umumiy hosilga emas, balki undan olinadigan tolaga qaratiladigan boʻldi.

¹ I.S.Hayitov. Maʼruzalar matni. - TTESI, 1999 y., 36-bet.

² Oʻsha joyda, 37-bet

Eng muhimi, respublikada paxta yakka hokimligiga chek qo'yildi. Paxtachilik va paxta tozalash sanoatiga yangicha yondashuv boshlandi. Prezident I.A.Karimov tomonidan Paxta bo'yicha O'zbekistonning asosiy maqsadlari e'lon qilindi. Ular quydagilardan iborat:

1. Paxta hosildorligini oshirish;
2. Paxta tolasining sifatini yaxshilash;
3. Yuqori sifatli urug'lik yetishtirishni ko'paytirish;
4. Ekinlarni sug'orishda suvni tejash;
5. Atrof muhitni sog'lomlashtirish, ekologiya vaziyatini yaxshilash.¹

Bu vazifani bajarish uchun "Eng avvalo, iqtisodiyotning faqat xomashyo yetishtirishdek samarasiz yo'nalishdan qutilish kerak" -edi.² Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugun "Biz barcha taraqqiy topgan va ma'rifatli mamlakatlar kabi paxta bilan emas, avvalo tayyor mahsulot bilan savdo qilishimiz lozim".³

Paxta va undan olinadigan muhim strategik xomashyo paxta tolasi-bizning asosiy boyligimiz ekani hammaga ma'lum. Demak, uni o'z manfaatimiz yo'lida rivojlantirishimiz zarur. Buning uchun mustaqillikning ilk kunlaridayoq, paxta yetishtiradigan xo'jaliklar, paxta tozalash sanoati korxonalari va tashkilotlarining iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan zarur shart-sharoitlarni yaratib berish va bozor iqtisodiyoti sharoitida paxta xom ashyosini qayta ishlash samarasini oshirish maqsadida 1992 yil 7 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston paxtani qayta ishlash va paxta maxsulotini sotish davlat-aksionerlik assotssiatsiyasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-485 chi farmoni e'lon qilindi. Unga ko'ra tashkil etilgan "O'zpaxtasanoatsotish" davlat-aksionerlik uyushmasi oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi: - respublikada yetishtirilgan paxta xom ashyosini sotib olish, saqlash va qayta ishlash.

- paxta mahsulotlarini istyemolchilarga, shu jumladan eksportta sotish va ularga yetkazib berish;

- paxta xomashyosini sotib olish, saqlash va qayta ishlashda yagona ilmiy-texnik siyosat yuritish va jahon andozalariga mos keladigan paxta tolasi va boshqa paxta mahsulotlarini ishlab chiqishni ta'minlovchi ilg'or, kam xarj texnologiyalarni tadbiq etish;

- yetkazib berilgan mahsulot uchun ta'minotchilar va istyemolchilar bilan markazlashgan holda hisob-kitob qilish.

"O'zpaxtasanoatsotish" uyushmasi tomonidan bu vazifalarning

¹ I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi.- T: 1997 y., 153-bet

² I.A.Karimov. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild-T: 1996 y., 11- bet

³ O'sha joyda, 118-bet.

bajarilishi respublikamiz iqtisodiyotiga salmoqli ulush bo'lardi. Zero, "Paxta O'zbekiston uchun respublikaning mustaqilligini kafolatlaydigan siyosiy va iqtisodiy kuch-qudrat manbai"¹ edi.

Bu vazifani bajarish uchun "O'zpxatasanoatsotish" uyushmasi yetarli imkoniyatga ega edi. Uning tarkibida 1992 yilda 13 ta xududiy davlat aksionerlik birlashmalari, 113 ta paxta tozalash zavodlari, 12 ta paxta va 4 ta ta'minot bazalari, shuningdek soha bo'yicha respublika ilmiy-tekshirish markazi bor edi.

Natijada, paxta tozalash sanoati faoliyatini takomillashtirish boshlandi. Avvalo, paxtaning narxi ko'tarilib, moddiy manfaatdorlik oshirildi. Jumladan, faqat 1991-1992 yilda paxta narxi 9 barobar oshdi. Uni jahon narhlariga tenglashtirish chora-tadbirlari ko'rildi. Chunki, "O'zbekiston nafaqat O'rta Osiyoda, balki dunyoda ham muhim strategik mahsulot paxta va undan ishlanadigan mahsulotlarni eksport qilishda yetakchi o'rin tutadi".²

Shu ma'noda, paxta tolasini respublika byudjetini qattiq valyuta bilan to'ldirishda, mamlakatimizda to'qimachilik, yengil va boshqa sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda katta kuch, manba edi. "Respublika paxta tolasini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda to'rtinchi va uni eksport qilish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi".³

Buni yaxshi anglagan O'zbekiston rahbariyati mustaqillikning ilk kunlaridanoq paxta tozalash sanoatiga e'tiborni kuchaytirdi. Zero, unga mablag' sarflash eng samarali va foydali bo'lib, o'zini tez oqlaydi. Shundan kelib chiqib, "Biz O'zbekiston paxta tolasini eksport qilish bo'yicha jahonda egallab turgan ikkinchi o'rinni sakdab qolishga qat'iy ahd paymon qilganmiz".⁴

Biroq, bu O'zbekiston chetga paxta tolasini 100 foiz chiqaradi degan ma'noni bildirmaydi. Aksincha, yaqin kelajakda paxta tolasini kamida 60 foizini o'zimizda qayta ishlab, undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni keskin oshirishni nazarda tutardi.

Buning uchun dastavval "qimmatli xomashyoni qayta ishlash asosida tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalarni rivojlantirishimiz, chet ellik sheriklarimiz bilan zamonaviy ixcham korxonalar tashkil etib, ularni birinchi navbatda mehnat resurslari va xomashyo manbalariga-avvalambor qishloq joylariga yaqinroq joylashtirishimiz kerak" bo'ladi.⁵

¹ I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild.-T.:1996 y., 220-bet.


² I.A.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild.-T.: 1996 y., 13- bet.

³ I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...-T.: 2003 y., 227-bet.

⁴ I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jidd.-T.: 1997 y., 154-bet.

⁵ I.A.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-jild.-T.: 1996 y., 118-bet.

O'zbekiston Respublikasidagi paxta tozalash korxonalarining dislokatsiyasi



Natijada, sohada islohotlarni chuqurlashtirish boshlandi. Uning birinchi bosqichi sohada 1995-1996 yillarda boshlanib, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish amalga oshirilib 146 davlat korxonalari, shu jumladan 128 paxta tozalash zavodlari ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi.

Bunda bir qator, asosan paxta tozalash zavodlariga yordamchi xizmat ko'rsatuvchi korxonalar "O'zpaxtasanoatsotish" uyushmasi tasarrufidan chiqarilib ma'suliyati cheklangan jamiyatlar yoki xususiy korxonalarga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 31 martda imzolagan "Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish va xorijiy investorlarning respublika fond bozoridagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha choralar to'g'risida" gi, xamda 1998 yil 4 martda chiqargan "Fond bozorini yanada rivojlantirish va davlat mulki negizida tuzilgan aksionerlik jamiyatlarini qo'llab-quvvatlash choralari to'g'risida"gi farmonlari paxta tozalash sanoatida islohotlarni chuqurlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

"O'zpaxtasanoatsotish" uyushmasida mazkur farmonlarni bajarish borasida maxsus "Aksionerlik jamiyatlarining aksiya paketlarini joylashtirish bo'yicha dastur" ishlab chiqildi. Shu asosda 273,3 mln. so'mlik aksiyalar sotildi. Aksionerlik jamiyatlarining maxsus suda hisob raqamiga 260 mln. so'mdan oshiqroq mablag' tushurilib, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga yo'naltirildi.

Paxta tozalash sanoati korxonalari va tashkilotlarining xo'jalik yuritishdagi mustaqilligini oshirish, ularni boshqarishda aksiyanerlarning rolini kuchaytirish, sohani rivojlantirish va texnik jihatdan qayta jihozlashga investitsiyalarni, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni, keng jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Paxta sanoatini monopoliyadan chiqarish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2001 yil 11 iyundagi Farmoni muhim ahamiyat kasb etdi.


2001 yil 12 iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu Farmonini bajarish uchun "Respublika paxta tozalash sanoati boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida" qaror qabul qilib tarmoq korxonalarini aksiyalashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish va sohani boshqarish tizimini optimallashtirish, maqsadida sohani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

Mazkur farmon va qaror asosida "O'zpaxtasanoatsotish" davlat

aksionerlik uyushmasi – “O‘zpaxtasanoat” uyushmasiga aylantirildi. Viloyatlarda xududiy “Paxtasanoat” aksiyadorlik birlashmalari tashkil etildi.

Bu bilan tugatilayotgan xududiy davlat-aksionerlik birlashmalarining mol-mulki inventarizatsiya qilindi va ustav fondlari shakllantirildi.

Shunday qilib, “O‘zpaxtasanoat” uyushmasi “O‘zpaxtasanoatsotish” uyushmasining merosxo‘ri bo‘lib qoldi. Uning tarkibiga 129 ta paxta tozalash zavodlari, “Paxta tozalash” ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi tajriba ekspremental paxta tozalash korxonalari, shuningdek uning va viloyatlar mexanika ustaxonalari va boshqa yordamchi xo‘jaliklar kiritildi.



Zamonaviy tola va lint ajiratuvcchi dastgohlar

Uyushma oldiga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

- jahon va ichki bozordagi konyukturani tizimli ravishda o‘rganishni, paxtaning seleksion navlari hajmlarini belgilab joylashtirish tizimini, paxta xomashyosini ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish;
- «Paxtasanoat» xududiy aksionerlik birlashmalariga, paxta tozalash korxonalariga bozor islohotlarini amalga oshirishda, jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishda, soha korxonalarini modernizatsiyalash va qayta jihozlashda ilg‘or texnika va texnologiyalarni tadbiq etish, investetsiyalarni keng jalb etishda ko‘maklashish;
- paxta tozalash korxonalarining paxta xom ashyosini tayyorlashda, uni qayta ishlashda yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta‘minlovchi meyoriy-texnologik talablarga amal qilishlari hamda ishlab chiqarish va uni yetkazib berish balansi bajarilishi ustidan monitoring olib borish;

- paxta navini yangilash va nav joylashtirish bo'yicha belgilangan tartib bajarilishi, paxta yetishtiradigan xo'jaliklarga yuqori sifatli urug'lik chigitlarni tayyorlash va yetkazib berish ustidan nazorat qilish va hakazo.

Islohotlar jarayonida 146 ta xususiylashtirilgan korxonalarining 1910 mln. so'mlik umumiy ustav fondi shakllantirildi va 9 millionga yaqin aksiyalar chiqarildi.

Bu davrda respublika paxta tozalash sanoati tizimida 159 ta aksiyanerlik jamiyatlari, 27 ta davlat tasarrufidagi va 12 ta turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyat ko'rsatmokda edi.

Ushbu qarorda belgilangan vazifalarni bajarish uchun barcha aksiyanerlik jamiyatlarning ustav fondlari inventarizatsiyadan o'tkazildi. Davlat ulushi 51% hajmida (paxta tozalash korxonalarida) saqlanib qolgani holda mehnat jamoalarining 7% dan oshmagan ulushining bo'lishi ta'minlandi. Sohaning umumiy ustav fondi 5,6 mlrd. so'mga yetdi va qimmatli qog'ozlar fond bozoriga qo'shimcha 4,0 mlrd. so'mdan oshiqroq aksiyalar chiqarildi.

Soha korxonalarini texnik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha kompleks tadbiriy choralarni amalga oshirish, ma'naviy va jismoniy eskirgan asosiy hamda yordamchi uskunalarni almashtirish, shuningdek xususiylashtirilgandan keyin qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan sotilgan aksiyalar hisobidan 2,0 mlrd so'mdan oshiqroq mablag' yo'naltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 11 iyundagi Farmoniga ko'ra "Paxtasanoat" xududiy aksionerlik jamiyatlari paxta tozalash sanoatlarining belgilangan tartibda paxta xomashyosini sotib olish va qayta ishlash, tayyorlash, ishlab chiqarilgan paxta mahsulotini eksportga, shuningdek respublikadagi ist'molchilarga sotishga ma'sul asosiy bo'g'inlari hisoblanadilar.

"Paxtasanoat" xududiy aksionerlik jamiyatlari ustav fondiga paxta tozalash korxonalarining 51 % aksiyalar paketining (davlat ulushi) olib berilishi, aksionerlik jamiyatlarining yakuniy natijalariga, o'z korxonalarining rivojlanishiga, ular faoliyatining yuqori samarasiga erishishga hamda dividendlar olishga qiziqishini kuchaytirdi. Buning natijasida "Paxtasanoat" xududiy aksionerlik jamiyatlarining korxonalarni moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar unumdorligini oshirish va sifatini yaxshilashdagi roli keskin oshib ketdi.

Respublika iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etish yo'nalishiga

binoan “Qorasuv paxta tozalash” AJ (Toshkent viloyati) va “Muborak paxta tozalash” AJ (Qashqadaryo viloyati) erkin aksiya ulushlari (42%) chet el investorlari “T81 A850S1AT8 8.A” Shveysariya kompaniyasi va “TEKASHUEZT S.A.” Lixtenshteyn kompaniyasiga tegishli ulushlar esa mos ravishda 191,0 ming va 425,5 ming AQSH dollariga sotildi.

“Xususiylashtirilgan korxonalarning korporativ boshqaruvini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 yanvardagi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 19 aprellagi qarori asosida aksionerlar va mulkdorlar uchun mol-mulkni boshqarishda katta imkoniyatlar ochildi, ularning aksionerlik jamiyatlari boshqaruvida qatnashish imkoniyatini kengaytirdi.

Hukumatning ushbu qarorini bajarish davomida "norentabel", kamquvvat aksionerlik jamiyatlari mas‘uliyati cheklantan jamiyatlarga aylantirildi. Jumladan 30 ga yaqin aksionerlik jamiyatlari mol-mulkni qayta baholash va ustav fondini (50 ming AQSH dollari ekvivalentida) restruktizatsiya qilish davomida mas‘uliyati cheklangan jamiyatlarga aylantirildi.

Korporativ boshqaruvining yangi shakl va uslublarini tadbiq etilishi aksionerlarning korxonalar faoliyatidagi ishtirokini oshirdi hamda direktorlik korpusi va kuzatuv kengashi roli va maqomini qayta ko‘rib chiqishga yo‘l berdi, ularning aksiyanerlar oldidagi mas‘uliyatini oshirdi, kadrlarning zaruriy rotatsiyasini ta‘minladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni chiqqanidan keyin aksiyanerlik jamiyatlari faoliyatlari natijalarini hisobga olib, ularning boshqaruv organlaridagi kadrlar tarkibi qayta ko‘rib chiqilib 27 ta boshqaruv raisi almashtirildi. Kuzatuv kengashlari va taftish komissiyalarining tarkibi jiddiy yangilandi.

Tegishli tadbirlarni amalga oshirish doirasida soha korxonalari ustav fondini 11,3 mlrd. so‘mgacha o‘sishi (o‘shish 20,1%) bilan 2,3 mlrd. so‘mlik qo‘shimcha aksiyalarni chiqarilishi ta‘minlandi. Uning hisobidan 2003-2004 yillar yakuniga ko‘ra 12,62 mlrd. so‘mlik sof daromad (daromad o‘sishi 7,9% tashkil etdi) olinishiga erishildi.

Aksionerlarning umumiy yig‘ilishlari qaroriga ko‘ra daromadning katta qismi ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarflanib, qolgan qismi aksiyanerlarga dividend hisobida berildi.

2005 yil yakuni bo‘yicha 15,0 mlrd. so‘mga yaqin sof daromad (o‘shish 9,4%) olinishiga erishildi.

Prezident I.A.Karimovning 2006 yil 10 fevral kuni Vazirlar Mahkamasida bo'lib o'tgan majlisda "2005 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" qilgan ma'ruzasida ta'kidlanganidek, 2005 yilda butun xalq xo'jaligi tarmoklari qatori respublika paxta tozalash sanoatida ham jiddiy o'sishga erishildi.

Tarmoqda asosiy e'tibor yengil, to'qimachilik sanoat korxonalari bilan hamkorlikda Prezidentimiz tomonidan "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" nomli asarida qo'yilgan "Islohotlar ikkinchi bosqichida respublikada yetishtirilayotgan paxta tolasining 28-30 foizini qayta ishlashga erishish vazifasi"ni¹ bajarishga qaratildi.

Shu maqsadda, paxta tozalash zavodlarining asosiy texnologik uskunalari o'tgan 15 yil ichida taxminan 70 foizga yangilandi. Faqat 1994-2005 yillarda paxta zavodlarini qayta jihozlash dasturini amalga oshirishdan olingan iqtisodiy samara 1 mlrd. 829 mln. 430 ming so'mni tashkil etdi.

So'ngi 15 yilda paxta tolasi chiqishi 30,79 foizdan 33 foizgacha ko'tarildi. Bunda agar 1990-1997 yillarda bir tekis rivojlanish kuzatilmagan bo'lsa, 1998 yil hosildan boshlab tola chiqish miqdori o'sib bordi. Shuningdek, mustaqillik yillarida paxtaning assortimenti ham oshib bordi. Masalan, 1990 yilda 85,3 foiz paxta 1 va 2 nav bo'yicha tayyorlangan bo'lsa, 1997 yilda u 68,3 foizga tushib qoldi. Keyinchalik bu sohada ham jonlanish boshlandi. 2005 yilga kelib 86,8 foiz yoki jami tayyorlangan paxta hosilining 3244666 tonnasi 1 va 2 navga to'g'ri keldi.

Bu o'z navbatida paxta tolasi sifatining oshishiga olib keldi. Jumladan, 2003 yildagi hosildan 77,7 foiz sifatli tola olingan bo'lsa, 2004 yil hosilidan bu ko'rsatkich 79,7 foizni tashkil etdi. Bu holda tolaning oliy va yaxshi sinflari mos ravishda 2003 yilda- 69,7 va 2004 yilda- 71,1 foizga teng bo'ldi.

Shunday qilib, O'zbekiston hukumatining paxta tozalash sanoatini rivojlantirishga doir ko'rgan chora-tadbirlari, "O'zpaxtasanoat" uyushmasining sayi-harakatlari va soha xodimlarining samarali mehnati natijasida nafaqat paxta tozalash sanoatida, balki u bilan bog'liq sanoat tarmoqlarida, umuman respublika iqtisodiyotida bir qator sifat o'zgarishlari ro'y berdi.

Eng muhim samara shu bo'lmoqdaki, respublikada yetishtirilayotgan paxta tolasini shu yerning o'zida qayta ishlab undan

¹ I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Z-jild.-T.: 1996 y, 346-bet.

tayyor mahsulot ishlab chiqarish yildan yilga ko‘payib bormokda. Boshqacha aytganda, paxta tolasini xomashyo sifatida chetga chiqarish kamaymoqda.

Tolaning nav va sinfi o‘zgarishi dinamikasi.

SHo‘rolar davrida				Mustaqillik davrida			
	1988	1989	1990	1992	1998	2001	2003
Umumiy miqdordan tola ishlab chiqarish (%)	30	34	39	19	80	85	87
Oliy va yaxshi sinf tola ishlab chiqarish	18	19	20	35	63	65	78

Bu haqda hurmatli Prezidentimiz I.A.Karimov Vazirlar Mahkamasi yig‘ilishida (2006 yil 10 fevral) qilgan ma‘ruzasida shunday degan edi. «O‘zbekiston iqtisodiyotida yuz berayotgan sifat o‘zgarishlarini baholash uchun e‘tiboringizni yana bir masalaga qaratmoqchiman. Agarki yaqin-yaqinlargacha, ya‘ni 2000 yilda eksport tarkibida paxta tolasining hissasi 27,5 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2005 yilda bu ko‘rsatkich 19 foizni tashkil etganining o‘zi ko‘p narsani bildiradi».¹

Ammo, bu O‘zbekiston yaqin istiqbolda chetga paxta tolasini eksport qilishni umuman to‘xtatadi degan ma‘noni bildirmaydi. «Biz O‘zbekiston paxta tolasini eksport qilish bo‘yicha jahonda egallab turgan ikkinchi o‘rinni saqlab qolishga qat’iy axd paymon, qilganmiz».² Bundan xulosa shuki, O‘zbekiston 60-70 foiz paxta tolasini o‘zida qayta ishlab, qolganini eksport qilishda davom etadi. Masalan, biz bugun 1,2 mln. tonna paxta tolasini ishlab chiqarsak, uni taxminan 400 ming tonnasini o‘zimizda qayta ishlamoqdamiz. Kelgusida bu ko‘rsatkichni kamida 600-700 ming tonnaga yetkazishimiz kerak.

Hozircha chetga bu qadar ko‘p paxta tolasini sotish respublikamizda to‘qimachilik va yengil sanoat rivoji ko‘zlangan darajaga yetgunicha davom etishi mumkin.

Xo‘sh! Buning uchun nima qilish kerak? Dastavval “qimmatli xom ashyoni qayta ishlash asosida tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan qo‘shma korxonalarni rivojlantirishimiz, chet ellik sheriklarimiz bilan zamonaviy ixcham korxonalar tashkil etib, ularni birinchi navbatda

¹ «Xalq so‘zi» 2006 yil 11-fevral.

² I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi-T.: 1997 y., 154-bet.

mehnat resurslari va xomashyo manbalariga, avvalambor qishloq joylariga yaqinroq joylashtirishimiz kerak”¹

Shu va boshqa maqsadlarni ko‘zlab O‘zbekiston 1992 yilda Paxta bo‘yicha xalqaro maslahat qo‘mitasiga azo bo‘ldi. Shundan so‘ng, ko‘p o‘tmay 1996 yil 7-8 oktabrda Toshkentda Paxta bo‘yicha xalqaro maslahat qo‘mitasining 55-yalpi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda BMT, Jahon savdo tashkiloti, Jahon banki vakillari, Bremen (Germaniya), Liverpool (Angliya) paxta uyushmalari, Nyu-York paxta birjasi va «Katton outlik» nashriyoti qatnashdi.

Qo‘mita azolari O‘zbekistonda paxta yetishtirishga katta ahamiyat berib, o‘z etiborlarini bu borada manfaatli hamkorlikka qaratdilar. Xususan, xorijiy kompaniyalar - AQSH ning «Donovant» kompaniyasining Memfisidagi paxta maktabi va Roda kolleji qoshidagi xalqaro paxta institutida mutaxassislarimizning tayyorgarlikdan o‘tishi yo‘lga quyildi. Shuningdek, Buyuk Britaniyaning “Vekfildcc, AQSH ning «Es Ji Es», «Robertson» va boshqa kompaniyalari bilan faol hamkorlik ham yo‘lga quyildi. Masalan, Germaniyaning «Luizental» firmasi bilan birgalikda o‘zbek paxta tolasidan yuqori sifatli qog‘oz, shu jumladan pul chiqarishda ishlatiladigan qog‘oz tayyorlanmoqda.

Qo‘mita yalpi majlisida, bundan tashqari o‘zbek paxta tolasini jahon bozoriga olib chiqish, buning uchun yo‘llar ochish, kommunikatsiya tizimini yaxshilash haqida ham so‘z bordi.

O‘zbekistonda paxtachilik va paxta tozalash sanoatini rivojlantirishda 2005 yilda birinchi bor Toshkentda o‘tkazilgan Xalqaro o‘zbek paxta yarmakasi ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bu anjuman-yarmarkada dunyoning 26 mamlakatida foliyat ko‘rsatayotgan 200 ta xorijiy kompaniyaning 340 nafar vakili qatnashdi. Yarmarka natijalariga ko‘ra, paxta xomashyosini xarid qiluvchi Xitoy, Rossiya, Hindiston, Janubiy Koreya, Singapur, Bangladesh, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa davlatlar bilan 122 ta shartnoma imzolandi. Demak, yarmarka paxta mahsulotini sotish va uni qayta ishlovchilarga, vositachilarsiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berish mexanizimini yanada erkinlashtirishga, xaridor mamlakatlar geografiyasini kengaytirishga imkon berdi.

«Toshkentda o‘tkazilgan yarmarka O‘zbekiston dunyoda paxta tolasini ishlab chiqarishdagi yetakchi davlatlardan biri sifatida jahon paxta bozorida faol rol uynashi mumkinligini yana bir bor yaqqol ko‘rsatdi».²

¹ I.A.Karimov. O‘zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.-T.: 1996 y., 118-bet.

² I.A.Karimov. 2006 yil 10-fevralda Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruza.-«Xalq so‘zi», 2006 y., 11-fevral.

Tabiiyki, jahon bozoriga yo'l ochish tekis va oson kechmadi. Buning uchun ko'p izlanishlar, kuzatuvlar, o'rganish va qiyoslashlar olib borildi. Davlatimiz va hukumatimiz rahbariyatining to'g'ri va izchil siyosati, tarmoqqa g'amxurligi samara berdi. Shu bois bo'lsa kerak, bugun o'zbek tolasi jahon bozorida xaridorgir bo'lib bormoqda. Ha, tolamiz dunyoning 50 dan ortiq mamlakatiga jo'natilayotganligi fikrimiz isbotidir.

Masalan, 1996 yilda paxta tolasining sifati uchun Z-Namangan paxta tozalash zavodi Kopengagen shahrida «Oltin globus» xalqaro sovriniga sazavor bo'lgan bo'lsa, ko'p o'tmay Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy va Xalqabod, shuningdek 2-Qo'qon, Yakkabog' paxta tozalash zavodlari Parij va Madridda «Oltin Yulduz» hamda «Oltin medal» xalqaro mukofatlarini qo'lga kiritishdi.

Faqat 2000 yilda Namangan viloyati paxta tozalash zavodlari AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shveysariya, Ispaniya, Belgiya kabi 12 ta xorijiy mamlakatga 70 ming 200 tonnadan ortiq sifatli paxta tolasini eksport qildilar.

Xorij bilan aloqalar mahsulot sotish, ayiraboshlash, mutaxassis kadrlar tayyorlash kabi keng qamrovli faoliyatlarda ham ijobiy ahamiyat kasb etmokda. Buni mutaxassislarimizning AQSH, Buyuk-Britaniya, Germaniya, Turkiyaga borib tajriba almashib kelayotganligi va boshqalarda ko'rish mumkin.

Umuman, istiqbol yillarida respublikamiz rahbariyati tamonidan paxta tozalash sanoati faoliyatini takomillashtirishga oid ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida tarmoq zavodlari uch smenada ishlab, yiliga 5 million tonna paxta hosilini qayta ishlab, 1,5 million tonnadan ortiq paxta tolasini ishlab chikarish kuvvatiga ega bo'ldi.

Mustaqilligimizning o'tgan dastlabki 15 yilida respublikamiz paxta tozalash zavodlari taxminan 5,2736,5 ming, yiliga o'rtacha 3,766,8 ming tonnadan ortiq paxta tayyorlab, undan 17,500,6 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqardi. Bunda yillik ko'rsatkich 1-1,1 mln. tonnani tashkil etdi.

Mustaqillik sharofati bilan barcha paxta tozalash zavodlari o'zini-o'zi mablag' bilan taminlaydigan korxonalarga aylandi.

RESPUBLIKADA PAXTA TOZALASH ZAVODLARINI QURISH, MODERNIZATSIYA VA REKONSTRUKSIYA QILISH, TAMIRLASH HAMDA YANGI TEXNOLOGIYALAR BILAN JIHOZLASHNING HOLATI

Mustaqillik yillarida butun O'zbekiston iqtisodiyotida bo'lganidek, paxta tozalash sanoatida ham chuqur o'zgarishlar amalga oshirildi. Malumki, paxta tozalash zavodi paxta xomashyosini qabul qiluvchi korxona qoshida va tashqarisidagi maskanlarda, uni quritish, tozalash, jinlash, chigitlarni linterlash, paxta tolasini, lintni va qo'shimcha mahsulotni presslash bo'yicha ishlab chiqarish sexlaridan hamda ularni istyemolchilarga yetkazgunga qadar saqlaydigan ombor binolaridan iborat keng qamrovli korxonadir. Shu bois tarmoqni qisqa muddatda zamonoviy texnologiya, asbob-uskuna va mexanizimlar bilan taminlash hamda bu vazifalarni bajarishga kirishishdan oldin istiqbolga mo'ljallangan paxta dastur ishlab chiqish zarur edi.

Respublika hukumati tamonidan shunday dastur ishlab chiqildi. Unga ko'ra, paxta tozalash sanoatini texnik qayta qurish va rivojlantirish hamda jihozlash ishlari amalga oshirildi. Qisqa davrda 17 ta paxta tozalash zavodi, shu jumladan Buxoro viloyatida «Jondor», «Galaosiyo», Qashqadaryo viloyatida «Muborak», Namangan viloyatida «Oqtosh», Farg'ona viloyatida «Bog'dod», «Rishton», Xorazm viloyatida «Hazorasp», «Xonqa-shuya-O'zbekiston-Rossiya», «O'zbekiston-Rossiya-Britaniya», Andijon viloyatida «O'qchi», «Shahrixon», Tashkent viloyatida «Yangiyo'l» va boshqa paxta tozalash zavodlari qurib ishga tushirildi.

Shundan to'rtta paxta tozalash zavodi shaharlar xududidagi yopilgan korxonalar o'rnida qad rostladi. Aholi zich joylashgan shaharlarda ekologik ahvolni yaxshilash maqsadida 21 ta paxta tozalash zavodi tejamli, ixcham texnologiya bilan taminlangan holda qayta jihozlandi 1993-2005 yillarda mustaqillikka qadar paxta tozalash zavodlarida foydalanib kelingan uskuna va jihozlarning ko'pchiligi yangilandi. Tarmoqqa ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni taminlovchi, eng kam energiya istyemol qiluvchi, tez moslashuvchan, kam chiqim texnologik jarayonlar va uskunalarni ishlab chiqish hamda tatbiq etishga kirishildi. Maqsad eng optimal texnika, kamxarj texnologik jarayonlar qo'llanilgan paxta xomashyosini qayta ishlash texnologiyalarini tanlash hisobiga mahsulot tannarxini kamaytirishdan iborat edi.



Buxoro paxta tozalash korxonasi



Ma'muriy-maishiy bino

Turli texnologik sxemalarni, baza hisoblanganlarni ham qo'shganda, asosiy ko'rsatkichlarning (material va energiya sig'imi sarfi, ekspluatatsiya xarajatlari, jarayonlarning ixchamligi, unga xizmat ko'rsatish asosiy fondlarining eskirishi va hakazo) texnik iqtisodiy tahlili natijasida uning eng optimal varianti tanlandi va u paxta tozalash korxonalarining harakatdagilarini rekanstruksiya va modernizatsiya qilishda hamda yirik shaharlarda yopilayotganlarini o'rniga qurilayotganlarida foydalanildi.

Jumladan, 53 ta paxta tozalash korxonasini (1-jadval), shu jumladan, 15 ta paxta tozalash korxonasini shaharlar xududi doirasidan ekologik mulohazalar va xomashyo ishlab chiqaruvchilarga (paxta yetishtiruvchilarga) yaqinlashtirish maqsadida chiqarib, bosqichma-

bosqich rekonstruksiya qilish tegishli dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishga asos qilib olindi. (Texnologik asbob - uskunalarining ayrim qismlari almashtirilgan paxta tozalash korxonalari bu hisobga kirmagan.)

Rekonstruksiya qilinayotgan korxonalarning paxtani qayta ishlash texnologiyasi quyidagi asbob-uskunalarining qo'llanilishini nazarda tutadi:

- gazda ham suyuq yonilg'ida ham ishlay oladigan IICH-1,9 teplogeneratorlik 2SB-YU yoki SBO quritgich;
- 1XK tozalagichlari ulangan UXK paxta tozalash agregati;
- 1VP tola tozalagichli ikkita 4DP-130 jinlik batareya;
- sakkizta 5LP linterlik batareya;
- namlikni 1,5-2,5% taminlovchi, tolani namlovchi samarali sestemasiga ega, ikkita B 8237 pressi.

Paxta xomashyosini rekonstruksiya qilingan paxta tozalash zavodida qayta ishlash texnologiyasi qo'ydagicha amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda paxta xomashyosini quritishda quritishning konvektiv usuliga asoslangan quritgichlardan foydalaniladi.

Quritish barabanlarini issiqlik bilan odatda suyuq yoki gaz holatidagi yonilg'ida ishlaydigan issiqlik generatorlari orqali taminlanadi. Oxirgi yillarda quritish agentini ishlab chiqarish uchun tabiiy gaz bilan bir qatorda pech hamda dizel yonilg'isi yoki kerosinda ham ishlaydigan universal issiqlik generatorlaridan foydalanish tatbiq etilmoqda.



Tolani preslash uchun DB-8237 rusumli press uskunasi

1-jadval.

**1993-2005 yillarda rekonstruksiya qilingan, shu jumladan
shaharlar hududlardan tashqariga olib chiqilgan paxta tozalash
korxonalari ro'yxati**

№	Xududlar	soni	Shaxarlar xududidan tashqariga chiqarilgan paxta tozalash korxonalari		Rekonstruksiya qilingan paxta tozalash korxonalari	
			nomlari	Foydala nishga topshirilgan yili	nomlari	Foydalan ishga topshirilgan yili
1	2	3	4	5	6	7
1	Qoraqalpogʻiston Respublikasi				Beruniy	1999
					Ellikqala	2000
					Turtkoʻl	2001
					Qungʻirot	2001
Jami:		4			4	
2	Andijon viloyati		Andijon-3	1995	Andijon-1	2002
			Uqchi	1997	Asaka-2	2002
			Shahrixon	2004	Xoʻjaobod	2002
					Chinobod	2002
					Boʻz	2002
					Soʻfiqishloq	2002
					Poytugʻ	2003
					Qoʻqonqishl oq	2003
Jami:		11	3		8	
3	Buxoro viloyati		Buxoro	2004	Kogon	2001
			Gʻijduvon	2002		
			Jondor	1998		
			Vobkent	1999		
			Olot	2003		
Jami:		6		5	1	
4	Jizzax viloyati				Doʻstlik	2004
Jami:		1			1	

5	Qashqadaryo viloyati		Muborak	1998	Kasbi	2004
					Shahrisabz	2003
						2003
						2004
Jami:		3	1		4	
6	Navoiy viloyati		Navbahor	2004	Navoiy	2002
					Qiziltepa	2004
Jam i:		3	1		2	
7	Namangan viloyati				Norin	2004-2004
					Kosonsoy	
Jami:		2			2	
8	Samarqand viloyati				Yangiqo‘rg‘on	2005-2003
					Zirabuloq	
Jami:					2	
9	Surxondaryo		Guliston	2003	Xayrabod	2004
Jami:		2	1		1	
10	Sirdaryo viloyati				Baxt	1999
					Paxtaobod	1999
					Sardoba	2005
Jami:		3			3	
11	Toshkent viloyati		Yangiyul	1997	Chinoz	2003
					Alimkent	2002
					Qorasuv	2003
					Oqqo‘rg‘on	2003
					O‘zbekiston	2004
					Piskent	1997
Jami:		7	1		6	
12	Farg‘ona viloyati		Bog‘dod	1993	Qo‘qon-2	2003
			Rishton	1997	Beshariq	2004
Jami:		4	2		2	
13	Xorazm viloyati				Yangibozor	2004
Jami:		1			1	
Respublika bo‘yicha jami		53	15		38	

Texnologiyalarni rekonstruksiyalash natijasida paxta tozalash korxonalari xududidagi texnologik bo'g'inlarning tarqokligiga barham berildi, paxta xomashyosi va tolasining pnevmotransport sistemasi

uzunligi qisqartirildi, buni korxonalardagi ekologik (rekonstruksiya qilingan) paxta tozalash korxonalari misolida ko‘rish mumkin.

2-jadval.

Buxoro paxta tozalash korxonasini shahar xududi doirasidan tashqariga olib chiqishdan kelgan iqtisodiy samaraning umumlashtirilgan ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Ulchov birligi	Ko‘rsatkichlar o‘lchamlari	
		Avval	Keyin
Sarflangan xarajatlar (K1, K2)	Mln. so‘m	3243,0	2807,0
Ekspluatatsion xarajatlar, jami (S1, S2)	-"	2436,8	1415,2
Shu jumladan. ish haqi	-"	464,6	392,8
Ijtimoiy sug‘urta	-"	144,0	121,8
Elektroenergiya	-"	845,3	332,6
Amortizatsiya	-"	459,6	249,8
Ta‘mirlash	-"	156,8	106,1
Yonilgi	-"	366,5	212,1
Tola sifatini va chiqishini oshirilganini hisobga olgan holda tola narxi	-"	10932,7	11721,9
Tolani sotish narxi oshishidan kelgan samara	-"		789,2
Jamlangan iqtisodiy samara			1876,2

Masalan. Buxoro paxta tozalash zavodini olaylik. Mustaqillik yillarida Buxoro jahon tarixiy madaniy markazlaridan biri sifatida o‘zining ahamiyatini qayta tikladi. Shaharning ko‘plab tarixiy obidalari ta‘mirlandi va qayta tiklandi, ekologiyani sog‘lomlashtirish borasida anchagina ishlar amalga oshirilgan. Paxta tozalash korxonasi shaharning markazida joylashgan bo‘lib, shaharda yangi yaxlit tarixiy markaz barpo etishga xalaqit berar edi. Shu sababli bu eski ishlab chiqarish korxonasini yopish zarurati tug‘ildi. 2001 yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida Buxoro tumanining Galaosiyo qo‘rg‘onida yangi yuqori unumdorli texnologik asbob-uskunalar bilan ta‘minlangan paxta tozalash korxonasi ishga tushirildi. Yangi korxonaning qurilishi shu yerda joylashgan paxta

tayyorlash punkti bazasida 2001 yil paxta hosili xomashyosini qayta ishlash tugatilishi bilanoq boshlanib, shu yilning okyabr oyidanoq mahsulot chiqara boshladi.


Qisqa muddat ichida Galaosiyo qo'rg'onida quritish tozalash sexi, jinlash, linterlash, presslash uchastkalari va tayyor mahsulot maydonchasini ham o'z ichiga olgan yagona ishlab chiqarish korpusi barpo etildi.

Barcha texnologik uskunalarni bir ishlab chiqarish korpusida joylashtirish, yangi texnik vositalar va jarayonlarni tadbqiq qilish quyidagi natijalarga erishish imkonini berdi:

- texnologik asbob-uskuna joylashgan maydonni 50% ga qisqartirish;
- sexdan tashqaridagi va sex ichkarisidagi transport tashuvlarini keskin kamaytirishga imkon berdi (birgina SS-15 rusumli separatorlar soni 8 tadan 1 donagacha kamaydi).
- sex ichidagi texnologik jarayonda qatnashuvchi texnologik mashina va asbob-uskunalar 70 foizga, siklonlar 50 foizga kamayishi ularga bo'lgan xarajatlarni va elektr energiyasiga bo'lgan talabni ancha kamaytirdi;
- tolaning sifatini 65 foizdan 83 foizga ko'tarish imkonini berdi.

Buxoro paxta tozalash korxonasini shahar xududidan tashqariga chiqarish va uni modernizatsiya qilishdan kelgan yillik iqtisodiy samara 1,876,2 mln. so'mni tashkil qildi. Kapital qo'yilma mablag'larining o'zini qoplash muddati 1,5 yilga teng bo'ldi.

Yoki Poytug' korxonasini olaylik. Poytug' paxta tozalash zavodi Andijon viloyatining Izboskan tumanidagi "Poytug'" paxta tayyorlov punkti bazasida 1932 yilda qurilgan bo'lib, quritish sexining 6 ta «Mehnat» tozalagichlari, bir dona 6A12M mayda iflosliklardan tozalagichdan iborat birinchi batareyasi va 6 ta "Mehnat" tozalagichlari va bir dona SCH-02 tozalagichdan iborat ikkinchi batareyasi joylashgan bino jiddiy kapital ta'mirlash talab qiladigan holda edi. Uning ustiga sex korpusidan uzoq bo'lgani sababli, xomashyoni keltirish ko'p elektr energiya talab qiladigan xonaki pnevmotransport yordamida amalga oshirilardi. Paxta tolasini jinlash ZXDDM rusumli 4 ta jinlash mashinasida, tolani tozalash esa ZOVP rusumli uch silindrlik tola tozalagichlarda bajarilardi. Chigitni linterlash esa 5LP rusumli, har bir batareyada oltitadan mashina bo'lgan, uch batareya linterlar orqali, lintni tozalash esa har bir batareya uchun alohida bo'lgan OVM-A-1 tolalik ashyoni tozalagichda amalga oshirilardi.



Paxta tozalash korxonasining ishlab chiqarish bosh binosi

3-jadval.

Poytug' paxta tozalash korxonasini rekonstruksiya qilishdan kelgan iqtisodiy samaraning umumlashtirilgan ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Ko'rsatkichlar o'lchamlari	
		Avval	Keyin
Sarflangan xarajatlar (K1, K2)	Mln.	1100,0	1050,0
Ekspluatatsion xarajatlar, jami (S1, S2)	"-	769,3	831,2
Shu jumladan. ish haqi	."	198,1	288,2
Ijtimoiy sug'urta	"-	61,4	89,3
Elektroenergiya	"-	256,1	189,2
Amortizaiiya	"-	108,0	92,5
Ta'mirlash	"-	43,6	39,5
Yonilg'i	"-	102,1	132,5
Tola sifatini va chiqishini oshirilganini hisobga olgan holda tola narxi	"-	10900,0	11667,0
Tolaning sotish narxi oshishidan kelgan	"-		767,0
Jamlangan iqtisodiy samara	"-		712,6

Rekonstruksiya ko'zlangan maqsad 4 tadan tozalash seksiyasi

bo'lgan UXK rusumli 2 ta paxta tozalash qurilmasidan iborat tozalash guruhini bosh korpusga tutash qilib yangidan qurilgan bino ichiga joylashtirish edi.

Uskunalarni bunday joylashtirish jinlarni xomashyo bilan ta'minlash uchastkasida xom ashyo pnevmotransportini lentali transpartyorga almashtirishga va natijada transportirovkada elektr energiyasini tejash imkonini berdi.

Hozirgi paytda paxta xom ashyosini tozalashga uzatish pnevmosistema orqali bajariladigan bo'ldi. Separator tagiga paxta xom ashyosini 2 ta UXK liniyasiga yetkazib beruvchi shnek o'rnatildi.

Jinlash-linterlash sexida jismoniy va ma'naviy eskirib qolgan ZXDDM jinlarining o'rniga 2 ta 1VPU rusumli tola tozalagichli 5DP-130 jinlari o'rnatildi. Shunga mos ravishda xom ashyo va urug'lik chigit yetkazuvchi transport shox yo'nalishlari qaytadan qurildi.

Umuman korxonani rekonstruksiya qilish natijasida quyidagilarga erishildi:

- yangi asbob-uskuna tatbiq etilishi hisobiga tola chiqishining oshishi - 0,7% ga o'sdi
- elektr energiyasi tejalishi - 30% ga
- metall sarfining kamayishi -40% ga
- ishlab chiqarish maydonlarining qisqarishi - 50% ga
- changlangan havo hajmining kamayishi - 70% gacha
- iqtisodiy samara -712,6 mln. so'mga yetdi.
- 1 tonna tola ishlab chiqarishda olingan iqtisodiy samara - 71,5 mln. so'm bo'ldi.
- kapital xarajatlarning qoplanish muddati-1,5 yil

4-jadval.

Respublika paxta tozalash korxonalarida Qayta jihozlash va texnikani tadbiq etish dasturini hamda tashkiliy-tsxnik tadbirlarni amalga oshirishning samarasi

(1994-2005 y.) mln. so‘m

Yillar	Tola chiqishi %	Jami	Shu jumladan				
			Qurilish	Rekonstruksiya	Urug‘chilik sexlari	Eski korxonalar	Standart
1	2	3	4	5	6	7	8
1990-1992 (baza)	30,78						
1994	32,0	77322,3	1178,3			10944,0	65200,0
1995	32,32	82459,1	2356,6			21802,5	58300,0
1996	32,08	78017,6	2356,6			32661 0	43000,0
1997	31,70	70869,1	5891,5	1000,1		43177,5	20800,0
1998	31,71	85271,2	8248,1	1000,1		53523,0	22500,0
1999	31,80	119460,7	10604,7	5000,5		63355,5	40500,0
2000	32,49	157107,8	10604,7	6000,6		73102,5	67400,0
2001	32,70	177598,6	10604,7	9000,9		82593,0	75400,0
2002	32,66	191598,7	11783,0	17001,7		91314,0	71500,0
2003	32,78	216436,7	14139,6	26002,6		99094,5	77200,0
2004	32,81	263641,6	17674,5	36003,6		105763,5	104200,0
2005	33,0	309646,9	17674,5	38003,8	14007,1	112261,5	127700,0
jami	-	1829430,3	113116,8	139013,9	14007,1	789592,5	773700,0
o‘rtacha 1 yilga	32,34	152452,5	9426,4	15446,0	14007,1	65799,4	64475,0
		3215,5	1178,3	1000,1	451,8	85,5	499,8

5-jadval.

Bitta paxta tozalash korxonasini qurishda erishiladigan yillik iqtisodiy samara hisobining jamlangan ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Ko'rsatkichlar darajasi	
		avvali	keyincha
Kapital mablag'lar (K1,K2)	mln.so'm	2352,5	1677,0
Ekspluataiion xarajat-lar, jami (S1, S2)	mln.so'm	1760.8	1339,2
Shu jumladan. ish haqi	mln.sum	506,9	41,8
Ijtimoiy sug'urta	mln.so'm	157,1	127,7
Elektroenergiya	mln.so'm	414,7	299,2
Amortizatsiya	mln.so'm	260,7	145,8
Ta'mirlash	mln.so'm	99,2	62,7
Yonilga	mln.so'm	322,2	292,0
Tolaning sifati va chiqishining oshishi qiymati	mln.so'm	11899,3	12554.7
Tolaning sifati va chiqishining oshishidan olingan samara (P)	mln.so'm		655,4
Jamlangan iqtisodiy samara	mln.so'm		1178,3

Iqtisodiy samara: 1,178,3 mln. so'm

Kapigal mablag'larning qoplanish muddati: 1,4 yil

1994-2005 yillarda 15 ta paxta tozalash zavodini qurish uchun kapital mablag'lar sarfi 25,155,0 mln. so'mni tashkil etdi. Qurish boshlangan yildan to tugallash davrigacha jamlangan iqtisodiy samara (113116,8 mln. so'm) har bir korxona bo'yicha yillik to'plangan iqtisodiy samara hisobi bilan aniqlangan.

**Bitta paxta tozalash korxonasini rekonstruksiya qilishdan erishiladigan
yillik iqtisodiy samara hisobining jamlangan ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Ko'rsatkichlar darajasi	
		avvali	keyincha
Kapital mablaglar (K1,K2)	mln.so'm	1690,0	910,0
Ekspluatatsion xarajatlar, jami (S1, S2)	mln.so'm	1374,7	1095,3
Shu jumladan. ish xaqi	mln.so'm	461,5	403,4
Ijtimoiy sug'urta	mln.so'm	143,1	125,1
Elektroenergiya	mln.sum	278.4	213,4
Amortizatsii	mln.sum	184,9	94,7
Ta'mirlash	mln.so'm	70,8	37,2
Yonilg'i	mln.so'm	236,0	221,5
Tolaning sifati va chiqishining oshishi qiymati	mln.so'm	7809,5	8413,2
Tolaning sifati va chiqishining oshishidan olingan samara	mln.so'm		603,7
Jamlangan iqtisodiy samara	mln.so'm		1000,1

Iqtisodiy samara: 1000,1 mln. so'm.

Kapital mablag'larning qoplanish muddati: 0,9 yil

Umuman 1997-2005 yillarda 38 ta paxta tozalash korxonasini rekonstruksiya qilish uchun kapital mablag'lar sarfi 34580,0 mln. so'mni tashkil etdi. 38 ta paxta tozalash korxonasini 1997-2005 yillarda rekonstruksiya qilish boshlangan yilidan to tugallash davrigacha jamlangan iqtisodiy samarasi (139013,9 mln. so'm) har bir korxona bo'yicha yillik to'plangan iqtisodiy samara hisobi bilan aniqlangan.

Xulosa qilib aytganda, "O'zpxatasanoat" uyushmasi so'ngi yillarda soha korxonalarini texnik jihatdan qayta jihozlash, paxta mahsulotlari bo'yicha respublika standartlarini takomillashtirish, bozor iqtisodiyoti dastaklaridan samarali foydalanish, jahon paxta bozori talablarini

hisobga olgan holda prinsipial jihatdan yangi yondoshuvlar orqali meyoriy-texnik bazani ishlab chiqish doirasida -paxta kompleksi samaradorligini va sohani olg'a suradigan rivojini yuksaltirishga erishishga olib kelgan qator tashkiliy-texnik tadbirlar kompleksini amalga oshirdi:

Birinchidan, 53 ta paxta tozalash korxonasida texnik jixatdan qayta jihozlash dasturi amalga oshiriddi. Ulardan 15 tasi shaharlar xududidan tashqariga olib chiqildi.

Qolgan 38 ta paxta tozalash korxonalarining egallab turgan maydonlari 2 barobar kamaydi, paxta xomashyosini qayta ishlash texnologik jarayonini ta'minlovchi texnologik mashinalar soni 50 - 60 foizga qisqardi, tola chiqishi va uning sifatini oshishi bilan bir qatorda metall sarfi va elektroenergiya iste'moli tegishli 70 va 30 foizga kamaydi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 2004 yil 23 dekabrda 604-sonli qaroriga binoan "O'zpaxtasanoat" uyushmasi va "Raxta tozalash IICHB" tomonidan respublika mintaqalarida ekin materialini zamonaviy tenologiyalarda tayyorlashni ta'minlovchi paxtaning urug'lik chigitini tayyorlash sexlari bor ixtisoslashgan paxta tozalash korxonalarini qurish va modernizatsiya qilish dasturi ishlab chiqildi. 2005 yil 25 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlangan 2005-2006 yillarga mo'ljallangan Dasturni bajarish doirasida 31 ta ixtisoslashgan paxta tozalash korxonasi qurilib, ishga tushirildi. 2005 yilda 13 ta shunday ixtisoslashgan sexlar foydalanishga topshirilib, ular 2006 yil ekish kompaniyasi uchun yuqori kondensiyali urug'lik materialini tayyorlab berdi.

Natijada paxta yetishtiruvchi xo'jaliklar gektariga urug'lik chigit sarfini 10-15 %ga kamaytiruvchi yuqori sifat ko'rsatkichiga ega urug'lik chigit oldi va yiliga 50-60 ming tonna urug'lik fondini tejab qoldi. Belgilangan tadbirlarni amalga oshirishga sarflangan kapital mablag'lar 24850,0 mln.so'mni, jamlangan iqtisodiy samaradorlik 14007,1 mln. so'mni, xarajatlarni qoplash muddati 1,8 yilni tashkil etdi.

Uchinchidan, shahar xududidan tashqariga chiqarilgan paxta tozalash korxonalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, urug'lik chigit tayyorlash sexlarini qurish va modernizatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tadbiq etish hisobiga yiliga 12048,0 mln. so'mlik 37,7 ming tonna yonilg'i, 161662,7 mln. so'mlik 1442680,2 ming kVt elektr energiyasi tejab qolinmoqda.

Ishchi-xizmatchilar soni 6,0 ming kishiga qisqarib, uning hisobidan 150751,3 mln. so'm oylik ish haqi tejaldi va hakozi.

To'rtinchidan, istiqloq yillarida erishilgan natijalar hisobiga O'zbekiston paxtasining reytingi va uning jahon bozorida raqobatbardoshligi ma'lum darajada oshdi. Bu uni samarali sotish va xalqaro savdoning boshqa turlarini-birja savdolari hamda konsignatsion terminallarni rivojlantirishga yo'l ochdi.

PAXTA TOZALASH SANOATIDA ISLOHOTLARNI YANADA CHUQURLASHTIRISH VA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH

Paxtachilik va u bilan bog'liq paxta tozalash sanoati samaradorligini yuksaltirish, paxta tolasining hajmini oshirish va sifatini yaxshilash O'zbekiston uchun iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan bo'lgan to'qimachilik, tikuvchilik kabi yengil sanoat sohalarini rivojlantirishning muhim shartlaridan hisoblanadi. Zero, bu sohalarga mablag' sarflash eng samarali, foydali va istiqbolli bo'lib, tezda o'zini oqlaydi.

Buning uchun O'zbekistonda yetarli imkoniyat bor. Xususan, paxta bor. U bizning asosiy boyligimiz. Bu hammaga yaxshi malum. "Bugun Markaziy Osiyo ikki million tonnaga yaqin paxta tolasini yetishtirayotgan bo'lsa, shuning 1,5 million tonnasi O'zbekistonga to'g'ri keladi".¹

Bundan xulosa shuki, endilikda paxtaning hisob-kitobi yalpi yetishtirilgan hosil bilan emas, balki undan olinadigan tola bilan o'lchanadi. Demak, paxta birlamchi xom ashyo bo'lsa, tola ikkilamchi, sanoat uchun muhim xom ashyodir. Navbatdagi vazifa esa undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishdir.

Shu manoda, mamlakatimiz oldida turgan asosiy masala, bu tayyorlanayotgan paxta tolasining katta qismini shu yerning o'zida qayta ishlashdan iborat. Ayni shu maqsadda, respublika hukumati tomonidan paxta tozalash sanoatini texnik jihatdan jihozlashning uzoq muddatli dasturi ishlab chiqildi.

Xususan, uning 2006-2010 yillarga mo'ljallangan bosqichida paxta tozalash zavodlaridagi barcha texnologik jarayonlarni yangi istiqbolli asbob-uskunalar bilan jihozlash ishlari boshlab yuborildi. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- kamida 40 ta paxta tozalash zavodini rekonstruksiya qilish, ularning bir qismini shahardan chetga chiqarish, shu yo'l bilan

¹ I.A.Karimov. O'zbekiston: Milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild-T.:1996 y., 251 bet

- shaharlarda ekologik vaziyatni yaxshilash, qishloq joylarda odamlarni ish bilan taminlash

- paxta tozalash zavodlari qoshida yangi 18 ta urug'lik paxta chigitlari tayyorlash sexlarini qurish va ularni modernizatsiya qilish orqali paxta navini yaxshilab, tola sifatini yaxshilash:

- tarmoqning meyoriy-texnik bazasini takomillashtirish va jahon bozorida O'zbekiston paxtasining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ishlarni davom ettirish;

- paxta tozalash zavodlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni hamda paxta xom ashyosini yetishtiruvchilar bilan uni qayta ishlovchidar o'rtasidagi munosabatlarni va o'zaro hisob-kitob mexanizmlarini ularga xizmat qiluvchi banklar ishtirokida takomillashtirishni davom ettirish;

Dasturda belgilangan bu vazifalar hal etilsa. quyidagilarga erishish mumkin bo'ladi: Birinchidan, Qoraqalpogiston Respublikasi, Qashqadaryo, Surxandaryo, Xorazm, Farg'ona, Samarqand, Navoiy viloyatlaridagi qator shaharlar xududi havosi tozalandi. Ikkinchidan, 1992-2004 yillarda rekonstruktsiya qilingan 38 ta paxta tozalash zavodlarida texnologik asbob-uskuna va mexanizmlar yanada zamonaviyroqlariga almashtirildi. Uchinchidan, qishloq joylarda yangi ish o'rinlari yaratildi va to'rtinchidan, xom-ashyoni tashish va dastlabki qayta ishlash sarf xarajatlari kamaydi.

Bundan tashqari, 2006-2010 yillarda tarmoqni rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida:

- tolaning chiqishi 33,2 foizgacha ko'paydi
- yuqori sifatli ("oliy" va "yaxshi") paxta tolasining ulushi umumiy tola miqdorida 3 foizga oshirilib. 80 foizga yetkazildi.

- tarmoqda ekspulatatatsiya xarajatlarini kamaytirish va paxta hosilini qayta ishlash muddatlarini qisqartirish hisobiga paxta tolasini ishlab chiqarish tannarxi 5-6 foizga pasaytirildi. Bunda kutilayotgan iqtisodiy samara ishlab chiqarilgan tolaning jahon bozoridagi sotish narxining oshishi hisobiga tolaning har tonnasiga kamida 50-60 ming so'mni tashkil etadi.

Umuman olganda, paxta tozalash sanoatini rivojlantirishning 2010 yilgacha va undan keyingi yillardagi istiqboliga ko'ra zavodlarni rekonstruktsiya qilishdan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 29,9 milliard so'mni, kapital quyilmalar - 43,5 milliard so'mni, xarajatlarning qoplanish muddati esa 1,45 yilni tashkil etadi.

Shuningdek, tarmoqni yangilash va modernizatsiya qilishning

istiqbolli rejasida yana quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- energiya vositalariga ehtiyojini quritish agentining retsirkulyatsiyasi hisobiga 30 foizga kamaytirish va samarali tozalovchi ikkita 1XK tozalagichli quritish-tozalash agregati o'rnatish;

- xom ashyo quritgichlari uchun ham suyuq yonilg'i, ham gazda ishlaydigan quvvati oshirilgan universal IICH-1,9 rusumli issiqlik generatorlarini o'rnatish; Hozirgi kunda bunday generatorlar bilan 20 foiz quritgichlar jihozlangan;

- o'zaro bevosita birlashtirilgan yangi APT-12 rusumli arrali tozalagich va undan tez yemiriluvchi elementlar olib tashlanishi natijasida metall va energiya sarfini mos ravishda 2,2 va 1.5 marotaba kamaytirilishi, unumdorligini soatiga 12 tonnaga oshishi hisobiga ishonchli ishi taminlanadigan modernizatsiya qilingan 1XK rusumli qiya tozalagichlardan iborat paxta tozalash agregatlarini o'rnatish;

- jinlashning istiqbolli texnologiyasini yaratishda 5DP-130 rusumli arrali jinning ayrim ishchi organlari va uzellarini yanada takomillashtirilgan bazaviy konstruksiyasidan foydalanish;

- tola tozalash jarayonining keyingi rivojlanishi, qayta ishlanadigan paxta xom ashyosining sanoat navidan hamda dastlabki ifloslanganlik darajasidan kelib chiqib tozalash karrasini amalga oshirishga imkon beradigan tola tozalagich konstruksiyalarini yaratish hisobiga, amaldagi tola tozalash prinsiplarini takomillashtirish tomoniga yo'naltirish;

- namlash joyiga bevosita yaqinlikda joylashgan hamda baravariga bir necha nuqtaga namlik yetkazib berish qobiliyatiga ega xom ashyo va tolani namlab beruvchi avtomatlashtirilgan kichik hajmli va kam inersiyali NAICH tipidagi namlagich apparatlarini yaratish. Shu va boshqa tadbirlar amalga oshirilsa, avvalo yangi yoki qayta tamirlangan texnika va texnologiyalardan foydalanish koefitsenti oshadi, ularning paxta xom ashyosiga ratsionalroq tasiri hisobiga chiqqan paxta tolasining sifati yuqorilashib, uning raqobatbardoshligi va mos ravishda narxi ham oshadi.

- paxta mahsulotlarining nobudgarchiligi kamayadi, tola chiqishi jinlash jarayonida 0,2 foizga oshadi. Ishlab chiqarish uchun band maydon 2 baravardan ortiqroq qisqaradi hamda materiallar soni kamayadi;

- 1 tonna paxta tolasini ishlab chiqish uchun elektroenergiya sarfi 20-30 foizga kamayadi;

- presslash oldidan tola namligi zarur meyorga yetkaziladi va

natijada jahon bozorida uni sotishdan tushadigan tushum ortadi;

- havoga uchayotgan chang va chiqindilar kamayishi hisobiga ish joylaridagi sanitariya-gigienik sharoitlar va atrof-muhit ekologiyasi yaxshilanadi;

- korxonalarda texnika xavfsizligi yaxshilanadi va ishlab chiqarishda shikastlanish hollari kamayadi.

Malumki, paxta tolasidan sifatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish uchun, avvalo paxta urug'chiligini yaxshilash lozim. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 23 dekabrda «Paxta urug'chiligini tashkillashtirishni takomillashtirish choralari to'g'risida» chiqargan 604-sonli qarori, ayni shu maqsadga qaratildi.

Mazkur qarorga ko'ra, 2005-2006 yillarda "O'zpaxtasanoat" uyushmasiga qarashli 31 ta paxta tozalash zavodini urug'lik chigit tayyorlashga ixtisoslashtirish belgilandi. Bular: Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy, Mang'it, Xalqabod, Andijon viloyatining Andijon-3, So'fiqishloq, Buxoro viloyatining G'ijduvon, Qorako'l, Jizzax viloyatining OAO "Elita", Qashqadaryo viloyatining Koson, Qamashi, Beshkent, Navoiy viloyatining Navoiy, Qiziltepa, Namangan viloyatining O'ychi, Chust, Samarqand viloyatining Zirabuloq, Juma, Miton, Surxondaryo viloyatining Xayrabod, Jarqo'rgon, Angor, Sirdaryo viloyatining Malik, Baxt, Toshkent viloyatining Alimkent, Chinoz, Bo'ka, Farg'ona viloyatining Qo'qon-2, Toshloq, Xorazm viloyatining Qo'shko'pir, Xanqa, Hazorasp paxta tozalash zavodlari bo'lib jami 31 ta.

2005 yil davomida shulardan 13 tasi, yani Beruniy, Andijon-3, G'ijduvon, OAO «Elita», Koson, Navoiy, Uychi, Zirabuloq, Xayrabod, Miton, Alimkent, Qo'qon-2, Qo'shko'pir zavodlarida urug'lik chigit tayyorlovchi sexlar qurib ishga tushurildi.

Qolgan 18 ta paxta tozalash zavodida esa bu ishlar 2006 yilda amalga oshirildi. Bunday ixtisoslashtirilgan paxta tozalash zavodlarida urug'lik chigitni saralovchi, kalibrovka qiluvchi va dorilovchi zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan sexlar modernizatsiya qilindi.

Vazirlar Mahkamasi qarorida, shuningdek nafaqat ushbu korxonalarni jihozlanganligi hisobga olingan, balki mintaqalarda ularning eng kam transport xarajati bilan joylashuvi ham ko'zda tutilgan.

Shunday qilib, paxtaning urug'lik chigitini tayyorlashda modernizatsiyalashgan sexlardan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni birmuncha oshirdi.

Qisqa qilib aytganda, urug‘lik chigitni tayyorlash sexlarini modernizatsiyalash dasturining qiymati 24,85 mlrd. so‘mni, sexlarni modernizatsiya qilishdan yillik iqtisodiy samaradorlik 14,0 mlrd. so‘mni, sarflangan kapital mablag‘larni qoplash muddati 1,8 yilni tashkil etdi. Amalga oshirilgan tadbirlarning texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlari 11 jadvalda keltirilgan.

Tarmoqni texnik jihatdan qayta jihozlashdan tashqari uning rivoji ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligiga, sanoat meyoriy-texnik bazasining doimiy takomillashib borishiga hamda shu sohaning paxta kompleksi tizimi va paxta istemolchilari bilan mavjud bo‘lgan o‘zaro munosabatlar sistemasini qulaylashtirilishiga ham bog‘liq.

7-jadval.

31 ta paxtaning urug‘lik chigitini tayyorlash sexlarini qurilishidan keladigan yillik iqtisodiy samaraning jamlangan ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Ko‘rsatkichlar darajasi	
		Mavjud sexlarda	Yangi sexlarda
Kapital mablag‘lar (K1, K2)	Mln.so‘m	14937,7	24850,0
Ekspulatsion xarajatlar, jami (S1, S2)	Mln.so‘m	7509,4	7251,7
Shu jumladan: ish haqi	Mln.so‘m	568,3	675,4
Ijtimoiy sug‘urta	Mln.so‘m	176,2	209,4
Elektroyenergiya	Mln.so‘m	878,1	744,5
Amortizatsiya	Mln.so‘m	1949,9	2174,4
Tamirlash	Mln.so‘m	3936,9	3447,8
Chigit sifatini oshirishdan kelgan samara	Mln.so‘m		15236,3
Jamlangan iqtisodiy samara	Mln.so‘m		14007,1
O‘rtacha 1 ta korxona bo‘yicha	Mln.so‘m		451,8

Bu masala birinchi navbatda paxta xom ashyosi va paxta tolasiga qo‘yiladigan texnik talablarni belgilovchi asosiy meyoriy-texnik hujjatlarga tegishli. Chunki paxta xom ashyosini qayta ishlash asbob uskunalari va texnologik reglamentlari ham ularning bazasiga tayangan holda ishlab chiqariladi.

1994-1995 yillargacha respublikada sobiq SSSRning quyidagi davlat standartlariga amal qilinib kelindi;

- GOST 16298-81 “Mashina terimi paxta xom ashyosi. Texnik shartlar”;

- GOST 10202-71 “Qo‘l terimi paxta xom ashyosi. Texnik shartlar”;

- GOST 3279-76 “Paxta tolasi. Texnik shartlar”.

Bu hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining jahon bozorida mustaqil siyosat yurgiza boshlagani va yetishtirilayotgan xom ashyo strukturasining o‘zgarishi munosabati bilan tubdan qayta ko‘rib chiqilishni talab qilar edi.

Zero, mustaqillik yillarida paxta ekin maydonlarining keskin qisqarishi va paxta xom ashyosi ishlab chiqarish yillik hajmlarining kamayishi sababli qo‘l terimi va mashina terimining o‘zaro nisbati o‘zgarib, qo‘l terimining salmog‘i 90 foizdan oshib ketdi. Bu holat o‘z navbatida xom ashyo sifatiga ijobiy tasir qildi.

Paxta xom ashyosi sifatining yaxshilanishi, soha korxonalarida boshlangan modernizatsiyalash jarayonlari va amaldagi standartlarni tubdan o‘zgartirish ustidagi ilmiy-texnik izlanishlar RST O‘z 615-94 “Paxta xom ashyosi. Texnik shartlar” nomli yangi respublika standarti ishlab chiqilishiga va joriy etilishiga imkon berdi. Natijada:

1. Bu standartda paxta xom ashyosining ham qo‘l va ham mashina terimiga bo‘lgan asosiy talablar yagona umumlashtirilgan holga keltirilgan bo‘lib, ular bo‘yicha xom ashyo rangi hamda yetilganligiga ko‘ra besh navga va har bir nav undagi chiqindi miqdoriga ko‘ra uch sinfga ajratiladigan bo‘ldi.

2. Joriy etilayotgan paxta xom ashyosini tozalash va qayta ishlash texnologiyasi imkoniyatlaridan yanada to‘laroq foydalanish hisobiga 1-2 nav paxta tolasining, uning sifatiga (klassi) ga zarar yetkazmagan holda, undagi chiqindilarning hisob meyorini (0,5-1,0%dan 2% gacha) va namligini (8% dan 9% gacha) o‘zgartirish imkoni tug‘ildi.

Paxta xom ashyosining ifloslanish va namlik hisob meyorlarining bunday o‘zgartirilishi paxta yetishtiruvchi xo‘jaliklarning konditsion og‘irlikka hisoblanib topshirilayotgan paxta xom ashyosi narxiga sezilarli qo‘shimcha berdi.

Quyida 2004-2005 yillarda paxta xom ashyosi hosili uchun amalga oshirilgan o‘zaro hisob-kitoblar (12 jadval) misolida paxta yetishtiruvchi xo‘jaliklar uchun eski standartlarga nisbatan o‘zgartirilgan meyorlar hisobiga berilgan qo‘shimcha to‘lov miqdorlari keltirilgan.

Natijada xo‘jaliklar 2004-2005 yillar hosili bo‘yicha birinchi va ikkinchi nav paxta xom ashyosini narxi oshganligi hisobiga qo‘shimcha 35,6 mlrd. so‘m haq olishdi va shu bilan o‘z moliyaviy ahvollarini yaxshilab olishdi.

Yangi standart joriy qilingan 1994 yildan boshlab o'tgan davr ichida xo'jaliklar olgan qo'shimcha mablag' miqdori 155,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Respublika "Paxtasanoat" Ilmiy Markazida, keyinchalik "Sifat" uyushmasining sertifikatasi bo'yicha boshqarmasida paxta tolasining jahon klassifikatsiyasi va xalqaro paxta savdosi amaliyoti bo'yicha olib borilgan jiddiy izlanishlar va chuqur tahlillari natijasida paxta tolasini uchun GOST 3279-76 o'miga yangi RST O'z 604-93 "Paxta tolasini. Texnik shartlar" standarti ishlab chiqildi va joriy qilindi.

8-jadval.

2004-2005 yillarda paxta xom ashyosi narxlarining namlik va ifloslanish hisob meyorlarini o'zgartirilishi e'tiborga olingan holda keltirilayotgan solishtirma ma'lumotlar (RST Uz 615-94 bo'yicha)

Hisob meyorlari,%				Tayyorlangan paxta xom ashyosi xosilining hajmi va assortimenti ming. tn		Xo‘jaliklarga to‘lanadigan paxta xom ashyosining solishtirma qiymati, mln. sum					
RST Uz 615-94 standart bo‘yicha		yilgacha bo‘lgan standart bo‘yicha				2004 yil hosili			2005 yil hosili		
ifloslanganlik	namlik	ifloslanganlik	Namlik	2004 yil	2005 yil	2005 yil RST O‘z 615-94 standarti	1994 yilgacha bo‘lgan standart	Qiymatidagi farq	2005 yil RST O‘z 615-94 standarti	1994 yilgacha bo‘lgan standart	Qiymatidagi farq
2.0	9.0	0.5	8.0	2632.8	2818.1	766697.7	748211.8	18485.8	820658.9	800872.0	19786.9
2.0	9.0	1.0	9.0	352.1	409.8	88557.6	87557.6	893.4	102945.9	101906.0	1039.9
2.0	9.0	1.9	11	198.7	208.4	39859.8	40549.8	-690.0	43789.0	44547.0	-758.0
2.0	9.0	3.6	13	127.1	144.4	17339.0	18273.6	-934.6	19699.0	20760.9	-1061.9
2.0	9.0			155.4	129.6	11272.2	11985.2	-613.0	9484.1	9995.4	-511.2
				3457.1	3710.3	92372.0	90657.8	-17141.6	996577	978081	18495.6

O'zbekiston Respublikasining jahon paxta bozorida eksport hajmi bo'yicha yetakchi o'rindiligini hisobga olib, tola sifatini aniqlashda xalqaro klassifikatsiyaga iloji boricha (maksimal) yaqinlashtirilgan yangi klassifikatsiyaga o'tish mamlakatimizga valyuta tushumini keskin oshishini va jahon paxta bozorida uning o'ziga loyiq o'rini egallashini ta'minladi.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi Liverpool, Bremen, Gdansk xalqaro paxta (assotsiatsiyalarining) uyushmalarining a'zosidir. O'zbek tolasining tashqi ko'rinishi etalonlari yuqoridagi uyushmalarda alohida ro'yxatga kiritilgan va sotuvchi hamda ta'minotchilar orasida ba'zi-bir nizolar kelib chiqqanda na'muna sifatida qabul qilingan.

Shu sababli, 2004 yildan boshlab, jahon paxta bozorida keng qo'llanilayotgan ancha ilg'or sistema, ya'ni har bir paxta toyini alohida sertifikatlash sistemasi joriy qilindi. Bu sistema tola sifatini ancha aniq baholash, tolani nisbatan bir tekis tiplar (lotlar)ga komplektlash, uning narxini belgilash va xaridorlar bilan o'zaro hisob-kitoblarni soddalashtirish imkoniyatlarini berdi.

Bu masala soha tuzilmalari va "Sifat" markazi tomonidan tashqi savdo kompaniyalari va chet el treyderlari bilan birga olib borilgan faoliyat, qisqa davr ichida sohaning jahon paxta bozorida muhim o'rin egallashiga va avvalgi sifat baholash sistemasiga qaraganda tolani ancha katta foyda bilan sotilishini ta'minlashga yo'l ochdi.

2000-2005 yillar hosili misolida ko'rinadiki, birinchi nav paxta xom ashyosining umumiy hajmdagi salmog'i 71,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1990 - 1992 yillarda bunday ko'rsatkich 35,01 foiz (eski klassifikatsiyada) bo'lgan, ya'ni birinchi nav hajmi 36,69 foizga oshgan. Bundan paxta tozalash zavaodlari salmoqli foyda olishdi.

2001 yilgacha amal qilib kelinayotgan paxta tolasini yetkazib berish mexanizmi (tartibi) eksport hajmi katta bo'lgan sharoitda (yiliga 800-1000 ming tonnagacha) quyidagi sezilarli kamchilik va noqulayliklarga ega edi:

- mahsulotni yuklash 128 ta korxona tomonidan 70 dan ortiq jo'natish stansiyalarida amalga oshirilardi;
- yuklov hujjatlarini rasmiylashtirish (tolani sertifikatlash, deklaratsiya qilish, kelib chiqish sertifikatini va bojxona rasmiylashtirishi va h.k) ko'p vaqt va mehnat talab qilardi;
- paxta tolasini saqlash yoki jo'natish joyida (paxta tozalash korxonalari yoki bazalarida) xaridor tomon vakillarining bo'lmasligi, ular tomonidan, ayniqsa xorijiy firmalardan ko'plab

e'tirozlar tug'ilishiga va ularni ko'rib chiqish uchun paxta tozalash korxonalari o'z vakillarini portlarga jo'natishga majbur bo'lishiga olib kelardi.

Paxta mahsulotlarini yetkazib berish mexanizmini soddalashtirish va paxta tozalash korxonalarini ularga xos bo'lmagan vazifalardan ozod etib, asosiy vazifa bo'lgan ishlab chiqarish dasturlarini bajarishga e'tiborini ko'proq qaratish maqsadida uyushma o'z sohasida mavjud bo'lgan omborlar bazasida paxta mahsulotlari terminallari tashkil etish masalasini bir necha bor ilgari surdi.

Natijada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 12 iyundagi 252-sonli qaroriga ko'ra soha tizimini o'zgartirish bilan birga Tashqi Iqtisodiy aloqalar vazirligi ixtiyorida respublikaning har bir xududida paxta mahsulotlarining konsignatsion terminallarini tashkil etish boshlandi.

Hozirgi paytga 300 ming tonna paxta tolasini umumiy saqlash imkoniyati bo'lgan 20 ta terminal muvoffaqiyatli faoliyat ko'rsatib kelmokda. Bu terminallarning tashkil etilishi paxta tozalash korxonalariga paxta xom ashyosini yanada samarali qayta ishlash va ishlab chiqarilayotgan tola sifatini oshirishga ahamiyat-larini kuchaytirish imkonini berdi.

Hozirgi sharoitda paxta tozalash korxonalarining o'z mahsulotini jo'natish bo'yicha vazifasi uni sertifikatlab, paxta terminaliga yetkazib berishdangina iborat bo'lib qoldi. Qolgan vazifalar, ya'ni tushirib olish, saqlash, jo'natishga tayyorlash va yuklab jo'natish ishlari terminal xizmatiga o'tdi.

Barcha tegishli rasmiy jarayonlarni soddalashtirish va yengillashtirish maqsadida terminallarda zarur xizmatlar: ya'ni bojxona xizmati, O'zbek "Sifat" Markazi vakolatxonasi, deklaratsiya xizmati, vagonlarga buyurtma berish va tayyorlash xizmati va h.k. joylashtirilgan.

Shunday qilib, paxta tozalash sanoati istiqbolda yanada rivojlanadi. Nabatdagi vazifa yuqoridagi bob va paragraflarda ta'kidlab o'tganimizdek, tarmoqning imkoniyatlaridan keng foydalanib mamlakatimiz iqtisodiyotining u bilan bevosita bog'liq tarmoqlarini ham rivojlantirishdan iborat.

Asosiy maqsad o'zimizda yetishtirilayotgan paxta tolasining katta qismini, aniqroq aytganda 60-70 foizini shu yerda qayta ishlab undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishdir. Bunda shunga erishish kerakki, O'zbekistonni jahon bozoriga paxta tolasini xom ashyo sifatida

chiqaradigan davlatdan yarim tayyor va tayyor mahsulotlar chiqaridigan mamlakatga aylantirish.

Buning uchun tarmoqqa va boshqa sohalarga xorijiy investitsiyalar hamda ichki resurslarni ko'proq jalb etish, xorijiy mamlakatlar yetakchi firma va kompaniyalari bilan qo'shma korxonalar qurish, ularni eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlashni davom ettirish lozim bo'ladi.

Avvalo, bu yo'nalishda erishilgan yutuqlarni mustaxdamlash kerak yoxud to'qimachilik, yengil, tikuvchilik, trikotaj kabi sanoat tarmoqlarini jadal rivojlanishini ta'minlash, qo'shma korxonalar qurishni yanada kengaytirish lozim.

Mustaqillik yillarida Janubiy Koreya, Yaponiya, Shveysariya, Germaniya, Turkiya kabi davlatlar bilan 80 dan ortiq shunday korxonalarning qurilishi natijasida respublikamiz yengil sanoatida o'sish sur'atlari sezilarli darajada oshdi.


Masalan, 2005 yilda yengil sanoatda 2004 yilga nisbatan 12 foiz o'sishga erishildi. Bu ko'rsatkich to'qimachilikda-17, tikuvchilikda - 24,5, trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishda - 53 foizni tashkil etdi.¹

Natijada shu yili paxta tolasini birlamchi (ip, kalava) va ikkilamchi (tayyor mahsulot) qayta ishlab chiqarish hajmi sobiq ittifoq davridagi 6-8 foizdan 30-32 foizga yetdi. Birgina 2004 yilning yanvar-mart oylarida umumiy qiymati 50 million AQSH dollariga teng bo'lgan 5 ta qo'shma to'qimachilik korxonasi qurilib ishga tushirildi.

2010 yilgacha bunday paxtadan tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi to'qimachilik, tikuvchilik va trikotaj korxonalari soni kamida 100 taga yetib respublikada tayyorlanayotgan paxta tolasidan tayyor mahsulot ishlab chiqarish 2 barobar oshdi.

¹ «Xalq so'zi», 2006 y., 11- fevral.

Xududlar bo'yicha 2011 yilda paxta tolasini qayta ishlash darajasi



Bu dasturiy vazifalar amalga oshirilib, 2012 yilda O‘zbekistonda quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning bir qismi hal etildi:

Birinchidan, aholining, shu jumladan yoshlarning katta qismi ish bilan taminlandi;

Ikkinchidan, paxta tolasi, haqiqatdan milliy boylikka aylanib, mamlakat byudjetini qattiq valyuta bilan to‘ldiruvchi kuch-qudrat manbaiga aylandi;

Uchinchidan, O‘zbekiston chetga xom ashyo chiqaruvchi mamlakatdan tayyor mahsulot chiqaruvchi mamlakatga aylanib bormoqda;

To‘rtinchidan, xalq turmush farovonligini oshirish uchun real imkoniyatlar paydo bo‘ldi;

Beshinchidan, O‘zbekiston jahondagi ilg‘or rivojlangan mamlakatlarga yaqinlashib xalqaro hamjamiyatda o‘ziga xos va mos o‘rin topmoqda.

O‘ZBEKISTONDA TO‘QIMACHILIK SANOATINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI

To‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib o‘z tarkibiga tabiiy tolalar-paxta, ipak, jun, zig‘ir, jut, sun‘iy tolalar-nitron, kapron, lavsan, viskoza, atsetat, shuningdek, sun‘iy charmdan yigirish va to‘qish orqali turli xil charmlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni birlashtiradi.

Tarmoq mahsulotlari orasida gilam va gilam mahsulotlari, namatkigiz, muyna, teri-charm, tom va mebelbop gazlamalar, turli to‘rlar va boshqalar ham bor.

O‘zbekistonda bu tarmoq juda katta xomashyo bazasiga ega. Demak, uni istiqboli porloq. O‘tmishda ham shunday bo‘lgan.

Tarixiy dalillarning guvohlik berishicha O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekiston qadimdan kosibchilik asosida to‘qimachilik ishlab chiqarishi madaniy markazlaridan biri bo‘lgan. Bu haqda ma’lumot qoldirgan yirik tarixchi olim V.V.Bartold “Xalifalikda Misr ip-gazlamasi haqida ko‘p gapiriladi, ammo Misrda ip-gazlama zig‘ir va jun gazlamadan keyingi o‘rinda turgan, qadimgi va o‘rta asrlarda u yerdan chetga hozirgidek ko‘p paxta chiqarilmagan. Ehtimol xalifalikning barcha viloyatlari orasida Turkistonda ko‘proq ip-gazlama sanoati rivojlangan”, -deb yozadi.

Darhaqiqat, xalqimiz eramizdan oldingi 2-asrlardayoq gazlama to‘qishdan yaxshi xabardor bo‘lgan. V.V.Bartold arab manbalariga

asoslanib o'lkamizda to'quvchilik kasbi nafaqat shaharlarda balki qishloqlarda ham rivojlanganligini ta'kidlab, Buxoroda ishlab chiqarilgan zarbob (qimxob) gazlamalar Suriya, Misr, Rim va boshqa davlatlarga chiqarilgani haqida yozib qoldirgan. X-XI asrlarda Buxoro yaqinidagi Tazan qishlog'ida har yili kuzda katta yarmarka o'tkazilib gazlamalar, pardalar, yopinchiqlar sotilgani, unda O'rta Osiyoning turli shaharlaridan 10 minglab kishilar qatnashgani bunga yorqin misoldir.

Keyinchalik, XVIII- asrdan O'rta Osiyo honliklarida to'qimachilik mahsulotlari bilan savdo qilish yangi bosqichga kirdi. Chunki, bu davrda Rossiya o'zining to'qimachilik buyumlariga bo'lgan ehtiyojini O'rta Osiyo paxtasi, xom ipi, tayyor ip-gazlamalari hisobiga qondirar edi. Negaki, bu davrda Rossiyada hali paxtadan ip-gazlama ishlab chiqarish rivojlanmagan edi. Masalan, 1760-1792 yillarda O'rta Osiyodan Rossiyaga chiqarilgan gazlamalar 6 barobar ko'payib, 3 mln. rubllikdan ortiq bo'ldi.

XIX-asr boshlarida Rossiyaning Markaziy rayonlarida ip-gazlama sanoatining rivojlanishi bilan O'rta osiyo xom ipiga ehtiyoj yanada oshdi. Bu haqda ma'lumot bergan prof. P.G.Lyubomirov Rossiya korxonalari Angliyanikidan ko'ra ko'proq Buxoro xom ipini ma'qul ko'rishgan. Natijada xonliklardan Rossiyaga to'qimachilik buyumlari chiqarish 1840 yilda 1655 ming rublni tashkil etgan bo'lsa 1857 yilda 2408 ming rublga yetdi yoki 72% o'sdi.

9-jadval.

1857-1867 yillarda O'rta Osiyo xonliklardan Rossiyaga tayyor mahsulot, xomashyo va to'qimachik buyumlari chiqarish (ming rubl hisobida)

Yil	Paxta tolasi	jun	ipak	Ip-gazlama buyumlari	Xom ip	Jun buyumlar	Jami	Umumiy chiqqan mahs	To'qim. Mah- ri ulushi
1857	640,0	90,5	75,6	717,4	122,0	79,2	1724,7	5516,0	31,3
1858	697,0	91,4	68,9	697,2	113,3	85	1657,8	6402,5	27,4
1860	713,0	86,6	82,0	655,0	36,5	69,0	1642,1	7534,5	20,7
1865	2933,2	114,4	51,8	699,4	52,7	101,2	3953,7	8946,2	44,2
1865	3494,3	119,5	35,5	423,7	233,4	63,6	4370,0	8929,3	44,0
1867	5513,4	352,2	1273,0	534,5	196,4	58,7	7929,8	12621,0	62,8

Chor Rossiyasi Turkistonni bosib olgach o'lkada kosibchilik asosidagi to'qimachilikka to'siq qo'yib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini dastlabki qayta ishlash (masalan, paxtani)ga asosiy e'tibor berib, tayyor mahsulotni Rossiya to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarishga qaratdi. Masalan, 1913 yilda Turkiston savdo-sanoatchilari o'lka ma'muriyati oldiga bu yerda ip-gazlama korxonasini qurishni so'rab murojaat qilganida o'lka general-gubernatori Samsonov bu Rossiya, xususan Moskva fabrika-zavod ho'jaligiga katta zarar bo'lib tushadi deb rad javobini beradi.

Buning ustiga rus hukumati Turkistondan chiqariladigan to'qimachilik mahsulotlariga, paxta xomashyosiga nisbatan qimmatroq narx belgiladi. Masalan, temir yo'l orqali 1 pud paxta tolasini 1853verst masofaga tashish 1910 yilda 5 rub. 30 kop. qilib belgilangan bo'lsa, 1 pud to'qimachilik mahsulotni 900 verst masofaga tashish 8 rub.53 kop. qilib belgilandi. Ko'rinib turibdiki, gazlamani tashish, paxta tolasini tashishga nisbatan 1,6 marta qimmat. Bu o'z-o'zidan Rossiya markaziy tumanlariga kosib-hunarmandlar paxtadan ishlab chiqariladigan tayyor mahsulot-gazlamaga nisbatan xomashyo-paxta tolasini chiqarishini arzon va afzal qilib qo'ydi.

O'zbekiston (Turkiston)da sanoat asosida ishlaydigan to'qimachilik sanoatiga sho'rolar davrida asos solindi. Respublikada o'tgan asrning 20- yillaridan to'qimachilik mahsulotlari (paxta, pilla, jun)ni qayta ishlab tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi dastlabki yigirish, to'qish, fabrikalari qurila boshladi. Biroq, yildan-yilga paxta, pilla va boshqa xomashyolarni yetishtirish ko'paygan bo'lsada, ulardan shu yerning o'zida tayyor mahsulot ishlab chiqarish bir meyorda qolaverdi. Masalan, sho'rolar davrida O'zbekistonda paxta yetishtirish 200 ming tonnadan (1924 y.) 6 mln. tonnagacha (1980 y.) yetgan bo'lsada uni shu yerda qayta ishlab tayyor mahsulot-gazlama, mato, ko'ylak, kastyum va boshqalar ishlab chiqarish 6-8 foizdan oshmadi. 90 foizdan ortiq xomashyo Rossiya va sobiq ittifoqning boshqa respublikalarida qayta ishlanardi.

10-jadval.

Paxta tolasidan tayyor mahsulot ip-gazlama ishlab chiqarish. (mln.m.)

Yil	Sobiq ittifoqda	O'zbekistonda
1960	6387	235
1965	7077	254
1970	7482	210

Bundan shu narsa ko‘rinib turibdiki, 1960 yilda O‘zbekiston sobiq ittifoqda tayyorlangan paxta tolasining 75 foizini (1 mln. 548 ming tonnadan 1 mln. 100 ming tonnasini) yetkazib bergani holda jami ishlab chiqarilgan ip-gazlamaning atigi 2,8 foizini (7482 mln.metr dan 235 mln.metrni) ishlab chiqargan xolos.

Respublikamiz to‘qimachilik sanoatida XX-asrning 30-yillarida qurib ishga tushirilgan Farg‘ona va Toshkent to‘qimachilik kombinatlari alohida o‘rin tutdi. Ilk to‘qimachilik kombinati 1930 yilda Farg‘onada qurildi. Negaki, o‘sha davrlarda Farg‘ona vodiysi respublikamizda tayyorlanayotgan paxta va pilla xomashyosining 60-70 foizini berar edi.

Shuni hisobga olgan O‘zbekiston hukumati 1925 yil 15 sentabrda Farg‘onada to‘qimachilik kombinati qurilishi haqida qaror qabul qildi. 1926 yilda uning dastlabki navbati ishlay boshladi. 1930 yilda 2 va 3 navbati ishga tushgach Farg‘ona to‘qimachilik kombinati to‘liq ishlay boshladi. Shu yili kombinat 218,2 tonna ip yigirib 2 mln. pogon metr gazlama ishlab chiqardi. 1932 yilda bu ko‘rsatkich 1377 tonna yigirilgan ip va 7 mln.765 ming pogon metr gazlamani tashkil etdi.

Shuni ham aytish joizki, O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishda sobiq ittifoq hukumati va partiya Markazqo‘mining 1929 yil 3 maydagi “To‘qimachilik sanoati rivojlanishining holati va istiqbollari to‘g‘risida”gi qarori ma‘lum darajada o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi.

Respublikamizda yana bir to‘qimachilik kombinati qurilishi boshlandi. Bu Toshkent to‘qimachilik kombinati edi. Uning qurilishi 1932 yilda boshlangan bo‘lib, 1933 yilda sobiq ittifoq Mudofa va Mehnat qo‘mitasi uni “zarbdor qurilish”lar qatoriga kiritgan edi. Toshkent to‘qimachilik kombinati o‘z davrida Osiyodagi eng yirik kombinatlardan bo‘lib, birinchi navbati 1936 yilda, ikkinchi navbati 1939 yilda to‘liq ishga tushirilgan edi. Masalan, TTK 1937 yilda Erondagi barcha yigiruv va ip-gazlama korxonalarini qo‘shganda ham ulardan 7 barobar ko‘p mahsulot ishlab chiqargan edi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Toshkent to‘qimachilik kombinati 2-besh yillikning bosh qurilishi deb e’lon qilindi. Maxsus “Tekstilstroy” tresti tuzildi. Shu bahonada ishchi va mutaxassislar ham “Marakazdan” yuborildi. Moskva, Ivanova, Serpuxovdan quruvchilar, montajchilar, 800 dan ortiq to‘qimachilar, shu jumladan, to‘quv fabrikasiga-417 ta, yigiruv fabrikasiga-138 ta, chitga gul bosish fabrikasi uchun - 149 ta mutaxassis ishchi va 75 muxandis-texnik xodimlar hamda rahbarlar yuborildi. Bunday “amaliy yordamlar” keyinchalik ham davom etdi.

Mahalliy aholidan, xususan yoshlardan kadrlar tayyorlashga “panja orasidan” qaraldi.

Ko‘rilgan “Sayi-harakatlar” natijasida 1934 yil 1 dekabrda bo‘lajak TTKning yigiruv fabrikasida 40000 urchuq, to‘quv fabrikasida 1000 ta dastgoh ishga tushirildi. 1936 yilga kelib kombinatning birinchi navbati-yigiruv va to‘quv fabrikasi, mexanika zavodi, bo‘yash sexi, qo‘shimcha binolar ishga tushgach yigiruv fabrikasida 112720 ta urchuq, to‘quv fabrikasida 3264 ta avtomat to‘quv dastgohi ishlay boshladi. Gazlama ishlab chiqarish 75 mln.metrni tashkil qildi.Bu vaqtda Farg‘ona to‘qimachilik kombinatida 36,3 mln.metr gazlama ishlab chiqarilar edi. TTKda ishchilar soni 7771 kishi bo‘lib, uning 3370 tasi ayollar, shundan o‘zbek ayollari, 1043 nafar edi xolos.

1936 yil 5 dekabrda O‘zbekiston Kompartiyasi Markazqo‘mi Toshkent to‘qimachilik kombinatining 2-navbati qurilishini tezlashtirish haqida qaror qabul qildi. Bir vaqtning o‘zida Farg‘onada 32 ming urchuq, 600 to‘quv dastgohiga ega to‘quv fabrikasi, Toshkentda 19,4 ming urchuq va 600 to‘quv dastgohiga ega past navli paxtani qayta ishlashga mo‘ljallangan yigiruv-to‘quv fabrikasi qurilishi ham boshlandi.

Toshkent to‘qimachilik kombinatining 2-navbati 1939 yilda ishga tushdi. Uning tarkibiga 3 ta yigiruv, 2 ta to‘quv, shuningdek, pardozlash va ip fabrikasi bir nechta korxonalar kirar edi. U yiliga 200 mln.metr chit, satin, shifon, batist, popilin, ko‘ylakbop gazlama va boshqalarni ishlab chiqarish quvvatiga ega edi.

Natijada, 1932-1940 yillarda Respublikada ip-gazlama ishlab chiqarish 12,6 barobarga ko‘payib, 8,5 mln.metrдан 107,4 mln.metrga yetdi. Tarmoqning asosiy ishlab chiqarish foizlari 20 barobar o‘sdi. 2-jahon urushi yillarida, O‘zbekistonga 100 dan ortiq sanoat korxonalri, shu jumladan, ip-gazlama va to‘qimachilik fabrikalari ko‘chirib keltirildi. Natijada, bir qator paxta tozalash zavodlari qayta jihozlanib yigiruv-to‘quv fabrikalariga aylantirildi. Xususan, Namangan, Andijon, G‘ijduvon, Qo‘qon, Farg‘ona paxta tozalash zavodlariga 100 ming urchuq, 2500 ta to‘quv dastgohi joylashtirildi. Shu bilan birga yangilarini qurish boshlandi. 1944 yilda qurilishi boshlangan Nukus yigiruv-to‘quv fabrikasi shular jumlasidan bo‘lib, uning quvvati 5350 yigiruv urchug‘i va 160 to‘quv dastgohiga teng edi. Umuman urush extiyojlari shuni taqazo etmoqda edi.

**1940-1970 yillarda O‘zbekistonning sobiq SSSR xalq
xo‘jaligidagi ulushi (foizda)**

Maxsulot nomi	1940 yil	1965 yil	1970 yil
Paxta tolasi	63.5	69.5	67.8
Xom ipak	38.2	35.4	38.8
Kanop va kunjut tolasi	27.4	74.8	91.0
Ip-gazlama	2.7	3.6	2.8
Ipak-gazlama	5.9	4.1	4.1
Paypoq-noski buyumlari	1.8	2.2	2.2
Ichki trikotaj	2.0	2.3	2.7
Ustki trikotaj	1.6	2.9	2.6
Jun	1.1	2.9	5.3
Pilla	47.8	51.9	54.8

Shunday qilib, urush yillarida ko‘chirib keltirilgan korxonalar hisobiga quvvati bir muncha oshgan ip-gazlama korxonalarida yalpi mahsulot ishlab chiqarish 1940 yilda 101.8 mln rublga teng bo‘lgan bo‘lsa, 1943 yilda 136 mln rublga yetdi yoki 33 foizga oshdi. Asosiy fondlar 38.4 foizga o‘tdi. Natijada, O‘zbekiston ip-gazlama ishlab chiqarish bo‘yicha sobiq Ittifoqda RSFSRdan keyin ikkinchi o‘ringa chiqib oldi. Masalan, 1940-1958 yillarda ip-gazlama ishlab chiqarish sobiq SSSRda 1.5 martaga, O‘zbekistonda esa 2 martaga oshdi. Ammo bu O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati uchun yetarli emas edi. Negaki O‘zbekiston ip-gazlama ishlab chiqarish bo‘yicha umumittifoqda 2-o‘ringa chiqqan bo‘lsada uning ulushi 1945-1958 yillarda 5.2 foizdan 3.7 foizga tushdi. Bunga sabab O‘zbekiston erishgan yutuqlar yangi korxonalar qurish xisobiga emas, balki eskilarini kengaytirish va rekonstruksiya qilish xisobiga bo‘lgan edi. Holbuki, O‘zbekistonda to‘qimachilik xususan ip-gazlama sanoatini rivojlantirish uchun yetarlicha xomashyo bazasi va sharoit bor edi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda asosiy e‘tibor tayyor mahsulot ishlab chiqarishga emas, balki xomashyo, xususan paxta, pilla va kanop tola tayyorlashga qaratilgan. Chunki bu davrda sobiq markaz jahon bozoriga paxta chiqarishdan katta daromad ko‘rgan. Masalan, 1966-1969 yillarda markaz chetga paxta sotishdan har yili o‘rtacha 213 mln. rubl sof foyda olgan, yoki birgina 1968 yili mamlakatda tayyorlangan jami 2 mln. 036 ming tonna paxta tolasining 554 ming

tonnasini xorijga sotgan. Holbuki, buni O'zbekistonda qayta ishlab tayyor mahsulot ishlab chiqarsa bo'lar ediku.

Afsus mustaqillikga qadar respublikamizda to'qimachilik sanoati, xususan uning ip-gazlama ishlab chiqarish tarmog'i juda sekin o'sdi. Hatto u 1970 yilda 1960 yilga nisbatan 25 mln. metr, 1965 yilga nisbatan esa 44 mln. metrga kamaydi. Shu sababli, sobiq Ittifoq hukumati 60 yillar ohiri 70 yillar boshida har biri umumiy quvvati 240 ming urchuq va 6000 to'quv dastgohga ega ikkita yigiruv-to'quv va pardozlash fabrikasi bilan yiliga 109 mln. metr gazlama ishlab chiqarishga qodir bo'lgan Buxoro va Andijon ip-gazlama kombinatlari qurilishiga ruxsat berdi. Nukusda ham shunday quvvatga ega kombinat, Xo'jaylida yigiruv-to'quv fabrikasi, Xiva gilam kombinati qurilishi boshlandi. Chunki, O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston aholisida to'qimachilik mahsulotlariga ehtiyoj katta edi. Bu mahsulotlar O'zbekistonga 10 ta sobiq ittifoqdosh respublika va xorijiy mamlakatdan keltirilardi. O'z navbatida O'zbekistondan jahonning 23 mamlakatiga, xususan Osiyo va Afrika davlatlariga ip-gazlama eksport qilinardi.

O'zbekistonga ip-gazlama mahsulotlari asosan Moskva va Ivanovadan (73,3%) keltirilardi. Bu davrda, shuningdek O'zbekistonga hajmi va assortimenti bo'yicha ip-gazlama yetkazib beruvchi yirik davlat Hindiston bo'lib jami importning 39,8 foizi uning hissasiga, 23,6 foizi esa Vengriya hissasiga to'g'ri kelardi.

Bu hol O'zbekistonda to'qimachilik sanoatini, xususan uning ip-gazlama ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishni taqazo etardi.

Qurilayotgan Buxoro va Andijon ip-gazlama kombinatlari bu borada masalaning kichik bir yechimi edi. Buxoro ip-gazlama kombinatining yigiruv, to'quv va ip bo'yash fabrikalari bo'lgan birinchi navbati 1974 yilda ishga tushdi. 1981 yilda uning 57600 dona kamerali pnevmomexanik yigiruv mashinalari o'rnatilgan 2-yigiruv fabrikasi, 1988 yilda pardozlash korxonasi ishga tushirilgach kombinat tarkibida 2 ta yigiruv, 2 ta to'quv, ip bo'yash, pardozlash korxonasi va tikuv sexi faoliyat ko'rsata boshladi. Shuningdek, 1982 yili G'ijduvonda 33936 ta urchuqli yigiruv, Vobkentda 560 to'quv dastgohiga ega shahobchalar, keyinchalik viloyatning Olot, Qorako'l, Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on, Qashqadaryo viloyatining Kitob va Yakkabog' tumanlarida ham shunday shahobchalar qurildi. Ko'p o'tmay ularning bir qismi mustaqil yigiruv, to'quv fabrikalariga aylantirildi.

O'tgan asrning 70-yillari o'rtalarida faoliyat ko'rsata boshlagan Andijon ip-gazlama kombinati tarkibida bittadan yigiruv, pishituv,

to'quv va 2 ta pardozlash fabrikasi, shuningdek, Asaka, Qo'rg'ontepa, Marhamat, Poytug', Chuama, Chinobod, Yorqishloqda shahobchalari bor edi.

Shunday qilib, mustaqillikka qadar respublikamizda Toshkent, Farg'ona, Buxoro va Andijonda 4 ta yirik to'qimachilik korxonasi va ularning 28 ta shahobchasi faoliyat ko'rsatdi. Shahobchalar viloyatlar kesimida quyidagicha joylashgan edi. Toshkent shahrida 2 ta, Andijon viloyatida 7 ta, Buxoro, Farg'ona va Qoraqalpog'istonda-4 tadan, Namangan va Qashqadaryoda-2 tadan, Surxondaryo, Samarqand, Xorazm va Jizzax viloyatlaridan-1 tadan shahobcha bor edi. Bularni ichida G'ijduvon, Rishton, Beshariq, Yangiqo'rg'on, Uychi, Haqqulobod, To'rtko'l, Kitob, Jarqo'rg'on, Jizzax shahobchalarida kamida 80 tadan yigiruv mashinalari o'rnatilgan bo'lsa, Qoraqamish, Asaka, Qo'rg'ontepa, Marhamat, Poytug', Vobkent, Rishton, Uychi shahobchalarining har birida 500 dan ortiq to'quv dastgohlari bor edi.

Shunga qaramay, respublikamizda paxta tolasidan tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 6-8 foizdan oshmadi. Respublikada tayyorlangan paxta tolasining 92-94 foizi xomashyo sifatida olib chiqib ketildi va asosan Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belorusiya va boshqa respublikalarda qayta ishlanib tayyor mahsulotga aylantirildi.

Natijada, paxtadan keladigan daromad ham Markazda qoldi. Qayta ishlovchi korxonalar ham Markazda qurildi. Minglab ishchi o'rinlari ham Markazda yaratildi. Bu hol aholi turmush darajasiga ham ta'sir ko'rsatdi. Xulosa qilib aytganda, sovuqni-sovuq, issiqni-issiq demay yil 12 oy dalada tinimsiz mehnat qilgan o'zbek dehqonining kosasi oqarmadi.

Bugungi kunda to'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotida o'z o'rnini va salohiyatiga ega. 1991 yilda uning yalpi mahsulotdagi ulushi 8,5 foizga teng edi. Ammo mustaqillikning dastlabki yillarida uning salmog'i boshqa sobiq sovet respublikalarida bo'lganidek, ikki va undan ko'p marta kamayib ketdi. Bu haqda Rossiyaning "Tekstilnaya promishlennost" jurnalida (1997 yil 5-son) quyidagi ma'lumotlar keltirilgan.

12-jadval.

1996 yilda 1995 yilga nisbatan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (foizda)

Davlatlar	Gazmollar	Trikotaj mahsulotlari	Paypoq-noski mahsulotlari
Ozorboyjon	41	28	24
Belorusiya	103	97	94
Gruziya	61	38	39
Qozog‘iston	90	37	49
Qirg‘iziston	126	67	143
Rossiya	80	56	74
Tojikiston	56	36	77
O‘zbekiston	97	141	104
Ukraina	65	47	58

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, barcha davlatlarda orqaga ketish bor. Faqat O‘zbekistonda va qisman Belorussiya hamda Qirg‘izistondagina ahvol qoniqarli. Tabiiyki, bu respublikamiz rahbariyatining istiqlolning ilk kunlaridanoq olib borgan izchil iqtisodiy siyosatining samarasi edi.

13-jadval.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining YAIM ulushi (foizda)

To‘qimachilik sanoati (paxta tozalash sanoatisiz)	1991	1996	2000	2001	2002	2003	2004
	8.5	3.6	2.2	2.3	2.4	2.5	2.8

Shu bilan birga so‘nggi vaqtlarda to‘qimachilik sanoati rivojining ijobiy dinamikasi uning YAIMdagi ulushi salmog‘ini 2004 yilga kelib 2.8 foizga yetkazish imkonini berdi. 2004 yilda 2000 yilga nisbatan to‘qimachilik sanoatida yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1.5 marta, tikuv sanoatida esa 2.9 marta o‘ydi.

14-jadval.

To‘qimachilik sanoatining o‘sish sur‘atlari (o‘tgan yilga nisbatan foizda)

Tarmoqning nomi	2000	2001	2002	2003	2004
To‘qimachilik sanoati	15.5	12.1	7.7	5.5	3.7
Tikuv sanoati	41.9	15.2	3.2	25.8	7.0

To'qimachilik sanoatining YAIMdagi jami salmog'i unga yondosh tarmoqlarning YAIMga bilvosita ta'siri bilan qo'shib hisoblaganda 2004 yilga kelib 7.1 foizga qadar oshdi.(6-jadval)

15-jadval.

To'qimachilik sanoatining YAIMdagi hissasi (foizda)

To'qimachilik sanoatining YAIMga ta'siri	2000	2001	2002	2003	2004
Yondosh tarmoqlar orqali bilvosita ta'sir	3.6	2.8	3.8	3.5	4.3
Xomashyo va uskuna yetkazib beruvchi tarmoqlar	2.7	2.9	2.8	2.5	3.1
To'qimachilik sanoati mahsulotlarini iste'moli	0.9	0.9	1.0	1.0	1.1
To'qimachilik sanoatining to'g'ridan-to'g'ri hissasi	2.2	2.3	2.4	2.5	2.8
To'qimachilik sanoatining YAIM yalpi hissasi	5.8	6.1	6.1	6.1	7.1

2000-2004 yillarda to'qimachilik sanoati eksportining o'sishi (paxta tolasi eksportini hisobga olmaganida) atiga 10 foizni tashkil qildi, uning mamlakat umum eksportidagi ulushi 6 foizdan 4.6 foizga qadar qisqardi.

Bunday ilgari siljishga qaramay tarmoqning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi uning salohiyatidan ancha past. Bu birinchidan paxta tolasi ishlab chiqarish quvvatidan yetarlicha foydalanilmayotganligi bilan bog'liq. Masalan, ip eshish va to'quv sanoatida asosiy vositalarning eskirish ya'ni ishlatilganlik darajasi 2004 yilining oxiriga kelib mos ravishda 45 va 95 % tashkil etdi. Bu hol jahon standartlariga javob beradigan mahsulotlar chiqarishga imkon bermas edi.


16-jadval.

To'qimachilik sanoati quvvatlaridan foydalanish foizda)

Mahsulot nomi	2000	2001	2002	2003	2004
Paxta tolasi	54.4	53.0	53.2	52.2	50.7
Ip gazlama	72.3	78.8	77.2	73.2	70.7
Qattiq ip gazlamalar	59.8	65.9	67.0	64.5	64.5
Tayyor ip gazlamalar	44.7	46.7	51.6	57.6	64.2
Gazlama tipidagi tikilmagan materiallar	68.4	77.7	72.0	66.7	63.7
Trikotaj polotnosi	47.2	50.1	50.3	57.2	61.6
Trikotaj mahsulotlari	35.9	26.0	41.1	50.3	49.5
Tikuv mahsulotlari	42.0	36.0	45.0	47.0	52.0

Bu shuni ko'rsatadiki, To'qimachilik sanoati 2006-2012 yillarda iqtisodiy o'sishning "lokomativi"ga aylanishi uchun barcha imkoniyatlarga ega. Mustaqillik sharoitida ichki omillar va tarmoq rivoji sharoitlarining ijobiy tomonga o'zgarishini ham hisobga olib tarmoqqa soliq bosimini kamaytirish va xomashyoni olish hamda baholash tizimlarini takomillashtirish, shuningdek, to'qimachilik sanoatini rivojlantirish dasturida ko'zda tutilgan chora va mexanizmlarni amalga oshirish sharoitida to'qimachilik sanoatining YAIMdagi ulushi 2004 yildagi 2.8% 2010 yilga kelib 5 % ga, uning yalpi ulushi (yondosh tarmoqlarga ta'sirini ham hisoblaganda) 7.1 % dan 10.8 % ga qadar oshdi.

Yengil sanoat korxonalarining o'rtacha yillik quvvati



Jumladan, tarmoqning YAIMga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri 2006 - 2010 yillarda 2.8 %dan 10.7 % gacha oshdi. To'qimachilik sanoatining resurs bazasini tashkil qiluvchi tarmoqlarning YAIMdagi ulushi 3.1%; ga, soha mahsulotlarini iste'mol qilayotgan tarmoqlarni YAIMdagi ulushi 1.1% dan 4.3% gacha o'sdi. Umuman to'qimachilik sanoatining YAIMdagi ulushi (u bilan bog'liq tarmoqlarga ta'sirini ham qo'shib hisoblaganda) 7.1 % dan 19.5 % qadar o'sdi.

17-jadval.**To'qimachilik sanoatining YAIMdagi taxminiy ulushi (foizda)**


Tarmoqning nomi	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010
YAIM	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0
To'qimachilik sanoatining ulushi							
To'g'ridan-to'g'ri	2.8	3.7	4.2	5.5	7.0	8.3	10.7
Bilvosita	4.3	4.7	5.1	5.9	6.8	7.5	8.8
Yalpi hissa	7.1	8.4	9.3	11.4	13.9	15.9	19.5

Hisob-kitoblarga ko'ra, mamlakat hukumati tomonidan tasdiqlangan To'qimachilik sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish to'qimachilik sanoatida band bo'lganlar sonini 2010 yilga kelib 4 barobar oshirishga imkon berdi. Yondosh tarmoqlar bilan qo'shib hisoblaganda mehnat faoliyatiga yiliga qo'shimcha o'rtacha 76 ming kishi yoki ortiqcha ishchi kuchining 20 foizi jalb qilindi.


18-jadval.**Paxta, to'qimachilik mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish hajmining taxminiy baholari.**

Nomi	2004*	2005	2006	2007	2008	2009
Paxta tolasining ichki iste'moli (qayta ishlash), ming tonna	215.96	300.0	345.0	396.8	452.3	511.1
Paxta, to'qimachilik mahsulotlari eksporti, mln.doll.	186.6	267	393	5.3	634	783
Eshilgan ip, ming tonna	66.0	99.0	149.0	185.0	226.0	268.0
mln.AQSH doll.	131.0	199.0	313.0	4.9	522.0	652.0
Ip gazlamalar, ming tonna	12.1	13.3	15.3	17.6	20.2	23.3
mln.AQSH doll.	29.9	34.6	41.7	50.4	60.9	73.5
Boshqalar, ming tonna	23.1	30.0	34.5	39.6	45.2	51.1
mln.AQSH doll.	25.8	33.6	38.6	44.5	50.7	57.3

2010-2011 yillarda tarmoq mahsuloti eksportining tarkibi



2010 yildagi eksport xajmi 600 mln. dollardan ortiq, 150 ta eksporter korxonalar, 5 ta davlatlarda 30 ta savdo uylari mavjud



2011 yildagi kutilayotgan eksport xajmi 800 mln. dollarga yaqin, 180 ta eksporter korxonalar, 10 ta davlatlarda 40 ta savdo uylari mavjud

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 27 yanvardagi “Mamlakat to‘qimachilik sanoatiga sarmoyalar jalb qilish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 2005-2008 yillarda mamlakat to‘qimachilik sanoatiga sarmoyalar jalb qilish Dasturi tasdiqlandi. Dasturga korxonalarni qayta jihozlash, modernizatsiya qilish va to‘liq rekonstruksiya qilishni amalga oshirish, shuningdek, tugallangan ishlab chiqarish sikliga ega korxonalarni tashkil qilish uchun 1.2 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi sarmoyalar jalb qilishni ko‘zda tutuvchi 94 ta loyiha kirgan edi. Bu loyihalarning amalga oshirilishi eng yangi uskunalarda ichki qayta ishlash hajmini bosqichma-bosqich mamlakatda tayyorlanadigan paxta miqdorini 50 % qadar oshirish, xom ip ishlab chiqarishni 329.9 ming tonnaga, ip gazlama chiqarish 144.4 ming tonnaga, trikotaj polotno 34.8 ming tonnaga, tayyor trikotaj tikuv mahsulotlari ishlab chiqarish deyarli 252 mln.donaga ko‘payishi kutilgan edi. Loyihaning realizatsiya qilinishi aholining yuqori sifatli sanoat mollariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish imkonini berib, faqat to‘qimachilik sanoatida 46 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlarni yaratdi va mahsulot eksportini 1.1 mlrd.AQSH dollarigacha oshirish imkonini berdi.

Umuman olganda, 2004-2009 yillarda tarmoqqa kirib keladigan xorijiy sarmoyalar yillik hisobda o‘rtacha 200 mln.AQSH dollarini tashkil qildi. Bu yangi ish joylari yaratish hamda to‘qimachilik sanoati ishlab chiqarishning o‘sishini ta’minladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston, boshqa to‘qimachilik sanoati ishlab chiqaruvchilarga nisbatan jiddiy raqobatbardosh afzalliklarga ega.

Birinchidan, bizda hozircha ishchi kuchining qiymati past. 2004 yilda O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida ishchi kuchining qiymati soatiga 0.22-0.25 AQSH dollariga teng bo‘lsa, ayni paytda Bangladesh va Vyetnamda bu ko‘rsatkich 0.28-0.57, Hindistonda 0.29, Pokiston 0.37, Indonezayada 0.55 va Xitoyda 0.57 AQSH dollariga teng edi. Malayziyada yuqoridagi ko‘rsatkich 1.8 AQSH dollariga, Turkiyada 2.88, Janubiy Koreyada 7.10 AQSH dollariga teng bo‘lib turibdi. G‘arbiy Yevropa, AQSH va Yaponiyada esa u bundan ham bir necha baravar yuqori;

Ikkinchidan, arzon elektr energiyasi bor. O‘zbekistonda 1 kub/m tabiiy gaz qiymati 0.03 AQSH dollari tursa, xuddi shuncha tabiiy gaz Turkiya, Fransiya va AQShda 0.21 - 0.34, Xitoyda esa 0.28 AQSH dollariga teng. 1 kg. mazutning qiymati O‘zbekistonda 0.08 AQSH dollariga teng. Xuddi shuncha mazut Xitoy, Hindiston, Janubiy

Koreyada taxminan 0.34 AQSH dollariga, G'arbiy Yevropa va AQShda 0.20-0.23, Pokistonda 0.50 AQSH dollariga teng.

O'zbekistonda 1 litr dizel yoqilg'isi 0.26 AQSH dollari tursa, Pokiston, Xitoy, Hindiston va AQShda ushbu ko'rsatkich 0.37-0.54 AQSH dollari atrofida. Janubiy Koreya, Fransiya, Germaniya, Turkiya kabi mamlakatlarda u bundan ham qimmat bo'lib, mos ravishda 0.85, 0.94, 1.03 AQSH dollariga teng.

Uchinchidan, asosiy xomashyo-paxta tolasi mamlakatda yetarlicha ishlab chiqariladi. Bu hol uni korxonalargacha yetkazib berish bo'yicha transport harajatlarini keskin kamaytiradi. Bundan tashqari, mamlakatda ipak xomashyosi ham yetishtiriladi, jun matolar ishlab chiqarish bo'yicha ham resurslar mavjud.

To'qimachilik bozorida O'zbekistonning asosiy raqobatchisi Xitoy, Hindiston, Turkiya, Pokiston, Suriya, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlaridir.


Hozircha Amerika va Yevropaning yirik bozorlarida O'zbekiston to'qimachilari uchun savdo bitimlari va shartnomalari asosida mahsulotlarini bojsiz yoki quyi stavkalar orqali olib kirayotgan mamlakatlar bilan raqobat qilishiga to'g'ri kelmoqda. Masalan, O'zbekiston uchun bojxona to'lovlari kontrakt so'mmasining 14-18% ni tashkil etmoqda. Yevropa ittifoqi mamlakatlariga O'zbekistondan yetkazib berilayotgan ip-gazlamalar va tikuv-trikotaj buyumlari uchun mos ravishda mahsulotlarning umumiy narxidan 4.2 %, 8.4%, va 9.6 % bojxona badallari solingan. Ayni paytda Turkiya, Suriya, Misr, Nigeriya, Pokistonlik yetkazib beruvchilar import badallari to'lashdan ozod qilingan.

O'zbekiston hukumati birgina 1995 yildan 2005 yilgacha, "O'zbekengilsanoat" DAKga 800 mln AQSH dollaridan ortiq xorij sarmoyalarini jalb qilib. 44 ta loyihani amalga oshirdi. Xorij sarmoyalari bilan 39 ta, shu jumladan, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Shveysariya, Turkiya, AQSH, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar tashkil etildi.

Natijada 2005 yilning yanvar holatiga ko'ra "O'zbekengilsanoat" DAK tarkibiga kiruvchi 113 ta korxonadan 56 tasi yoki 50.4 % yangi texnologik uskunalar bilan jihozlandi. Ularning 40 tasi to'quv-tikuv, 16 tasi trikotaj ishlab chiqarishi bilan shug'ullanar edi.

19-jadval.

**Jalb qilingan sarmoyalar dinamikasi
(mln. AQSH dollari xisobida)**



20-jadval.

**To‘qimachilik korxonalarining zamonaviy uskunalar bilan
jihozlanganlik darajasi**

Tarmoq nomi	Korxonalar soni	Shu jumladan:			
		Eskirgan uskunalari	%	Zamonaviy uskunalari	%
Yigiruv-to‘quv	69	29	42.0	40	58.0
Tikuv	14	13	92.9	1	7.1
Trikotaj	30	14	46.7	16	53.3
Umuman “O‘zbekengilsanoat” DAK bo‘yicha	113	56	49.6	57	50.4

Bu yillarda Xorijiy sarmoyalarning asosiy qismi Janubiy Koreya (barcha sarmoyalar hajmining 47.4%) va Turkiya (47.4%) to‘g‘ri kelib, ular asosan ip-gazlama, eshilgan va qattiq gazlamalar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan edi. Shuningdek, 2003 yildan boshlab Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya va AQSH kabi mamlakatlar ham sarmoya kirita boshladilar. Masalan, 2004 yil natijalari bo‘yicha sarmoyalar umumiy hajmida turk kompaniyalarining ulushi 34.6 %, nemis kompaniyalarining ulushi 28.3 %, Shveysariya kompaniyalari ulushi 22.7 % va AQSH firmalari ulushi 14.4 % ga teng bo‘ldi.

2000-2004 yillardagi umumiy sarmoyalar hajmining taxminan 45-50 % trikotaj ishlab chiqarishiga yo‘naltirildi. Chet el sarmoyasining to‘qimachilik yarim tayyor mahsulotlar (eshilgan ip, qattiq matolar va trikotaj polotnosi) ishlab chiqaruvchi korxonalar yaratishga yo‘naltirilishi ularning sifati xalqaro standartlarga javob berishini

ta'minladi va o'zbek korxonalariga sifatli va raqobatbardosh mahsulot bilan jahon bozoriga chiqishi va unda ma'lum o'rin egallashga imkon berdi.

Shunday qilib, to'qimachilik sanoati mustaqil O'zbekiston iqtisodiyotida katta o'rin tutdi. Mamlakat YAIMning 5/1 qismi, ayni to'qimachilik ishlab chiqarishdan olinadigan foydani tashkil etadi. Respublika sanoatida band bo'lganlarning 3/1 qismi to'qimachilik va tikuv korxonalariga to'g'ri keladi. Amalda to'qimachilik tarmog'i respublika byudjetining o'rtacha 25-28 foizini shakllantiradi. Bu milliy daromadning o'sishi bevosita to'qimachilik korxonalarining muvoffaqiyatli ishlashiga bog'liq deb ishonch bilan aytishga asos bo'ladi.

O'ZBEKISTONDA IPAKCHILIK VA IPAK SANOATINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI

Ipak (pilla) eng qadimiy va qimmatli to'qimachilik xomashyosi bo'lib, u insoniyatga bundan 5000-5500 yil oldin ma'lum bo'lgan. Ipak o'zining jilosi, pishiqligi, bejirimligi, ayniqsa chiroyi bilan shoiru-yozuvchilar tomondan asrlar davomida madh etib kelingan.

Ipakchilik—bu pilla qurtini boqish va undan shoyi olishdir. Pilla qurtini esa kapalak beradi. Dunyoda kapalaklarning turlari juda ko'p, lekin ularning hamma qurtlari ham ipak qurti kabi shoyi ip to'qiyvermaydi. Demak, kapalak qurtlarni xonakilashtirilgani, ya'ni madaniysi va yovvoyisi bor.

Madaniylashtirilgan pilla kapalagi qurti tut bargini yeydi, yovvoyilari esa tabiatda mavjud boshqa barglarni yeydi. Bulardan tut bargini yeb undan ip to'qiydigan pilla qurti yoki tut ipagi sanoat ahamiyatiga ega. U to'rt bosqichda rivojlanadi. Bular: 1.Urug', 2.Qurt, 3.G'umbak, 4.Kapalak.

Afsonalarga ko'ra, pilla (ipak) eramizdan avvalgi 3 ming yillikda, aniqrog'i 2700-yillarda, yoki bundan salkam 5 ming yil burun qadimgi Xitoyda paydo bo'lgan. Uni imperator Xoangtini xotini, malika Si Ling Shi tasodifan kashf etgan. Malika qizi bilan bog'da tut daraxti soyasida choy ichib o'tirishsa, piyolasiga tut daraxtidan bir dona pilla tushib eriy boshlaydi. U pillani olmoqchi bo'lganda pilla cho'zilib uzun, ingichka ip bera boshlaydi. Tepaga qarasa ipak qurti, chiroyli ingichka ip to'qiyotganini ko'radi. Shunday qilib malika qizi Lun Chen bilan ipakni kashf qilgan. Ipakdan hayratga tushgan malika darhol xizmatchilarini

chaqirib ipak ipni o‘rash va yigirib o‘ziga gazlama to‘qishni topshiradi.

Malika o‘limidan so‘ng ipakchilik xudosi va himoyachisi, ipak qurti esa «kichik imperator» deb e‘lon qilinadi. Tut daraxti esa quyosh va hosildorlikni ifodalovchi «muqaddas daraxt» hisoblandi.

Shu davrdan Xitoyda ipakchilik rivojlana boshladi va davlat nazoratida bo‘ldi. Masalan, meloddan oldingi 2357 yilda imperator va knyazlarga tegishli maxsus ipak qurti yetishtiruvchilar bo‘lgan. Imperator YU-i davrida esa (er.old.2205y.) katta-katta maydonlarga tut daraxti ekilib ipak qurti boqilgan. Demak, Xitoyda ipak qurti, ipak gazlama juda qadrlangan va hatto uzoq vaqtlargacha sir saqlangan. XIII-asrgacha ipakdan savdo-sotiq ishlarida, soliqlarni to‘lashda pul o‘rnida ham foydalanishgan.

Eramizdan avvalgi 11-1 asrlarda Buyuk ipak yo‘lining paydo bo‘lishi bilan Xitoy Markaziy Osiyo, Hindiston keyinchalik Eron, Suriya hatto Rim bilan aloqa o‘rnatadi. Shu maqsadda Xan sulolasi imperatori U Di er.av.139 yilda o‘z zobiti Chjan Syanni aloqa o‘rnatish uchun bu davlatlarga yuboradi. Jumladan, Yaponiyada ham ipakchilik eramizning II-asrida Xitoy shahzodasi bu mamlakatga tashrif buyurib ipak qurti urug‘ini sovg‘a qilishi bilan rivojlangan.

Demak, shu davrdan e‘tiboran, Xitoydan boshqa davlatlarga ipak mato chiqq boshlaydi. Ularda, ham ipak nihoyatda qadrlangan. Masalan, 1 funt (qadoq) ipak mato Vizantiyada 8 bo‘lak oltinga sotilgan. Eronda ipakchilik bilan tanishgan arablar uni Shimoliy Afrika, Ispaniya, Portugaliya, Sitsiliyada yoyadi. XII-asrda Vizantiyaning bir necha shaharlari, Italiyaning Lukka, Slena, Modena, Balonya va Florensiyasi, Venetsiya ipak savdosi orqali gullab-yashnab ketadi.

XIV-asrda ipak Italiyadan Fransiyaga o‘tdi. XV-XVI asrlarda bu yerda ham ipak qadrlangan. Masalan, 1494 yilda ipakni muhirsiz chetga chiqarish man qilingan. 1540 yilda esa ipakchilik podsho manufakturasi deb e‘lon qilingan. Tur va Lion ipakchilik markazlari bo‘lib qoldi.

Angliyada ipak matolar 1251 yilda istyemolga kirgan. Xususan, Qirol Genrix-III qizining to‘yiga ritsarlar ipak kiyimda kelishgan.

Amerikaga ipak qurti urug‘ini 1531 yilda Kortes (Meksikaga) olib kelgan. Bu qit‘ada, birinchi ipakchilik fabrikasi 1810 yilda aka-uka Xonkslar tomonidan Menefildedda qurilgan.

O‘rta Osiyoga ipak bundan 2000 yil oldin Eron yoki Xo‘tan (G‘arbiy Xitoy) orqali kirib kelgan degan taxminlar bor.

Biroq O‘zbekiston xududida, xususan Surxandaryo viloyatidagi Sopollitepa, Dalvarzintepa va boshqa joylarda olib borilgan arxeologik

qazishmalar natijasida topilgan dalillar asosida olimlar bu yerda ham pillachilik va ipakchilik 3800-4000 yil burun rivojlangan degan hulosaga kelganlar.

Ha, ipak qimmatbaho xomashyo. Tabiiy ipak oqsil moddali tolalar guruhiga kirib 70-80 foiz fibrain, 20-30 foiz seritsindan iborat. Pilla uzunligi sifatiga qarab 1500 metrgacha yetadi.

1 kg. pilla tayyorlash uchun ipak qurtini o'rtacha 11-12 kg.dan, 17-18 kg. gacha tut bargi berib 25-35 sutka boqish kerak.

Ipakdan, ya'ni shoyidan ajdodlarimiz atlas, xonatlas, beqasam, adras kabi nihoyatda chiroyli, turli ranglarda tovlanadigan ipak gazlamalar to'qishgan. Masalan, 1775 yilda Buxoroda bo'lgan rus elchisi T.S.Burnashev va 1813-1814 yillarda Qo'qonda bo'lgan F.Nazarovlarning guvohlik berishicha o'lkamizda ipakdan oltin va kumush yo'lli naqshli zarbob gazlamalar, atlas, duxoba, mayda zar gulli shoyi va boshqalar tayyorlangan. Hunarmandchilikning bu tarmog'i Urgut, Buxoro, Namangan va Urganchda yaxshi rivojlangan.

Bu shuni ko'rsatadiki ipak shoyi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy ahamiyatga ham ega. U turli vaqtlarda, turli davlatlarda, almashtiriladigan valyuta, kontribusiya (tovon) to'lovi, olinadigan boylik, harbiy o'lja, umuman davlatning ijtimoiy holatini ko'rsatuvchi oltin kabi rollarni o'ynagan.

O'zbekistonda ipakchilik bilan xonliklar davridan (XVII-XVIII asrlar) jiddiy shug'ullana boshlashgan. Nega deganda, bu davrda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining Yevropa va Osiyo, xususan Rossiya, Xitoy, Eron, Fransiya bilan savdo iqtisodiy aloqalari yaxshi rivojlangan. Masalan, 1801 yilda Buxorodan Rossiyaga chiqarilgan 526 ming rubllik kalava va gazlamaning ma'lum qismi ipak gazlama bo'lgan.

Turkistonda pillachilikning eng rivojlangan davri 1860 - 1870 yillarga to'g'ri keladi. Bu yillarda har yili 6000-6500 tonna pilla tayyorlangan. Bu haqda ma'lumot qoldirgan rus zoolog olimi N.A.Skvorsov Markaziy Osiyoda yetishtirilayotgan pilla eng yuqori sifatli deb yozgan edi. Pilla yetishtirishning ko'payishi albatta uni qayta ishlashni ham talab qilar edi. Natijada 1867 yilda Toshkentda Pervushin, Xo'jandda Pokrishkin dastlabki ipak o'rash korxonasini qurishdi. Ularda Kripper tizimidagi yarim mexanik dastgohlar o'rnatilgan bo'lib, yiliga atigi bir necha 100 kg.pillani qayta ishlardi xalos. Shuning uchun ham ular 1872 yilda zarar bilan ishlaydiganlar sifatida yopildi. Natijada pilladan ipak gazlama olish jarayoni asosan qo'l mehnati bilan

bajarilishda davom etdi. Bu davrda o'lkada tayyorlangan 80-90 foiz pilla xomashyo sifatida Italiya va Fransiya chiqarilardi. Shu ma'noda, chor hukumati va mahalliy ma'murlar ipakchilikni rivojlantirishdan manfaatdor edi. Biroq, ular ipak o'rash, yigirish, to'qish va shoyi gazlamalar ishlab chiqarish korxonalarini qurishga shoshilishmadi.

Birinchi jahon urushi yillarida Turkistonda va xonliklarda 300-350 ming pud pilla hosili tayyorlanib uning 50-75 ming pudi Farg'ona viloyatiga, 25-35 minggi Buxoro amirligiga va 10 ming pudi Xiva xonligiga to'g'ri kelgan. Bu pillaning umumiy narxi 4,5-5 mln.rubлга teng edi.

1917 yilda yer yuzida jami 17 mln.kg. shu jumaladan, Uzoq Sharq davlatlarida 11 mln.kg. asosan Xitoyda-6,5mln.kg., Yaponiyada-4mln.kg., Yevropada - 4,5 mln.kg. shundan Italiyada - 3,25 mln.kg., pilla xomashyosi tayyorlangan. Qolgani O'rta Osiyo, Kavkaz va Balqon yarim oroli davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Jahonda paxta xomashyosiga ehtiyoj uncha katta bo'lmagan vaqtda pilla va jun, Rossiyada zig'ir va kanop tola anchagina xaridorgir bo'lgan. Masalan, 1754 yilda 1 pud ipakni narxi 30-60 rubl bo'lgan bo'lsa, 1804 yilda 120-130, 1811 yilda 600-700 rubлга ko'tarilgan. Keyinchalik ilg'or mamlakatlarda sanoat to'ntarishi natijasida to'qimachilik, xususan ip-gazlama sanoati tez o'sishi bilan pillaning narxi tusha boshladi. Jumladan, 1868 yilda 1 kg.ipak qurti urug'i 118 frank turgan bo'lsa, 1873 yilda 95, 1890 yilda 57, 1900 yilda 51 frankka tushib qoldi.

Bu davrda Rossiya yiliga 82 ming pud, 1913 yilga kelib esa 110 ming pud pillani qayta ishlagan va uni asosan chetdan olib kelgan. Shu yili, aniqrog'i 1914 yilda Turkistonda ipakni qayta ishlash natijasida 3.363,6 ming oltin rubllik mahsulot ishlab chiqarilgan. O'lkadan chiqarilgan 160 ming pud pillaning atigi 1 foizi Rossiyaga borgan. O'z navbatida Turkistonda 150 ming dehqon xo'jaligi, shundan 127 minggi Farg'ona viloyatida pillachilik bilan shug'ullangan.

1910-1914 yillarda Turkistonda pilla tayyorlash.
(Yiliga pud hisobida)

1900y.-389000,
1910y.-450000,

1912y.-333200,
1913y.-295140.

Ko'rinib turibdiki, Turkistonda pilla tayyorlash 1-jahon urushi arafasida, 1910 yilga nisbatan 155 ming pudga tushib ketgan. Holbuki,

ipak gazlama jahonda paxtadan keyingi 2-o'rinda turadi. Ammo ipak gazlamaning atigi 2 foizi tabiiy ipakdan, qolgani-98 foizi kimyoviy tolalardan olinadi.

Sho'rolar davrida O'zbekistonda paxtachilik bilan bir qatorda pillachilik va ipakchilikka e'tibor yanada kuchaytirildi. Saqlanib qolgan arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha, 1913 yilda hozirgi O'zbekiston hududida qariyb 4000 tonna pilla tayyorlangan.

Tabiiyki, buncha miqdordagi pillani qayta ishlash katta qo'l mehnati talab qilar edi. Shu bois o'tgan asrning 20-yillarida O'zbekiston ipakchilik sanoatiga asos solindi. Ipak va kimyoviy aralash iplardan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Mamlakatimizda esa bunday xomashyo, xususan pilla yetarli edi. Natijada 1921 yilda Farg'onada 56 qazonli mexanik dastgoh o'rnatilgan ilk pillakashlik fabrikasi qurildi. Tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish pilla hisobida 1924-25 yillardagi 5,9 ming tonnadan, 1927-28 yillarda 8,5 ming tonnaga yetdi.

Ko'p o'tmay, 1927-1932 yillarda quvvati-458 tazli Marg'ilon (1929 y.), 95 tazli Buxoro (1928y.), 104 tazli "Hujum" (Samarqand, 1932 y.) pillakashlik (ipak yigiruv) fabrikalari qurildi. Ularda umumiy hisobda 296,2 tonna ipak kalava ishlab chiqarildi.

XX asr 30-yillari birinchi yarmida Buxoro ipak yigirish fabrikasi rekonstruksiya qilinib, quvvati 2, 4 marta oshirildi. Namanganda yangi ipak yigiruv fabrikasi qurildi. Bu davrda pilla tayyorlash 5,674 tonnadan (1932 y.), 11.422 tonnaga (1937 y.) yetdi. Bir quti urug'dan olinadigan pilla hosili 1913 yildagi 22-23 kg.dan, 1937 yilda 41,8 kg.ga yetdi.

Tarmoqning xarakterli xususiyati shunda ediki, undagi ishchilarning 78 foizi mahalliy millatlar vakillari bo'lib, ayollar 58 foizni tashkil etardi. Umuman soha xodimlarining 53 foizi (3721 kishi) ishlab chiqarish ilg'orlari edi. Natijada ipak urash sanoatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1932 yilda 18 mln. rubldan 1937 yilda 31 mln. rublga yetdi.

21-jadval.

1928-1941 yillarda ipakchilikning rivojlanishi

Yil	Tarqatilgan urug', ming quti	Yalpi pilla hosili, tonna	1 qutidan olingan pilla, kg.
1928	196,0	5674,0	28,9
1933	265,7	8317,5	31,5
1937	294,3	12405,5	42,1
1940	287,1	9831,9	34,2

Jadvaldan ko‘rinadiki, 1928-1940 yillarda respublikada yalpi pilla hosili yetishtirini 73,3 foizga ko‘paygan va 1940 yilda ipak gazlama ishlab chiqarish 4,5 mln.pogon metr ga yetdi.

2-jahon urushi yillarida Marg‘ilon ipak kombinatining quvvati Rossiyadan ko‘chirib keltirilgan ip pishitish, ipakni yigirish va to‘quv korxonalari hisobiga ancha oshirildi. Natijada kombinat 1943 yilda 631,3 ming pogon metr, 1945 yilda esa 1.250 mln.pogon metr gazlama ishlab chiqardi.

Urushdan keyingi yillarda shoyi to‘qish va tikish korxonalarida yangi dastgoh va mashinalar o‘rnatilishi natijasida respublikamizda shoyi gazlamalar ishlab chiqarish 1945-1950 yilda 1,9 marta, 1951-1955 yilda esa 2,02 marta o‘ydi.

1966-1973 yillarda Urganch, Namangan, Shahrisabz pillakashlik korxonalari, Namangan shoyi gazlama kombinati qurildi. Marg‘ilon ipak kombinati, Buxoro zardo‘zlik fabrikasi rekonstruksiya qilinib, mahsulot ishlab chiqarish quvvati oshirildi. 1950 yilda shoyi gazlama ishlab chiqarish 8,7 mln. pogon metr ga ko‘paydi. O‘z navbatida pilla tayyorlash 1,1 barobar o‘ydi. 1960 yilda esa 1,5 barobarga oshdi. Natijada O‘zbekiston ipakchilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha sobiq ittifoqda 1-o‘rin (52%) ga chiqib oldi.

22-jadval.

1940-1970 yillarda O‘zbekistonning sobiq SSSR iqtisodiyotidagi o‘rni. (ipakchilik mahsulotlari bo‘yicha foizda)

Mahsulot	1940	1965	1970
Xom ipak	38,2	35,4	38,8
Pilla	47,8	51,9	54,8
Shoyi gazlama	5,9	4,1	4,1

Faqat 1960-1970 yillarda Respublikada ipakchilik sanoati mahsulot ishlab chiqarishni 3,9 martaga ko‘paytirdi. Bu davrda Marg‘ilon ipak kombinati, Samarqand ipak yigirish, Namangan va Qo‘qon shoyi to‘qish fabrikalarida asosiy fondlar 2-3,2 martaga o‘ydi.

23-jadval.**1960-1970 yillarda respublika shoyi to‘qish fabrikalari asosiy fondlarining o‘sishi (1960 yilga nisbatan, foizda)**

	1960	1965	1967	1970
Marg‘ilon ipak kombinati	100	214,2	217,4	257,1
Marg‘ilon “Atlas” firmasi	100	100,0	100,6	107,2
Samarqand shoyi to‘qish fabrikasi	100	188,4	199,0	212,4
Namangan shoyi t o‘qish fabrikasi	100	243,0	272,0	346,0
Qo‘qon shoyi to‘qish fabrikasi	100	148,4	164,6	166,0

Tarmoqni rivojlantirishga doir ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida 1940-1980 yillarda O‘zbekistonda ipak sanoati 11 martaga o‘sdi. Pilla yetishtirish esa 693 tonnadan 1.711 tonnaga, ipak gazlama ishlab chiqarish 4,5 mln. m²dan 116,6 mln.m² ga yetdi.

Shunday qilib, O‘zbekiston sobiq ittifoq davrida jahondagi 40 dan ortiq pilla yetishtiruvchi davlatlardan biri bo‘lib, dunyo ipakchiligida Xitoy va Hindistondan keyingi yetakchi o‘ringa chiqib oldi. Markaziy Osiyo davlatlarida tayorlanayotgan pilla va ipakning 70-72 foizi O‘zbekiston hissasiga to‘g‘ri keladi. Masalan, 1990 yilda butun Markaziy Osiyoda tayyorlangan 41916 tonna pillaning 37783 tonnasi, 3359 tonna ipakning 2458 tonnasi O‘zbekistonda tayyorlandi.

24-jadval.**1940-1990 yillarda Markaziy Osiyoda pilla tayyorlashning o‘sishi (tonna hisobida)**

Davlatlar	Yillar					
	1940	1950	1960	1970	1980	1990
O‘zbekiston	9128	12563	14576	18376	30297	32783
Turkmaniston	1612	1771	2356	2986	4868	3671
Tojikiston	1257	1572	2102	2480	3968	4287
Qirg‘iziston	510	385	490	825	1034	1175
Jami:	12507	16291	19524	24667	40167	41916

**1940-1990 yillarda Markaziy Osiyoda hom ipak ishlab chiqarish
(tonna hisobida)**

Davlatlar	Yillar					
	1940	1950	1960	1970	1980	1990
O'zbekiston	693	762	856	1172	1645	2458
Turkmaniston	149	157	169	229	239	298
Tojikiston	254	233	292	322	350	479
Qirg'iziston	84	69	93	123	102	124
Jami:	1180	1221	1410	1846	2336	3359

Yuqoridagi har ikki jadvaldan ko'rinib turibdiki, 50 yilda (1940-1990) O'zbekistonda pilla tayyorlash 3,69 barobar, ipak esa 3,35 marta ko'paydi.

Ha, ipak gazlamadan to'qilgan milliy matomiz-xonatlas qizlarimizning sepi, xalqimiz g'ururi. Shu yerda Marg'ilon atlas haqida to'xtalmaslik mumkin emas.

Mustaqillik yillarida kamalak kabi tovlanib turuvchi atlas va adras matolarimiz nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro maydonda ham yangicha qiyofada keng yoyilmoqda. Zero, ipak Yevropada shohona mato hisoblanadi. Masalan, 2010 yilda birgina Londondagi "Thomas Pink" brend markazida ipakdan to'qilgan bir dona mavsumiy ko'ylak 170 funtga, "Marks sr Spenser" do'konida esa 120 funtlik bahoda sotildi.

Ipakchilik bilan bugungi kunda 50 dan ortiq mamlakatlar shug'ullanadi. Bular: Yevropada-Ispaniya, Italiya, Fransiya, Vengriya, Ruminiya, Polsha, Ukraina, Moldova, Gretsiya, Bolgariya, sobiq Yugoslaviya respublikalari, Osiyoda-Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Koreya, Bangladesh, Pokiston, Turkiya, Indoneziya, Eron, Markaziy Osiyo davlatlari, Suriya, Vyetnam, Shri Lanka, Ozorbayjon, Gurjiston, Amerikada-Braziliya, Meksika, Boliviya, Kolumbiya, Afrikada-Misr, Keniya, Marokko, Tanganika, Madagaskar orollari va boshqalar.

Respublikada pillachilik va ipakchilikni rivojlantirishda Prezident Islom Karimovning "Respublika pillachilik tarmog'ini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'rsida"gi qarori dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur qarorda pilla xomashyosi yetishtirishni jahon bozori talablari darajasiga ko'tarish uchun avvalo, ipak qurti yangi zotlarini yaratish, tarmoqni modernizatsiyalash va unga xorijiy investitsiyalarni ko'proq jalb etish, yangi tuzorlar tashkil etish kabi muhim masalalar

belgilab berildi.

Bu borada “O‘zbek ipagi” uyushmasi va O‘zbekiston ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ham muayyan ishlar qilinmoqda. Masalan, bugungi kunda respublikamizda tayyorlanayotgan ipak qurti urug‘larining qariyb 90 foizi mazkur institut olimlari tomonidan yaratilmoqda.

Keyingi 4 yilda (2007-2011) ipak qurtining bir qancha yangi zot va durugayi hamda tutning 4 ta yangi navi yaratilgani bunga misol bo‘ladi. Ipak qurtining O‘zbekiston 5-6, ipakchi-1-2, Turon-1-2 zotlari, tutning Jarariq-6, Jarariq-7 kabi navlari shular jumlasidandir.

Shuningdek, istiqlol yillarida ipak qurtining “Go‘zal” va “Marvarid” zotlari yaratildi. Bu zotlarning pillasi yirikligi hamda ingichkaligi bilan ajralib turadi. Pillani saralash, navlarga va urug‘likka ajratish bo‘yicha ham zamonaviy uskuna yaratildi. Bu uskuna 8 soatda 800 kg. pilla qobig‘ini katta-kichiklikka va navlarga ajratadi. Ilgari bunga kamida 3 - 4 kun vaqt ketardi.

Umuman, Mustaqillik yillarida ipakchilikni modernizatsiya qilish, pilla, ipak tola, shoyi ip, undan tayyorlanadigan buyumlar sifatini yaxshilash bo‘yicha bir qator iqtisodiy va tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 3 fevraldagi “Ipak ishlab chiqarish majmuida integratsiyalash jarayonlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va Prezidentimizning 1998 yil 30 martda qabul qilgan “Respublika ipakchilik tarmog‘ini boshqarishni yanada takomillashtirish tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Ko‘rilgan tadbirlar asosida tashkil etilgan “O‘zbek ipagi” uyushmasi o‘z tarkibiga 20 dan ortiq ipakni qayta ishlash korxonalarini, shu jumladan 10 ta pillakashlik, 7 ta shoyi to‘quv va 7 ta qo‘shma korxonani birlashtirib “Pilla Xolding kompaniyasi”, “Shoyi” kompaniyasi hamda “Ipakimpeks” tashqi savdo firmasi orqali tarmoqqa rahbarlik qiladi.

Pillakchilik respublikamizning barcha viloyatlarida keng rivojlangan. Ipakni qayta ishlash korxonalarining asosiy qismi esa Farg‘ona vodiysida joylashgan. Bu yerda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan xom ipakni 2/3 qismi, ipak chiqinilaridan olinayotgan yigirilgan ipakning 100 foizi, shoyi matolarning esa 17 foizi ishlab chiqariladi. Eng yirik korxonalari “Buyuk ipak yo‘li” HJ va “Atlas” HJ hisoblanadi.

Shuningdek, Samarqanddagi “Hujum” HJ, Shahrisabzdagi

“Kumush” HJ, “Buxoro ipagi” HJ va boshqalar ipak xomashyosi ishlab chiqarish, uning sifatini yaxshilash, dunyo andozalariga javob beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

2011 yilda uyushma tarkibida faoliyat ko‘rsatayotgan “O‘zbek-Yapon”, “O‘zbek-Singapur”, O‘zbek-Xitoy”, “O‘zbek-Vyetnam”, “O‘zbek-Janubiy Koreya”, “O‘zbek-Buyuk Britaniya” qo‘shma korxonalari qatoriga Namanganda foydalanishga topshirilgan va yiliga 300 tonna pillani qayta ishlab 97 tonna shoyi ip ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan “Helil Silk” qo‘shma korxonasi ham qo‘shildi.

Xulosa qilib aytganda, pillachik va ipakchilikni rivojlantirishdan asosiy maqsad, ularni o‘zimizda to‘liq qayta ishlab tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish. Shu maqsadda, respublikamizda pilla tayyorlashni 2010 yildagi 19-20 ming tonnadan yaqin istiqbolda 25 - 30 ming tonnaga, xususan 2015 yilida 28 ming tonnaga yetkazish (bu jahonda tayyorlanayotgan jami pillaning 20 foizidan ko‘p) va uni jahonga xomashyo sifatida emas, balki tayyor mahsulot sifatida chiqarib, ko‘proq daromad olish, yangi ish o‘rinlari yaratib mamlakatimiz iqtisodiyoti yuksalishiga va aholi turmushi farovonligi oshuviga munosib hissa qo‘shishdir.

Shuni ham aytish kerakki, O‘zbekiston ipakchilik sanoatida shoyi to‘qish sohasi alohida ahamiyatga ega. O‘tgan asr 80 - yillarida bu sohada 7 ta, shu jumladan, Marg‘ilon shoyi kombinati, Marg‘ilon “Atlas”, Namangan va Samarqand shoyi ishlab chiqarish birlashmalari, Namangan avrli gazlamalar kombinati, Qo‘qon va SHo‘rchi shoyi to‘qish fabrikalari va boshqalar bor edi. Bu korxonalar shoyi gazlamalar turlarini ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashgan. Masalan, Marg‘ilon shoyi kombinatida krepdishin, krepshifon, krepjorjet, “Atlas” ishlab chiqarish birlashmasida tabiiy ipakdan xalq sevgan milliy gazlamalar: atlas, xonatlas, beqasam, adras, shoyi, shuningdek plashbop, kostyumbop, astarbop gazlamalar, Namangan shoyi ishlab chiqarish birlashmasida shtapel, viskoza va aralash tolalardan kiyim-kechak uchun gazlamalar, Samarqand shoyi fabrikasida tukli va jakkord gazlamalar, Qo‘qon shoyi fabrikasida sun‘iy ipaklardan avrli gazlamalar ishlab chiqarilgan.

Shunday qilib, pillachilik, ipakchilik va shoyi to‘qish sanoati Respublikamiz to‘qimachilik tarmog‘ining muhim sohalaridan biri bo‘lib qoldi.

O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING PAYDO BO'lishi VA RIVOJLANISHI

Yengil sanoat ko'p tarmoqli soha bo'lib, asosan qishloq xo'jalik mahsulotlari-paxta, pilla, kanop kabi to'qimachilik sanoati xomashyosi hisoblangan mahsulotlarni qayta ishlab ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqararish bilan shug'ullanuvchi butun bir jarayonni o'z ichiga oladi. Yigiruvchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, trikataj va charm-muyna soxalari, shuningdek, bugungi kunda eng dolzarb masalardan bo'lgan kasanachilik, ya'ni ishsiz aholini yakka tartibda, uyda ish bilan ta'minlash ham yengil sanoatning asosiy tarmoqlardan hisoblanadi. Bugungi kunda ularning har biri O'zbekiston iqtisodiyotida o'z o'rniga ega. Shu yerda ularning ayrimlarining bugungi holati va rivojlanish istiqbollari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

TIKUVCHILIK TARMOG'I



Tikuvchilik yurtimizda hunarmanchilik kasbi sifatida qadim zamonlardan oq rivojlanib kelmoqda. Ajdodlarimiz bundan bir necha ming yillar oldin ham, hozir ham qishloq va shaharlarda ko'plab chevarlar(bugungi ishbiarmon va tadbirkorlar) misolida o'zi uchun va buyurtmalar bo'yicha qo'lda chapon, kiyim-kechak, ko'rpa-to'shak, ro'zg'or buyumlari kabi mahsulotlarni tikish bilan shug'illanishgan. Xalq orasida, ayniqsa yuksak san'at darajasida tikilgan yoki tayyorlangan

go'lko'rpa, zarbon tun, choyshab, so'zana, kashta kabi milliy mahsulotlar nihoyatda qadirlanadi.

XX asr boshlariga kelib yurtimizda tikuvchilik sanoat asosiga ko'chdi. Bunga 1907 yilda Toshkentda "Lui Zalm va uning o'g'illari" nomli hissadorlik jamiyati tomonidan qurilgan birinchi tikuvchilik fabrikasi asos bo'ladi. Bugun O'zbekistonda 20 dan ortiq tikuvchilik fabrikalari ishlab turibdi. Ularning orasida XX asr 20-30 yillarida qurib ishga tushirilgan, uzoq yillar davomida institut bilan mustahkam aloqada



bo'lib kelgan Toshkentdagi "Qizil tong" va 1-tikuvchilik fabrikalari, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Urganch, Andijondagi tikuvchilik karxonalari bor edi. Bu karxonalarda 2-jahon urushi va urushdan keyingi yillarda sho'rolar armiyasi uchun kiyim-kechak va boshqa anjomlar tikildi.

50-70 yillarda aholining tikuvchilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojining oshib borishi bu tarmoqning yanada rivojlanishiga olib keldi. Natijada, 60-yillarda Toshkentda 3-chi tikuvchilik fabrikasi, Xiva tikuvchilik fabrikalari qurib ishga tushirildi. 70-yillarga kelib bu karxonalar samaradorligini oshirish maqsadida ularning negizida ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etildi. Kichik shaharlar va yirik aholi punkitlarida tikuvchilik fabrikalarining ko'plab filiallari ochildi.

Mustaqillik yillarida respublikamiz Prezidenti va hukumati tamonidan tarmoq karxonalarini yangi zamonaviy texnologiyalar bilan



jixozlashga alohida e'tibor qaratildi. Bu yo'nalishda ilg'or rivojlangan davlatlar firma va kompaniyalari bilan hamkorlik yo'lga quyildi. Natijada istiqlolning ilk yillaridayoq Toshkentdagi "Qizil tong", Samarqandagi "8-mart" tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmalarida

Fransiya, Germaniya, Shveysariya, Yaponiya, Koreya va Italiya davlatlarining jaxonga mashhur firmalari va kompaniyalari ishtirokida kompleks mexanizatsiyalashgan liniyalar o'rnatildi. Jumladan, 1992 yilda Toshkentdagi "Qizil tong" fabrikasi huzurida ustki kiyimlar tikadigan "Oydin-Moniza" Uzbekiston-Xitoy qo'shma karxonasi tashkil etildi va hokoza.

Bugungi kunda tikuvchilik O'zbekiston yengil sanoatining yetakchi tarmoqlaridan bo'lib, kasanachilik bilan qo'shib hisoblanganda yuz mingdan ortiq kishini ish bilan ta'minlamoqda. Ularning 85 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Tarmoqda ish jarayonini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashga alohida e'tibor berilmoqda. Mustaqillik yillarida deyarli barcha tikuvchilik korxonalarida kompleks mexanizatsiyalashgan liniyalar va potoklarning o'rnatilganligi buning yorqin isbotidir.

Bugungi kunda respublikamiz tikuvchilik karxonalarida aholini ish bilan ta'minlash, mahsulot sifatini yaxshilash, uning tannarxini

kamaytirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tikish o'rniga matiriallarni yechim bilan choklosh va boshqa usul hamda jarayonlar o'zlashtirilmoqda.

TRIKOTAJ TARMOG'I

Trikotaj sanoati O'zbekiston yengil sanoatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, alohida sanoat tarmog'i sifatida XX-asr 30-40 yillarida shakllandi. 1939 yilda ishga tushirilgan, nafaqat O'zbekistonda, balki O'rta Osiyo mintaqasida o'z davrining eng yirik korxonasi hisoblangan Qo'qon paypoq fabrikasi bu tarmoqning ilk korxonasi edi.

Oradan ko'p o'tmay, 1943 yilda bu fabrika kombinat maqomiga ega bo'ldi. Shundan so'ng O'zbekistonda trikotaj sanoati tez sur'atlarda rivojlana boshladi. 2-jahon urushi yillarida Andijon va Toshkent shaharlarida, 1950-60 yillarda Samarqand, Buxoro va yana Andijon, Toshkentda trikotaj kiyimlar fabrikalari ishga tushirildi.



Tarmoqdagi eng yirik korxona 1942 yilda ishga tushirilgan Toshkentdagi «Malika» ishlab chiqarish birlashmasi bo'lib, u erkaklar, ayollar va bolalarning 200 xildan ortiq ustki va ichki tarikotaj kiyimlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi.

1980-1990 yillarda respublikadagi mavjud barcha trikotaj korxonalari yangi uskunalar bilan jihozlandi. «Malika» trikotaj ishlab chiqarish birlashmasi, Buxoro va

Samarqand trikotaj fabrikalari, Qo‘qon paypoq to‘quv fabrikasi tubdan qayta qurildi. Yangidan Oltinko‘l trikotaj matolar fabrikasi, Qorasuv va Jizzax paypoq fabrikalari ishga tushirildi. Ammo bugun ularning ayrimlari ishlamaydi

Keyinchalik, 1985 yilda Ho‘jaobod, 1986-yilda Shahrixon va Chortoq, 1993 yilda Shahrisabz trikotaj-tikuvchilik fabrikalari foydalanishga topshirildi. Hozir O‘zbekistonda 15 dan ortiq trikotaj korxonalari bo‘lib, ularda 1500 nomdan ortiq turli mahsulotlar ishlab chiqarilmokda.

CHARM-POYABZAL TARMOG‘I

O‘zbekistonda charmdan mahsulot ishlab chiqarish uzoq tarixga ega. Ayniqsa, qo‘nchilik hunarmandchilikning qadimiy turi sifatida ming yillardan buyon mavjud. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»ning oshlangan va qo‘lda ishlov berilgan 12 ming qoramol terisiga oltin suvi bilan yozilganligi buning isbotidir.


Qadimda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shaxrisabz, Termiz, Qo‘qon shaharlarida, Xorazmda yuzlab ko‘nchilik do‘konlari bo‘lgan. Ularda teridan tayyorlangan turli xil charm buyumlar sotilgan. Faqat XIX asr so‘nggi choragidan O‘zbekiston mahalliy bozorlarida Yevropa mamlakatlaridan keltirilgan va charmdan sanoat usulida tayyorlangan xrom, shagrun, upuka teri turlari va ulardan tikilgan poyabzallar sotila boshlagan.

Natijada XX-asr 20-yillarida O‘zbekistonda ham poyabzal sanoatiga asos solindi. Bugun bu tarmoqda mahalliy xomashyo hayvonlar terisidan yumshoq va qattiq charm, tabiiy va sun‘iy charmdan poyabzallar, shuningdek telpak, ot-ulov asboblari, attorlik buyumlari, to‘qimachilik dasttohlari va boshqa mashinalar uchun detallar ishlab chiqariladi.


Tarmoqning birinchi eng yirik korxonasi Toshkent ko‘n(charm) zavodi 1928 yilda ishga tushirilgan. 2-jahon urushi yillarida Andijon viloyatining Xonobod kishlog‘ida teri oshlash zavodi, pustin uchun ko‘y terisini oshlaydigan yana 2 ta korxona kuriddi. 1960 yillarda Toshkentda yangi ko‘n zavodi va sun‘iy charm plyonka materiallari zavodi foydalanishga topshirildi.

Shu davrda ko‘nchilik bilan shug‘ullanuvchi barcha zavodlar negizida «O‘zbekiston» ko‘n va sun‘iy charm ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. 1994 yildan u «O‘zbekengilsanoat» uyushmasiga qarashli «Charm» korxonasiga aylantirildi.

Shuni aytish kerakki, O‘zbekistonda charmdan oyoq-kiyimlar tikish o‘z an‘analariga ega. Yurtimizda qadimdan hunarmandlar va kosiblar ko‘lda har xil andaza va turdagi poyabzallar, xususan etik, maxsi, kalish tikib kelganlar. XX asrdan ko‘nchilikning sanoat asosiga o‘tishi bilan tufli, botinka, sandal, shippak, piyma, kalish, shuningdsk maxsus ish poyabzallari ishlab chiqarish ham o‘zlashtirildi.



Yarim avtomat quyi tayanch mexanizmining chizmasi



Poyabzallardan namunalar

O'tgan asrning 20-yillaridan respublikamizda poyabzal fabrikalari qurilishi ham boshlandi. Jumladan, 1927-yilda Toshkentdagi 1-poyabzal fabrikasi, 1935 yilda esa 2-poyabzal fabrikasi qurildi. So'ngra yana 5 yil davomida Buxoro, Samarqand, To'rtko'l, Termiz, Andijon, Qo'qon, Chirchiq, Namangan poyabzal korxonalari qurilib ishga tushirildi. Natijada 1940 yilga kelib O'zbekistonda keng tarmoqli poyabzal sanoati shakllandi.

Respublikada yetarli miqdorda xomashyoning borligi va poyabzal mahsulotlariga talabning yildan-yilga oshib borishi, urushdan keyingi 60-70-yillarda ham bu tarmoqni yanada rivojlantirishni taqazo etdi. Natijada 1960 yilda Pop rezina poyabzal fabrikasi, 1969 yilda Farg'ona va Yangiyo'l poyabzal fabrikalari qurildi. Toshkentdagi 1 va 2-poyabzal fabrikalari, Chirchiq va Qo'qondagi korxonalar kengaytirilib, qayta jihozlandi. Ular mahsulot turlari bo'yicha ixtisoslashtirildi. Masalan, Yangiyo'l va Chirchiq poyabzal korxonalarida ko'proq bolalar poyabzali ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda respublikamiz poyabzal sanoati korxonalarini xorijiy hamkorlar bilan sheriklikda eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan qayta jihozlash ishlari olib borilmoqda. Masalan, 1995 yilda «Farg'ona poyabzal» aksiyadorlik jamiyati bilan Germaniyaning «Salamander» firmasi o'rtasidagi hamkorlik natijasida yillik loyiha kuvvati 8 turdagi 500 ming juft erkaklar poyabzali ishlab chiqarishga teng bo'lgan «O'zsalaman» qo'shma korxonasi mahsulot bera boshladi.

Germaniya, Fransiya, Chexiya va boshqa davlatlar firmalari ishtirokida Yangiyo‘l, Chirchiq poyabzal fabrikalari ham zamonaviy texnologiyalar bilan qayta jihozlandi. Bunda ayniqsa «Kibo» firmasining ishtiroki katta bo‘ldi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 10 dan ortiq yirik poyabzal fabrikasi, shuningdek mahalliy sanoatning ko‘plab mayda korxonalari ishlab turibdi. Respublika hukumati bu tarmoqga katta e‘tibor bermoqda. 2000 yilda Vazirlar Mahkamasi - O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan maxsus «O‘zbekcharpoyabzal» uyushmasi tashkil etilib, kun-poyabzal sanoati uning ihtiyoriga berildi.

Poyabzal sanoatida, ayniqsa sentetik va suniy materiallardan foydalanish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

KANOP SOHASI

Kanop sanoati O‘zbekistonda XX-asr 30-yillari ohirida alohida tarmoq sifatida paydo bo‘ldi. Kanop ham texnika ekini-sanoat xomashyosi bo‘lib, asosan respublikamizning Toshkent viloyatida yetishtiriladi. 1950 yillarda kanop va jut Surxondaryo, Samarqand viloyatlari va Qorakalpog‘istonda ham yetishtirilgan.

Kanop tolasi sanoatda ishlatiladigan zig‘ir tolasiga nisbatan ancha afzalliklarga ega. U sanoat usulida qayta ishlanib poyasidan po‘stlog‘i ajratiladi, po‘stloqdan esa tola olinadi. Kanop tolasi sanoatda qop gazlama, xo‘jalik arqoni, kabel ipi va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi.

1938 yilda tarmoqning dastlabki korxonasi - Quyi Chirchiq kanop zavodi qurildi. 1946 yilda esa Yuqori Chirchiqda yana bir yirik kanop zavodi ishga tushirildi. Keyinchalik 1950 yillarda Toshkent viloyatining Gul, Jumabozor, Ketmontepa, Toshovul, Yangibozor, Yangiyo‘l, Uyali, Yangihayot, Qo‘rg‘oncha axoli punktlarida 9 ta yangi kanopni qayta ishlash zavodlari kurildi. Natijada respublikamizda kanop tolasi ishlab chikarish 1975 yilda eng yuqori darajaga yetib 37,2 ming tonnani tashkil etdi. Bu 1940 yilga nisbatan 18 barobardan ortiq ko‘p edi.¹

1990 yilda tarmoqda 12,6 ming tonna uzun, 3,8 ming tonna kalta kanop tolasi, 10 mln.m² qop-urov gazlamasi, 600 tonna xo‘jalik arqoni, 550 tonna kabel ipi va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarildi. Bu vaqtda O‘zbekiston sobiq ittifoqda ishlab chiqarilayotgan jami kanop tolasining 90 foizdan ortig‘ini berar edi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya. 263-bet

1990 yildan ya'ni istiqloq yillarida respublikamizda kanop ekish va undaan tola ishlab chiqarish biroz qisqardi. Hozir tarmoqda qolgan 6 ta kanop zavodi «Toshkent-kanop» aksiyadorlik uyushmasiga birlashgan bo'lib, ular bir yilda 20 ming tonna kanop poyasini qayta ishlash quvvatiga ega. Tabiiyki, tarmoqni tiklash va rivojlantirish kerak. Bu borada qator tadbirlar, ko'rilmoqda. Jumladan, 1995 yildan Pskentdagi «Gilamto'qima» korxonasida kanop tolasida brezent, poyondozlar, Jumabozor va Yangiyo'l kanop zavodlarida uning to'ponidan jipslangan (presslangan) plitalar, Uyali va Yangihayot zavodlarida kanop tolasini chiqindilardan noto'qima matolar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Yangibozor, Gul, Toshovul, Ketmontepa zavodlari esa boshqa xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirildi.

Afsuski, so'nggi yillarda bu tarmoqga e'tibor susaydi. Biroq, bugun ham tarmoqda ishlab chiqariladigan uzun va kalta kanop tolasini, qop-o'rov gazlamasi, kabel ipi, xo'jalik arqoni va boshqa maxsulotlarga sanoatda ehtiyoj katta. Bu tarmoqni tiklash va rivojlantirish, uning uchun mutaxassislar tayyorlashni yana yo'lga qo'yishni taqozo etmoqda.

O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATI: JAHON STANDARTLARI DARAJASIDAGI SIFAT

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 2005 yilda tashkil etilgan va har yili oktabr oyida Toshkentda o'tkazib kelinayotgan O'zbekiston paxta va to'qimachilik yarmarkasida bu yorqin namoyon bo'lmoqda. Jumladan, 2011 yil 12-13 oktabr kunlari bo'lib o'tgan navbatdagi yarmarka buning yana bir isboti bo'ldi.

Yarmarkada 600 ming tonnadan ortiq O'zbekiston paxta tolasini sotib olish bo'yicha shartnomalar imzolandi. Bundan tashqari, mamlakatimiz to'qimachilik korxonalarining mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha qiymati 550 million AQSH dollaridan ziyod hajmdagi shartnomalar tuzildi. Negaki, O'zbekistonda yetishtirilgan paxta va ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik mahsulotlariga jahon bozorida talab katta.


Yaqinda mustaqilligining 20 yilini nishonlagan mamlakatimizda Prezidentimiz Islom Karimov rahnomaligida amalga oshirilayotgan keng qo'lamli iqtisodiy islohotlarning yuksak samarasi butun dunyoda e'tirof etilmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotini bozor munosabatlari asosida qayta tashkil etish, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yuksaltirishda, ijtimoiy sohada, aholi turmush darajasi hamda hayot sifatini oshirishda

ulkan muvoffaqiyatlarga erishmoqda. Dunyoning ko'plab davlatlarida ishlab chiqarish tarmoqlarida global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sababli ishlab chiqarish sur'ati pasayshi davom etayotgan bir paytda O'zbekistonda jahonda eng yuqori ko'rsatkichlardan biri yalpi ichki mahsulotning barqaror va yuqori o'sish sur'atlari, makroiqtisodiy muvozanat ta'minlanmoqda, barcha jabhalar, jumladan, paxta yetishtirish, tola ishlab chiqarish, uni qayta ishlash hamda to'qimachilik mahsulotlarini tayyorlash bilan bog'liq sohalar jadal rivojlanmoqda.

Xalqaro O'zbekiston paxta va to'qimachilik yarmarkasi ishtirokchilari soni yildan-yilga ortib bormoqda. 2005 yildan buyon ularning soni ikki baravar ko'paydi. Masalan, 2011 yilgi yettinchi yarmarkada dunyoning turli mintaqalardagi 38 davlatdan paxta va to'qimachilik biznesi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan 330 kompaniyaning 660 nafardan oshiq vakili qatnashdi. Xorijiy ishbilarmon doiralar manfaatdorligining oshayotgan jahon paxta biznesida muhim voqealardan biriga aylangan ushbu yarmarkaning ahamiyati hamda mavqei yuqoriligidan, mamlakatimiz bilan hamkorlik qilishga, uning muntazam yuksalib borayotgan iqtisodiy salohiyatiga qiziqish ortib borayotganidan dalolatdir.

Paxta mamlakatimiz uchun an'anaviy qishloq xo'jaligi ekini bo'lib, O'zbekiston jahondagi paxta tolasi ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi yirik davlatlardandir. Shu bois mamlakatimizda tolaning sifat va texnik ko'rsatkichlarini muntazam oshirish bilan bir qatorda, uni barqaror ishlab chiqarish hajmini ta'minlash masalalariga doimiy e'tibor qartilmoqda. Paxta tozalash va to'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun eng zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. Ushbu sohada paxta tolasini ishlab chiqarish, qayta ishlash, sotish va undan xalqaro standartlarga mos mahsulotlar tayyorlashga doir keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Sohada bozor munosabatlarini joriy etish, fermerlik harakatini jadal rivojlantirish, zamonaviy qishloq xo'jaligi infratuzilmasini shakllantirish paxta hosildorligi va sifatini, tola ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini bermoqda.

2011 yilda mahsulotlarni eksport qilish geografiyasi



Tolani tayyorlash va qayta ishlashni tashkil qilish tizimini takomillashtirish uning sifatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Xalqaro standartlar asosida uni sertifikatlashning ilg'or tizimi joriy etildi. Paxtani sotish bo'yicha barcha turdagi xizmatlarni ko'rsatish, bir paytning o'zida 400 ming tonnadan ziyod tolani saqlash va jo'natishni ta'minlaydigan hududiy terminallar tarmog'ini o'z ichiga olgan zamonaviy infratuzilma tashkil qilindi. O'zbek tolasini iste'molchilarga yetkazib berish yo'nalishlarini yanada diversifikatsiya qilish va optimallashtirish maqsadida yangi transport yo'laklarini ishlab chiqish davom etmoqda. Yurtimizda yetishtirilgan paxta tolasini temir yo'l orqali qator davlatlarga transportirovka qilish uchun chegirmalar taqdim etish to'g'risida kelishuvlarga erishildi.

Yarmarka xorijiy ishtirokchilarining ta'kidlashicha O'zbekiston barcha xaridorlar uchun teng imkoniyatlar yaratishi bilan paxta tolasini eksport qiluvchi boshqa davlatlardan ajralib turadi. Kontraktatsiya hajmi, yetkazib berish shartlari bo'yicha hech qanday cheklovlar yo'q. Mamlakatimizdagi tashqi savdo kompaniyalari sotishning zamonaviy va samarali uslublarini qo'llagan holda faol marketing strategiyasini amalga oshirmoqda, tolani kafolatli, bir maromda va barqaror yetkazib berishni ta'minlamoqda.

Yarmarkada O'zbekiston yengil sanoati korxonalarining keng turdagi mahsulotlari, jumladan, yigirilgan ip, polotno, matolar, tayyor tikuvchilik trikotaj hamda shoyi buyumlar namoyish etilmoqda.

Mamlakatimizda qulay investitsiya muhiti yaratilgan. O'zbekiston barqaror xomashyo bazasi, energiya resurslari, yuqori malakali kadrlarga ega. Bularning barchasi xorijlik sheriklar bilan hamkorlikda yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni barqaror ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy to'qimachilik komplekslarini barpo etish va foydalanishga topshirish imkonini bermoqda. So'nggi besh yilda mamlakatimizda tayyorlanayotgan to'qimachilik mahsulotlari hajmi 2,6 ularni eksport qilish 2 baravar oshdi. Bugungi kunda O'zbekiston korxonalarida o'zimizda yetishtirilgan paxta tolasining uchdan bir qismidan ko'prog'i qayta ishlanmoqda. Yaqin yillarda yetishtirilgan paxtaning uchdan ikki qismini mamlakatimizda qayta ishlash rejalashtirilmoqda. Umumiy qiymati 1,7 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan yangi 55 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Yangi korxonalarni paxta yetishtiriladigan va tola ishlab chiqariladigan hududlarga yaqinroq joyda barpo etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Surxondaryo viloyatidagi "Surxonteks" qo'shma korxonasi shular jumlasidandir. Bu yerda yiliga eng yuqori sifatli 120 ming tonna paxta tolasini ishlab chiqarilayotir. Korxonada o'rnatilgan Germaniya va Shveysiriyaning zamonaviy uskunalari yiliga 4,2 ming tonnagacha raqobatbardosh yigirilgan ip tayyorlash imkonini bermoqda. Shuningdek, 2010 yilda bu borada Boltiqbo'yi va Belarus korxonalari bilan mahsulotlar yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzilgan bo'lsa, 2011 yilda ularning to'qimachilik sohasi vakillari bilan dastlabki kelishuvlarga erishildi. Ha, Xalqaro O'zbekiston paxta va to'qimachilik yarmarkasining o'tkazilishi mamlakatimiz korxonalari, ayniqsa joylardagi korxonalarga to'qimachilik mahsulotlarimizning xorijlik iste'molchilari bilan bevosita shartnomalar tuzish va ularni jahon bozorlariga olib chiqish uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda.

Shuni ham aytish kerakki, O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari Yevropa, Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerikaning qirtdan ortiq mamlakatlariga eksport qilinmoqda. Bunda "O'zbekengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi huzurida zamonaviy liboslar mobellarini yaratish uchun dizayn-markaz tashkil etilgani katta ahamiyat kasb etmoqda. Yarmarka davomida ushbu markaz tomonidan tashkil qilingan modalar namoyishi ham bo'lib o'tdi. Dizaynerlarimiz tomonidan jahon moda sanoati tendensiyalari va milliy an'analarimizni hisobga olgan holda, o'zimizning matolardan tayyorlangan yengil, bejirim va ekologik toza, rang-barang liboslar modellari xorijiy ishtirokchilarda katta

qiziqish uygʻotdi.

Margʻilondagi “Yodgorlik” ochiq aksiyadorlik jamiyatida ham paxta va shoyidan anʻanaviy usulda qoʻl dastgohlarida toʻqilgan mahsulotlar xorijda xaridorgir va noyob mahsulot boʻlib bormoqda.

Mazkur korxonada ishlab chiqarilayotgan yigirilgan ip, mato va tayyor mahsulotlar Yevropa mamlakatlariga yetkazib berilmoqdaki, bu dunyoda yurtimizga, xalqimiz tarixi, madaniyati va anʻanalariga boʻlgan qiziqish tobora ortib borayotganidan dalolatdir. Shu sababli yarmarka kunlari bu korxona mahsulotlari namoyish etilayotgan stendlar atrofi odamlar bilan juda gavjum boʻladi. Xorijlik koʻplab biznesmenlar bilan uning mahsulotlarini sotish va yetkazib berish shartlari boʻyicha amaliy aloqalar oʻrnatildi.

Shunday qilib, 7 va 8 Xalqaro Oʻzbekiston paxta va toʻqimachilik yaramakalari davlatimiz rahbari Islom Karimov tashabbusi bilan malakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat, iqtisodiy salohiyatimizni yanada mustahkamlash, xalqimiz farovonligini yuksaltirishga qaratilgan keng koʻlamli islohotlar yuksak samaralar berayoganining yana bir namoyishi boʻldi. Jahon paxta va toʻqimachilik sohasidagi muhim voqealardan biri boʻlgan ushbu yarmarkaning har yili oʻtkazilishi dunyoning turli minataqalaridagi ushbu soha vakillariga jahon bozorini rivojlantirish istiqbollarini muhokama etish, yangi hamkorlar topish, Oʻzbekiston bilan ishonchli, uzoq muddatli va oʻzaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish uchun mustahkam asos yaratishda muhim omil boʻlmoqda.

Darhaqiqat, Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan anʻanaviy tarzda oʻtkazib kelinayotgan Xalqaro Oʻzbekiston paxta va toʻqimachilik yarmarkasi jahon bozorida mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sifatli paxta tolasiga boʻlgan talab oshishi, tolni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va toʻqimachilik mahsulotlari eksportini koʻpaytirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur yarmarkada qatnashish istagini bildirayotgan davlatlarning yirik toʻqimachilik kompaniyalari hamda xalqaro eksportlar safini kengayib borayotgani dunyo bozorida tolamizning yuqori sifati eʼtirof etilayotganidan dalolatdir. Masalan, 2012 yil 17-18 oktabrda oʻtkazilgan 8 Xalqaro Oʻzbek paxta va toʻqimachilik yarmarkasida 40 dan ortiq mamlakatdan 1000 ga yaqin vasiylar qatnashdi.

Ayni paytda mamlakatimizda paxta tolasi sifatini yanada yaxshilash, jahon bozorida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish yuzasidan keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu

borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 3 aprelda qabul qilingan”2007-2011 yillarda paxta tozalash sanoati korxonalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish Dasturi to‘g‘risida”gi qarori muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dastur doirasida butun respublikamizdagi mavjud paxta tozalash korxonalari bosqichma-bosqich modernizatsiya va rekonstruksiya qilinib, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlandi. Masalan, 2008-2010 yilda Surxondaryo viloyatida “Angorpaxta”, “Sho‘rchipaxta” aksiyadorlik jamiyatlari to‘liq rekonstruksiya qilinib, zamonaviy xorij texnologiyalari asosida qayta jihozlangan bo‘lsa, 2011 yilda «Sherobodpaxta» aksiyadorlik jamiyatida modernizatsiya ishlari amalga oshirildi. Natijada mazkur korxonalarda ishlab chiqarish unumdorligi oshib, tola sifati yaxshilandi. Jahon bozoriga xaridorgir xomashyo yetkazib berish yo‘lga qo‘yildi. Xususan, “Angorpaxta” aksiyadorlik jamiyatida amalga oshirilgan rekonstruksiya ishlari mahsulot ishlab chiqarish unumdorligini 20-25 foizga ko‘paytirish imkonini berdi. Korxona qayta rekonstruksiya qilinguncha 30-35 ming tonna xomashyoni qayta ishlagan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalarni o‘rnatish natijasida uning yillik quvvati 45 ming tonnaga yetdi. Elektr energiyasi sarfi 25 foiz qisqardi. Urug‘lik uchun tukli va tuksiz chigit tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Qayta barpo etilgan keng va yorug‘ sexlarda ishchilarning mehnat qilishi uchun barcha qulayliklar yaratildi. “Sho‘rchipaxta” aksiyadorlik jamiyatida ham ishlab chiqarish unumdorligi 20 foizga oshdi. Tola sarfi yuz foizlik ko‘rsatkichga yetkazildi. Elektr energiyasi 20 foizi tejalmogda.

Ta’kidlash joizki, mustaqillik yillarida O‘zbekiston paxta tozalash sanoatida tuzilmaviy islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu o‘z navbatida o‘zbek paxta tolasining jahon bozoridagi nufuzi va raqobatbardoshligi ortganidan dalolat beradi.

G‘o‘zaga ishlov berishning eng shimoliy hududi bo‘lmish O‘zbekiston paxtachiligini rivojlantirishning muhim hususiyati intensiv turdagi navlarni yaratishdadir. Bu zamonaviy seleksiyaning strategik yo‘nalishiga aylangan. Respublika olimlari g‘o‘za navlari tezpisharligi masalasi ustida ish olib borib, so‘nggi yillarda g‘o‘zaning baland va uzun tolali, kasallik va zararkunadalarga chidamli o‘nlab yangi tezpishar navlarini ishlab chiqdi. Istiqlol yillari milliy sertifikatlash tizimi ham sezilarli darajada o‘zgarib, paxta tolasi sifat parametrlarini dunyo amaliyotida qabul qilingan HVI ko‘rsatkichlari bo‘yicha aniqlashga o‘tdi. Ayni vaqtda o‘zbek paxtasi sifatini baholashni amalga oshirib kelayotgan Respublika “Sifat” markazi paxta tozalash zavodlarida ishlab

chiqarilayotgan har bir toy paxtaning sifat va vaznini nazorat qilish imkonini beruvchi ko'p tarmoqli sinov laboratoriyalariga ega. Joriy etilgan paxta tolasini toyma-toy sertifikatlash tizimi uning sifatini sezilarli darajada oshirib, jahon bozorida talab eng yuqori bo'lgan darajaga olib chiqdi.

Xorijiy xaridorlarga mahsulotni yetkazib berish, uni saqlash va eksport hajmlarini transportirovka qilishni yaxshilash maqsadida mavjud infratuzilmani takomillashtirish mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadidir. Mukammal yo'lga qo'yilgan logistika tizimining mavjudligi paxta eksporti jarayonidagi muhim komponentdir. Tashqi bozorlarga o'zbek paxtasini qator mamlakatlarning temir yo'llari orqali transportirovka etish narxlarini kamaytirish borasida kelishuvlarga erishildi. "O'zmarkazimpex", "O'zinterimpex" va "O'zprommashimpex" Davlat tashqi savdo kompaniyalari mustaqil ravishda o'z marketing strategiyalarini belgilab olib, paxta tolasini jahon bozori narxleri konyukturasidan kelib chiqqan holda, zamonaviy samarali savdo usullarini qo'llash orqali sotuvga chiqardi.

Jahon bozoridagi jiddiy raqobat sharoitida o'zbek paxtasining afzalliklari uning yuqori sifati hamda barqaror va o'z vaqtida yetkazib berilayotganida namoyon bo'lmoqda. "Paxta va to'qimachilik: bozorning yangi istiqbollari" nomli VIII-xalqaro O'zbekiston paxta yarmarkasi jahon paxta hamjamiyatidagi eng muhim va ahamiyatli voqealaridan biri bo'lib, paxta tolasini eksport qilishning bozor mexanizmlarini yanada rivojlantirishga va o'zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar va xorijiy xaridorlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni takomillashtirishga turtki bo'lishi shubxasiz.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yil 15 dekabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarorida sanoatda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, yetakchi tarmoqlarni, jumladan, to'qimachilik va yengil sanoatni rivojlantirishga qaratilgan muhim vazifalar belgilangan. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash mazkur sohalarni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotir. Poytaxtimizda har yili o'tkaziladigan xalqaro ko'rgazmalarda ushbu jarayon qanday amalga oshirilayotgani bilan tanishish mumkin. Masalan, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, "O'zbekengilsanoat" kompaniyasi, "Osiyo ramzi" O'zbekiston

dizaynerlar va modelyerlar uyushmasi tomonidan tashkil qilingan tadbirlar buning isbotidir. Jumladan, “To‘qimachilik sanoati-Textile Expo Uzbekistan 2011” sakkizinchi Markaziy Osiyo xalqaro ko‘rgazmasi barcha to‘qimachilik korxonalari mutaxassislari uchun muhim voqealardan biri bo‘ldi. Unda O‘zbekiston bozorining eksport salohiyati, xorijiy kompaniyalarning eng so‘nggi yutuqlari namoyish etildi. Ko‘rgazmada dunyoning 11 mamlakati – O‘zbekiston, Belarus, Germaniya, Hindiston, Qozog‘iston, Latviya, Xitoy, Polsha, Rossiya, Turkiya, Fransiyaning qirqdan ziyod yirik kompaniya va firmalari ishtirok etdi.

Umuman, ko‘rgazma mutaxassislar uchun sohadagi yangi yutuqlar va ishlanmalar bilan tanishish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish bo‘yicha muhim qarorlarni qabul qilish, ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz hamda ekologik xavfsizligini ta‘minlash borasida muhim ma‘lumotlarga ega bo‘lishda yahshi imkoniyatlar ochdi.

Ha, O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati xalqaro bozorda o‘z mavqeini tobora mustahkamlab, xorijiy ishlab chiqaruvchilar bilan bimalol raqobatlashmoqda. Mamlakatimiz kompaniyalarining ko‘rgazmadagi ko‘plab turdagi va yuqori sifatli mahsulotlari ekspozitsiyalari ham buni yaqqol tasdiqlaydi. Ular orasida tayyor tikuvchilik-trikotaj buyumlari, kiyim-kechak, trikotaj polotno ishlab chiqarayotgan korxonalar ko‘pchilikni tashkil qiladi. “Nona textile import export”, “Kaloramatex-Beshariqtekstil”, shuningdek, xorij investitsiyasi ishtirokida tashkil qilingan “Bf Textile Produsshion”, “Alkim Textile”, “Elnur And Textile” kabi xorijiy korxonalar, “Uztex Shirchiq” va “Uztex Tashkent” qo‘shma korxonalari shular jumlasidandir.

Shu ma’noda, O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining jadal rivojlanayotgani ham xorijiy kompaniyalar uchun o‘ziga xos raqobat bo‘lmoqda. Ular mamlakatimiz kompaniyalari bilan sanoatimizni sifatli kimyo moddalari va bo‘yoqlari, yordamchi materiallar, iplar va aksessuarlar bilan ta‘minlash borasida sheriklik munosabatlarini yo‘lga qo‘yishga harakat qilmoqda.

Masalan, Fransiyaning “Dider Parakian” kompaniyasining tijorat ishlari bo‘yicha direktori Raul Fabris – O‘zbekiston to‘qimachilik bozori bizda katta qiziqish uyg‘otgani tufayli uning barcha imkoniyatlarini o‘rganishga kirishdik. Xalqaro to‘qimachilik ko‘rgazmasi bu borada biz uchun juda yahshi imkoniyatdir, - degan fikrni bildirdi.

O‘ZBEKISTON YENGIL (TO‘QIMACHILIK) SANOATINING BUGUNGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Yengil sanoat mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan bo‘lib o‘z tarkibiga paxta tozalash, tikuvchilik, yigiruvchilik, to‘quvchilik, trikotaj, to‘qimachilik, pillakashlik, shoyi to‘qish va charm – poyabzal korxonalarini oladi. Bugun ularning soni 2500 dan ortiq.

Zamonaviy sanoat tarmog‘i sifatida XIX ikkinchi asr yarmi va XX asr boshlarida shakllana boshlagan O‘zbekiston yengil sanoati istiqbolli yillarida ko‘p tarmoqli sanoat kompleksiga aylandi. Respublika yalpi sanoat mahsulotida uning salmog‘i 20 foizdan ortiq.

2010 yilda “O‘zbekengilsanoat” Davlat Aksiyadorlik kompaniyasi o‘z tarkibiga “O‘zpaxtasanoat”, “O‘zbekcharm-poyabzal”, “O‘zbek ipagi” kabi uyushmalarni olib 300 mingdan oshiq kishini ish bilan ta’minladi. Tarmoq korxonalari ishlab chiqqan mahsulotlarning 70 foizi to‘qimachilikka 20 foizi to‘quv-trikotaj sahasiga, 10 foizi ipakchilikka to‘g‘ri keldi. Paxta tozalash sanoati bu hisobga kirmaydi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, sho‘rolar davrida O‘zbekiston yetarli xom ashyo resurslariga ega bo‘lishiga qaramay yengil va to‘qimachilik sanoati yaxshi rivojlanmadi. Masalan, 1940 yilda respublikada 1,3 mln. tonna paxta, 9832 tonna pilla, ko‘plab miqdorda jun va kanop tola tayyorlaganiga qaramay atigi 14,6 ming tonna yigirilgan ip, 107,5 mln, dona trikotaj buyumlari, 8,6 mln. juft paypoqlar, 3,8 mln, juft poyabzal, 3,8 ming tonna kanop va jun tola ishlab chiqarildi xolos.¹

¹ O‘zbekiston ensiklopediyasi. T., 1997, 259 bet

**Respublikada eng muhim yengil sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish (1990 yilda)¹**

Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Mahsulot nomi	O'lchov birligi
Yigirilgan ip	104,4 ming tonna	Kanop va jut tola	17,6 ming tonna
Ip gazlama	515,4 mln. metr	Trikotaj mahsulotlari	104,8 mln. dona
Ipak ip	2522 tonna	Paypoqlar	113,2 mln. juft
Shoyi gazlama	156,0 mln. metr	Poyabzal	46,7 mln. juft
Noto'qima materiallar	157 mln. kv.m	Gilam va gilam mahsulotlari	8095 ming kv.m

O'zbekiston mustaqillika erishgach katta xom ashyo zahirasi ega bo'lgan yengil sanoat va uning tarmoqlari jadal rivojlana boshladi. Xorijiy firmalar bilan hamkorlikda istiqlolning dastlabki o'n yilida 50 dan ortiq qo'shma korxonalar qurildi. Tarmoqqa chet el sarmoyalarini jalb qilish 1996 yilda 5,25 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa 2000 yilda 125 mln. AQSH dollariga yetdi.

2010 yilda O'zbekistonda xorijiy investorlarning ulushi 85 foizini tashkil etdi. Bunda xorijiy davlatlarning ulushi quyidagicha bo'ldi: Turkiya- 25%, Janubiy Koreya – 11%, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH har biri 7 foizdan. Shveysariya – 6%, Rossiya Federatsiya – 5% va hokozani tashkil etdi.

Bu yengil sanoatda mahsulot ishlab chiqarishni kuchaytirishga, uning sifatini yaxshilashga olib keldi. Eng muhimi chetga xom ashyo emas, balki tayyor mahsulot chiqarish, jahon bozorida uning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini berdi.²

Natijada 2000 yilda O'zbekiston yengil sanoati tarmoqlarida 470 mln. m² ip gazlama, 480 ming m² jun gazlama, salkam 50 mln. m² shoyi gazlama, 35 mln. dona trikotaj buyumlari, 6,5 mln. juft poyabzal, 67,5 mln. juft paypoqlar, 2 mln. m² gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarildi.

¹ O'sha joyda

² "O'zbekengilsanoat" DAK materiallari

2011 yilda esa yengil sanoatda jami 114 ta loyiha amalga oshirilib 521,3 mln. AQSH dollari miqdoridagi investitsiya, shundan bevosita xorijiy investitsiyalar 201,4 mln. dollar, banklar krediti – 204,8 mln. dollar va mahalliy investorlar ulushi – 115,1 mln. dollar joriy etilib mavjud korxonalar modernizatsiya va rekonstruksiya qilindi, ishlab chiqarish quvvatlari oshirildi.

Jumladan, ularning quvvatlari kalava ip ishlab chiqarishda – 198,9 ming tonnaga, tayyor mato – 26,7 mln. pogon metrغا, tayyor trikotaj mato – 9,5 ming tonnaga, tayyor tikuvchilik mahsulotlari – 42,6 mln. donaغا, xom ipak – 220 tonnaga, paypoq mahsulotlari – 29,2 mln. juftغا, gilam mahsulotlari – 748 ming kvadrat metrغا oshdi.

Shunday qilib, yengil sanoat respublikamiz iqtisodiyotining paxta, pilla, jun kabi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini birlamchi va ikkilamchi qayta ishlovchi, ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi yetakchi tarmog‘i bo‘lib qoldi. “O‘zbekengilsanoat” DAK ma‘lumotlariga ko‘ra 2010 yilda respublikada jami 2300 ta katta-kichik yengil sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatib ularning 680 tasi to‘qimachilik, 87 tasi ipakchilik, 411 tasi trikotaj, 1032 tasi tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqargan va hakoza.

Korxonalarining katta qismi aholisi zich bo‘lgan viloyatlarda faoliyat yuritgan. Masalan, Andijonda 321 ta, Farg‘onada – 289 ta, Namanganda – 221 ta, Buxoroda – 181 ta, Xorazm va Samarqandda 100 tadan, Toshkent shahrida 516 ta yengil sanoat korxonasi bo‘lib, qolgan viloyatlarda ularning soni 40-90 tani tashkil etdi.

Umuman, yengil sanoat korxonalarining yillik o‘rtacha quvvati 373 ming tonna kalava ip, 282 mln. m² ip gazlama, 81,8 ming tonna trikotaj mato, 168 mln. dona tayyor tikuv-trikotaj buyumlari, 71,3 mln. juft paypoq mahsulotlari ishlab chiqarishga teng.

2011 yilda tarmoqda tovar mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2010 yilga nisbatan 130 foizga, xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarish esa 149,1 foizga o‘sdi. Agar tarmoqda 2010 yilda 1.169,5 mlrd. so‘mlik tovar mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2011 yilda bu ko‘rsatkich 1.508,7 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Eksport miqdori 25 foizga o‘sdi.

Masalan, 2010 yilda respublikamizning 150 ta eksporter

korxonalari jahonning 5 ta davlatida 30 ta savdo uylarini ochib qiymati 600 mln. dollardan ortiq mahsulotni eksport qilgan bo'lsa, 2011 yilda mos ravishda korxonalar 180 taga, davlatlar soni 10 taga, savdo uylari 40 taga yetgani holda 800 mln. dollarlik mahsulot eksport qilindi.


Buni Farg'ona viloyatida joylashgan va sifatli to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan "ANTEKS-GRUP" fabrikalar uyushmasiga kiruvchi 4 ta fabrika misolida ko'radigan bo'lsak, quyidagi holatga duch kelamiz. Fabrikalarni umumiy quvvati bir oyda 1000 tonna kalava ip va 240 ming pogon metr gazlama ishlab chiqarishga teng bo'lib 100 foiz kalava ip, silon va surp tayyorlanadi. Tovar mahsulotning katta qismi Qozog'iston, Rossiya, Xitoy, Ukraina, Latviya, Germaniya, Belgiya, Italiya va boshqa davlatlarga sotiladi.

Umuman eksport tarkibida yengil sanoat mahsulotlari kalava ip – 56,1 foizni, trikotaj buyumlari – 13 foizni, gazlama – 6,6 foizni, trikotaj mato – 5,5 foizni, xom ipak – 2,2 foizni, boshqa mahsulotlar 15,2 foizni tashkil etdi.

Yengil va to'qimachilik sanoati mahsulotlarining 40 foizi MDH davlatlariga, 18,8 foizi Yevropa Ittifoqi davlatlariga, 16,3 foizi Xitoy Xalq respublikasiga, 15,3 foizi Turkiyaga, 4,9 foizi Janubiy Koreyaga va 4,7 foizi boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keldi.

Hozirda Respublikamiz Prezidenti va hukumati yengil sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor bermoqda. Natijada tarmoq strategiyasini belgilovchi qator meyoriy hujjatlar qabul qilindi. Bular: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-2011 yillarda qabul qilingan bir qator qarorlari, nutq va ma'ruzalari, shuningdek hukumatimiz qarorlari va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlardir.

“O‘zbekyengilsanoat” DAK korxonalarining tarmoqlararo va mahsulot ishlab chiqarish turlari b‘yicha taqsimlanishi



TARMOQ STRATEGIYASINI BELGILOVCHI MEYORIY HUJJATLAR

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 yanvardagi ma‘ruzalaridan kelib chiqqan vazifalar - tarmoqni modernizatsiyalash va yangilashni chuqurlashtirish, investitsiya siyosatini faol olib borish, aholi bandligini ta‘minlash;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 yanvardagi PQ-1050-sonli qarori - Maqsadli parametrlar, iste‘mol tovarlari ishlab chiqaruvchilar uchun soliqqa tortish va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar berish to‘g‘risida.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 15 dekabrda PQ-1442-sonli qarori – “O‘zbekiston Respublikasi sanoatini 2011-2015 yillarda rivojlantirish dasturi” haqida.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda

PQ-1455-sonli qarori – “2011 yilga rejalashtirilgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat investitsiya Dasturi haqida”

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 martdagi PQ-1512 - sonli qarori – “To‘qimachilik sanoati korxonalarini jadal rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha choralar to‘g‘risida”.

Shuningdek hukumatimiz tomonidan ma‘qulangan va ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga yo‘naltirilgan mazkur hujjatlar Respublikamizda iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirishga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Hujjatlardan ko‘rinib turibdiki, yengil sanoatni rivojlantirishning mazkur strategiyasida avvalo, paxta tolasini o‘zimizda qayta ishlashni ko‘paytirish, mavjud korxonalarni qayta jihozlash va modernizatsiyalash, yuqori texnologiyali yangi korxonalar tashkil etish, ichki bozorni to‘ldirish, eksport salohiyatni oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, to‘qimachilik mashinasozligini tiklash kabi masalalar o‘z aksini topgan.


Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda PQ-1455 sonli “2011 yil Davlat investitsiya Dasturi to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 2010 yilda “O‘zbekengilsanoat” DAK tomonidan jami 13 ta loyiha amalga oshirilib, jami 149,84 mln. dollarga teng bo‘lgan investitsiyalar o‘zlashtirildi.

2012-2013 yillarda yana quyidagi loyihalar amalga oshirildi.

2010-YILDAN KEYIN JORIY ETILGAN YANGI LOYIHALAR

- **Indorama, Singapur**
(ixcham yigirish)
Investitsiya –55 mln. doll.
Ishlanadigan tola -18m. tn

Eksport – 32 mln. doll
Ish o‘rni – 550 ta
Ishga tushirilgan vaqti –
2010-2011
Joylashgan o‘rni –qo‘qon sh.




- **BO Grupp, Turkiya**
(yigirish va to‘qish)

Investitsiya – 7 mln. doll
Ishlanadigan tola -5 ming.tn

Eksport -10 mln. doll
Ish o‘rni – 300 ta
Ishga tushirilgan vaqti –
2010-2011
Joylashgan o‘rni –
Toshkent sh.

- **TTG, Koreya**
(yigiruv, to‘quv, tikuv)

Investitsiya -70 mln. doll
Ishlanadigan tola - 10 ming.tn
Eksport – 45 mln. doll
Ish o‘rni – 1250 ta
Ishga tushirigan vaqti –
2011-2012
Joylashgan o‘rni – Toshkent vil.



- **Sanflag Grup, Buyuk Britaniya**
(yigiruv, to‘quv tikuv)

Investitsiya -53,0 mln. doll
Ishlanadigan tola - 20 ming.tn
Ish o‘rni – 450 ta
Ishga tushirilgan vaqti –
2011-2013
Joylashgan o‘rni – Buxoro sh.

«RITER»


O‘zbekiston - Shveysariya **(to‘qimachilik dastgohlarini** **ishlab chiqarish loyihasi)**

Investitsiya - 2,0 mln. doll.
(I bosqich 2011-2012 yillarda)
Tasmali va taroq dastgohlarini
ishlab chiqarish
Ishga tushirilgan vaqti –
2011 – 2015 yillar
Joylashgan o‘rni – Toshkent sh.

«8 MART»

Mahalliy investorlar **(trikotaj mahsulotlari)**

Loyiha qiymati - 2,0 mln. doll.
Ishga tushirilgan vaqti – 2011 yil
Yillik quvvati – 3,5 mln. Dona
Joylashgan o‘rni – Samarqand sh.



Shu va boshqa loyihalarning amalga oshirilishi 2011-2015 yillarda yengil sanoat tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishni kamida 2-3 barobar o'sishini ta'minlanadi.

27-jadval.

2011-2015 yillarga mo'ljallangan tarmoqning rivojlanish dasturi

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2010 yil haqiqatda	Istiqbolda 2015 y.	2010 yilga nisbatan o'sish (foizda)
	Paxta tolasini qayta ishlash	ming tonna	330,0	695,0	2,1 b.
I	Mahsulot hajmi, jami	mlrd. so'm	1 169,5	3 656,7	3,1 b.
	shu jumladan:				
1	ip kalava	ming tonna	201,3	393,0	2,0 b.
2	ip gazlama	mln. kv. m.	107,5	228,0	2,1 b.
3	trikotaj mato	ming tonna	27,9	87,0	3,1 b.
4	tikuv-trikotaj mahsulotlar	mln. dona	94,3	195,2	2,1 b.
5	paypoq mahsulotlari	mln. juft	15,2	51,0	3,4 b.
II	Eksport	mln. doll.	619,1	1 200,0	1,9 b.

Bu ishlar amalga oshirilgach tarmoqda jami 27.352 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi gazlamalar bo'yicha 13,3 foizdan 16,6 foizga, tayyor mahsulotlar bo'yicha 15,4 foizdan 33,8 foizga, paypoq mahsulotlari 0,8 foizdan 1,1 foizga o'sgani holda kalava ip

ishlab chiqarish 55 foizdan 44 foizga, trikotaj mato 9,8 foizdan 4,4 foizga kamaydi. Demak, asosiy e'tibor chetga xomashyo emas, balki tayyor mahsulot chiqarishga qaratilmoqda.

Shuningdek, mazkur dasturning amalga oshirilishi natijasida ichki bozorni, ya'ni aholi ehtiyojlarini qondirish tayyor gazlamalar bo'yicha 130,6 foizga, tikuv-trikotaj mahsulotlari bo'yicha 118,1 foizga, paypoq mahsulotlari bo'yicha 63 foizga qondirilishiga erishish kutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xozirgi kunda Respublikamizda yengil sanoat korxonalarini qurish, paxtani qayta ishlashni ikki barobar oshirib 65-70 foizga yetkazish, minglab odamlarni ish bilan ta'minlash ko'zda tutilmoqda.

XULOSA

Aziz o'quvchi! Shunday qilib, Siz mazkur qo'llanma orqali, umumlashtirib aytganda, paxta sanoati, to'qimachilik va yengil sanoat soxalari, ya'ni o'z tanlagan ixtisosligingiz, kerak bo'lsa butun hayotingizni bag'ishlagan kasb-koringiz, ya'ni bo'lajak mutaxassisligingiz shuningdek, bu sohalarga mutaxassis-kadrlar tayyorlovchi, nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda yetakchi bo'lgan, o'zining 80-yillik yubileyini munosib kutib olayotgan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti xaqida yetarlicha tasavvur va ma'lumotga ega bo'ldingiz.

Agar shu bilan biz Sizda paxta sanoati, to'qimachilik va yengil sanoat soxalari, ya'ni bo'lajak kasb-hunaringizga bir oz bo'lsada qiziqish yoki faxr va g'urur uyg'ota olgan bo'lsak, o'zimizni benihoya xursand deb bilamiz.

O'ylaymizki, sizlar paxta sanoati, to'qimachilik va yengil sanoat soxalarini tanlab to'g'ri ish qilgansiz. Chunki, bu sohalarning istiqboli porloq. Demak, Siz o'z tanlagan yo'lingizdan aniq maqsad asosida harakat qilsangiz, amin bo'lingki hayot va tanlovda adashmaysiz.

Biz tayanch oliy o'quv yurti bo'lgan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti rahbariyati va ustoz-murabbiylari nomidan Sizni kelajakda kasbiy bilimlarni chuqur egallagan mutaxassis, boshqaruv ilmini puxta o'zlashtirgan zamonaviy rahbar, Vatan istiqboli, Millat g'ururi, El-yurt manfaati yo'lida fidokorona mehnat qiluvchi, saxovatli va mehr-muruvvatli barkamol inson bo'ib yetishishingizni chin dildan istab qolamiz!

Mas'uliyatli hayot yo'llarida maqsad, xarakat, shukur, sabr, dasturulamal bo'lsin! Omad, baht-saodat doimo Sizlarga yor bo'lsin!

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.A.Karimov. Istiqlol yo‘li: muammolar va rejalar: O‘zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1-T. O‘zbekiston. 1996 y. 11-13 bet.
2. I.A.Karimov. “O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat”.-T. O‘zbekiston: 1993 y. 5-17 bet.
3. I.A.Karimov. Elni vatan manfaati birlashtiradi. O‘zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura, T. O‘zbekiton. 1996 y. 188 bet.
4. I.A.Karimov. O‘zbekiston-ulkan imkoniyatlar mamlakati. Shu kitob. 251 bet.
5. I.A.Karimov. “Bizdan ozod va obod vatan qolsin” T. 2-T. O‘zbekiston. 1996 y. 31 bet.
6. I.A.Karimov. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”. T. 3-T. O‘zbekiston. 1996 y. 220, 346-347 betlar.
7. I.A.Karimov. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. - “Xalq so‘zi”, 2006 y. 11-fevral
8. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.-T. “O‘zbekiston”, 2008 y
9. I.A.Karimov. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida-T. “O‘zbekiston”, 2011-y
10. “O‘zbekiston paxtani qayta ishlash va paxta maxsulotini sotish davlat aksionerlik assotsiyasini tashkil etish to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 1992-yil 7-noyabr.
11. “Respublika paxta tozalash sanoatini monopoliyadan chiqarish va boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2001-yil 11-iyun
12. “Xlopkoprom” – “Paxtasanoat” respublika ishlab chiqarish birlashmasini tugatish va “O‘zdavpaxtasanoatsotish hissadorlik assotsiyasini tugatish to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori. 1998-yil 10-noyabr.

13. “Hissadorlik jamiyatining boshqarish tizimini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 1998 y. 22 avgust.
14. “1999-2000-yillarda paxta navlarini yangilash va navlarni joylashtirish to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 1998-yil 25-noyabr.
15. YE.Berezikov. Legendi i tayni Uzbekistana -T. G‘.G‘ulom. 1991 y.
16. Paxta oltindan ham bebaho - “Xalq so‘zi”, 2000 yil 13- dekabr
17. O‘zbekiston paxta tozalash sanoati mustaqillikning o‘n yilida.- “Toshkent islom universiteti”, 2001-yil.
18. I.Hayitov. Paxtachilik –vatanimiz istiqboli-“Muloqat” jurnali, 2000 y. 5-son. 51-52-betlar.
19. I.Hayitov. Endi milliy boyligimizga aylandi- “Guliston” jurnali. 2000 y. 5-son, 44-45 bet.
20. O‘zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya.-T: QTB, 1997 y.
21. Paxta tozalash, to‘qimachilik va yengil sanoat korxonalarining joriy arxivi materiallari.
22. Joriy matbuot va internet materiallari.
23. “O‘zbekengilsanoat” DAK va “O‘zpaxtasanoat” uyushmasi joriy materiallari.
24. Mahalliy OAV va internet materiallari.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1. To‘qimachi kadrlar tayyorlash maskani.....	5
2. To‘qimachilikning paydo bo‘lishi, uning insoniyat jamiyati hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati	14
3. To‘qimachilik sanoati taraqqiyoti bosqichlari	21
4. Turkistonda to‘qimachilik sanoati tarmoqlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi (XIX-asr 2-yarmi XX-asr boshlari)	31
5. O‘zbekiston paxta tozalash sanoatining sho‘rolar mustamlakachiligi yillaridagi ahvoli.....	41
6. SHo‘rolar davrida O‘zbekistonning mamlakat xomashyo bazasiga aylanib qolishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.....	51
7. Istiqlol yillarida mamlakat paxta tozalash sanoati faoliyatini takomillashtirishga oid ko‘rilgan chora-tadbirlar.....	57
8. Respublikada paxta tozalash zavodlarini qurish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash hamda yangi texnologiyalar bilan jixozlashning xolati.....	69
9. Paxta tozalash sanoatida islohotlarni yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish	82
10. O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.....	93
11. O‘zbekistonda ipakchilik va ipak sanoatining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.....	109
12. O‘zbekistonda yengil sanoat tarmoqlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi	119
13. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati: jahon standartlari darajasidagi sifat.....	126
14. O‘zbekiston yengil (to‘qimachilik) sanoatining bugungi holati va rivojlanish istiqbollari	134
Xulosa	143
Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati.....	144

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2012 yil
26 dekabrda 507-sonli buyrug'iga asosan nashrga ruxsat berilgan.**

**Bosma t. 9.25 Teraj 500 nusxa (1-zavod 100 nusxa, 2-zavod 400 nusxa)
Kompyuterda teruvchi va sahifalovchi. Sh.S.Xoldorov
DM «NASHR SERVIS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.**